

ILXOMJONOVA FOTIMA MUXIDDINOVNA

**AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA
MOLIYAVIY MENEJMENTNING
ZAMONAVIY MODELLARIDAN
SAMARALI FOYDALANISH**

Monografiya



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

ILXOMJONOVA FOTIMA MUXIDDINOVNA

**AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIVAVIY MENEJMENTNING
ZAMONAVIY MODELLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH**

MONOGRAFIYA

TOSHKENT – 2025

UO‘K: 336.647

KBK: 65.290-93

Ilxomlonova F.M. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentning zamonaviy modellaridan samarali foydalanish. - **T.: “PUBLISHING HIGH FUTURE” OK nashriyoti, 2025. – 170 bet.**

Mas’ul muharrir:

PhD, dotsent Xadjayeva Shodiya Abidjanovna

Taqrizchilar:

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor – Allayarov
Shamsiddin Amanullayevich.

dotsent, Raxmatullaeva Nargiza Oktyabrevna

Ushbu monografiyada jahon mamlakatlarida aksiyadorlik jamiyatlarini modernizatsiyalash va raqobatbardoshligini oshirishda moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatini yanada kengaytirish, mazkur yo‘nalishda moliyaviy menejment faoliyatini muqobil tizim sifatidagi ahamiyatini oshirish va rivojlantirishga qaratilgan izlanishlarga ham alohida e’tibor qaratilgan. Xalqaro amaliyotda aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy resurslarini samarali boshqarish, pul oqimlarini optimallashtirish, aktivlar rentabelligini ta’minlash va faoliyat barqarorligini oshirishda moliyaviy menejmentning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shuningdek, Jahon miqyosida aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimini takomillashtirish bo‘yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ularda asosan moliyaviy menejmentning kompaniyalarni rivojlantirishdagi o‘rni, moliyaviy menejmentning kompleks vazifalari, moliyaviy resurslarini samarali boshqarish strategiyalari shu bilan birga moliyaviy modellardan samarali foydalanish orqali milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga oid masalalar qamrab olingan.

Monografiyada aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy -amaliy tavsiyalar berilgan.

Monografiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 2025-yil 28-apreldagi Kengashida muhokama qilingan va № 9-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9910-571-40-4

©“PUBLISHING HIGH FUTURE” OK, 2025

©F.Ilxomjonova, 2025

KIRISH

Global o'zgarishlar sharoitida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini modernizatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirishda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish dolzarbligi oshib, moliyaviy menejment samaradorligini ta'minlashga keng e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Jahon bankining "2022-yil ko'rsatkichlarida yalpi ichki mahsulotning joriy qiymati dunyoda 100,88 trln. AQSh dollariga teng bo'lib, mamlakatlar kesimi bo'yicha Yaponiyada 4,256 trln. AQSh dollarlik, Germaniyada 4,082 trln. AQSh dollarlik, Janubiy Koreyada 1,674 trln. AQSh dollarlik, Indoneziyada 1,319 trln. AQSh dollarlik, Nederlandiyada 1,009 trln. AQSh dollarlik hajmda mahsulot va xizmatlar yaratilgan"¹. Qayd etish joizki, hudud va resurslari kam sonli bo'lishiga qaramasdan, shu davlatlardagi korxonalarda moliyaviy menejment tizimi samaradorligi yuqori bo'lishi makroiqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishishni ta'minlagan. Aynan, mazkur jihatlar aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentning zamonaviy modellaridan samarali foydalanish va uni rivojlantirishni taqozo etmoqda.

Xalqaro tajribada aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy resurslarini samarali boshqarish, pul oqimlarini yaxshilash, aktivlarning rentabelligini ta'minlash va faoliyatning barqarorligini oshirishda moliyaviy menejmentning roli kun sayin kattalashmoqda. Shuningdek, Jahon miqyosida aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimini takomillashtirish bo'yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ularda asosan moliyaviy menejmentning kompaniyalarni rivojlantirishdagi roli, moliyaviy menejmentning kengaytirilgan vazifalari, moliyaviy resurslarni samarali boshqarish strategiyalari hamda moliyaviy modellardan foydalanish orqali milliy iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bog'liq masalalar yoritilgan. Biroq, bu tadqiqotlarda moliyaviy texnologiyalarning moliyaviy menejment usullarini takomillashtirishdagi o'рни, moliyaviy menejment modellarini optimallashtirish orqali kompaniyalarni rivojlantirish bilan bog'liq dolzarb masalalar yetarli darajada ochib berilmagan. Bu,

¹Jahon banki ma'lumotlari: https://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP.MKTP.CD?most_recent_value_desc=true

o'z navbatida, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentning zamonaviy modellaridan samarali foydalanish bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlarning ahamiyatini ta'kidlaydi.

O'zbekiston Respublikasida milliy aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy menejmentini takomillashtirish va ularning faoliyat samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash borasida turli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Zero, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida "2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish, yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish, yirik korxonalar tomonidan import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va hududiy korxonalar bilan kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini yo'lga qo'ygan korxonalarni faol rag'batlantirish tizimini joriy qilish"² kabi vazifalar belgilab olingan bo'lib, unda aksiyadorlik jamiyatlarining o'rni yuqori hisoblanadi. Mazkur jihatlar milliy aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentning zamonaviy usullaridan keng foydalanish va faoliyat samaradorligini oshirish, pul oqimlarini to'g'ri tashkil etish, moliyaviy modellashtirishning eng samarali yo'nalishlarini tanlashga doir ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF–37-son "“O'zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida”gi, 2023-yil 10-noyabrdagi PF–193-son “Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, 2023-yil 11-sentyabridagi PF–158-son "“O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”gi, 2022-yil 29-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi, 2019-yilning 8-yanvardagi PF–5614-son “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yilning 11-sentyabrdagi PF–158-son "“O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”gi farmoni.

chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2023-yilning 1-martidagi PQ-83-son "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yilning 18-avgustidagi PQ-283-son "Davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarini isloh qilish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 9-martdagi 107-son "Davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan tashqi qarzlarni jalb qilish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 4-maydagi 266-son "Davlat ishtirokidagi korxonalarning aktivlaridan samarali foydalanishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2018-yilning 14-dekabrda 1013-son "Davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Mazkur monografiyaning birinchi bobida "Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentning zamonaviy modellaridan samarali foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari" deb nomlanib, ushbu bobda aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentning iqtisodiy mazmuni, ilmiy-nazariy asoslari, aksiyadorlik jamiyatlaridagi moliyaviy menejment tizimining tashkiliy-huquqiy asoslari, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentning modellari kabilar yoritib berilgan.

Monografiyaning "Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentning amaldagi holati tahlili" deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy holati tahlili, O'zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment amaliyoti tahlili shu bilan birga iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlardagi kompaniyalarda moliyaviy menejment samaradorligi tahlili o'rganilgan shu bilan birga yoritib berilgan.

Monografiyaning uchinchi bobi esa "O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari-ning moliyaviy menejmentni zamonaviy modellar asosida rivojlantirish istiqbollari" deb nomlanib, mazkur bobda aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy

menejmentini zamonaviy modellar asosida rivojlantirish yo‘nalishlari qolaversa milliy aksiyadorlik kompaniyalarida moliyaviy menejmentni samarali tashkil qilishda zamonaviy moliyaviy texnologiyalarning istiqbollari imkoniyatlari o‘rganilgan va yoritib xulosalar berilgan.

Mazkur monografiya har bir moliyaviy menejment sohasida faoliyat olib borayotgan rahbar xodimlarning tashkiliy muammolari bilan shug‘ullanuvchi ilimiy tadqiqotchilar, magistrlar, o‘qituvchi va boshqa talabalar uchun mo‘ljallangan.

Monografiya bo‘yicha bildirilgan istak, takliflarni muallif albatta ijobiy qabul qiladi va buning uchun albatta oldindan minnatdorchilik bildirib qo‘yadi.

I BOB. AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY MENEJMENTNING ZAMONAVIY MODELLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentning mazmuni, ilmiy-nazariy asoslari

Milliy iqtisodiyotni rivojlanishida, davlat va fuqarolarning ehtiyojlarini qondirilishida aksiyadorlik jamiyati shaklidagi kompaniyalarning o'rni beqiyosdir. Bizga ma'lumki, iqtisodiyotning asosiy muammolaridan hisoblangan "resurslarni cheklanganligi va ehtiyojlarning cheksizligi"³ barcha yo'nalishlardan moliyaviy resurslarni nazoratga olishning muhimligini anglatadi. Shu o'rinda, qayd etishimiz joizki, moliyaviy menejment yoki moliyaviy boshqaruv umumiy menejmentning bir yo'nalishi hisoblanadi.

Menejmentni umumiy shaklda ishlab chiqarishni iqtisodiy boshqarish tizimi sifatida qarash mumkin, agar u boshqaruv tamoyillari, metodlari, shakl va usullarini o'z ichiga olsa. Aslida menejment boshqaruv nazariyasi va samarali boshqaruvning amaliy ko'rinishlari bilan chambarchas bog'liqdir. Menejmentning asosiy elementi – maqsadli yo'naltirilgan qidiruv, uzluksiz ta'lim va barcha resurslardan, shu jumladan, moliyaviy resurslardan yanada samarali foydalanish uchun amalga oshiriladigan tashkilot faoliyatidir. Yuqorida aytib o'tganimizdek, moliyaviy menejment umumiy menejmentning bir qismidir.

Ba'zi manbalarda moliyaviy menejment moliyaviy resurslarni boshqarish, investitsiyalarni oshirish va kapital hajmini ko'paytirishga qaratilgan deb ta'riflanadi. Moliyaviy menejmentning umumiy ko'rinishi moliyaviy resurslar harakatini boshqarishni o'z ichiga oladi. Iqtisodchi olim C.Paramasivan qayd etishicha, "Moliyaviy menejment umumiy boshqaruvning ajralmas qismidir. Bu kompaniyadagi moliyaviy menejerlarning vazifalari bilan bog'liq va shu tizimi qay darjada samarali ishlasa faoliyat barqarorligi shu darajada uzoq bo'ladi"⁴.

³ Mankiw N. G., Taylor M. P. Economics. – Cengage Learning EMEA, 2020. 527 p.

⁴ Paramasivan C. Financial management. – New Age International, 2009. 264 p.

Fikrimizcha, menejment umumiy boshqaruvni ifodalasa, aynan pul oqimlarini va moliyaviy resurslarni boshqarish moliyaviy menejmentning vazifasidir.

Xorijlik iqtisodchilardan H.Baker, G.Powell o'zining ilmiy tadqiqotlarida "Moliyaviy menejmentni tushunish har qanday biznes tashkilotining muvaffaqiyatining asosiy tarkibiy qismidir. Moliyaviy menejment firmaga qiymat qo'shadigan biznes qarorlariga e'tibor qaratadi"⁵, deya ta'kidlashadi. Moliyaviy menejmentning nazariya va amaliyoti nafaqat biznes yurutuvchi subyektlarga, balki oddiy fuqarolar uchun ham muhim bo'lib, moliyaviy resurslarni shakllantirish, taqsimlash va nazoratini o'rgatadi.

Jahon Bankining ma'lumotlarida qayd etilganidek, "Moliyaviy tizim deganda tashkilot rahbariyati tomonidan moliyaviy nazorat va hisobdorlikni amalga oshirish uchun foydalaniladigan jarayonlar va protseduralar tushuniladi. Mazkur chora-tadbirlar daromadlar, xarajatlar, aktivlar va majburiyatlarga ta'sir qiluvchi operatsiyalarni qayd etish, tekshirish va o'z vaqtida hisobot berishni o'z ichiga oladi"⁶. Bizning fikrimizcha, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyalashtirish va moliyaviy reja ishlab chiqishda moliyaviy menejment markaziy rolni o'ynaydi. Kompaniyada har qanday jarayon, avvalo, moliyaviy rejalashtirishdan boshlanadi, va bu jarayonda moliyaviy menejment usullari katta ahamiyatga ega.

Iqtisodchilardan J. William Petty, Sheridan Titman, Arthur J Keown, Peter Martin, John D Martin, Michael Burrowlar tomonidan nashr ettirilgan kitobda qayd etilishicha "Moliyaviy menejment odamlar va korxonalar investitsiyalarini qanday baholashlari va ularni moliyalashtirish uchun mablag'larni jalb qilishlarini o'rganishdir. Yirik va o'rta kompaniyalarda asosiy siyosiy qarorlar va strategiyalar nuqtayi nazaridan firma egalarini (aksiyadorlarini) ifodalovchi direktorlar kengashlari bo'lishi mumkin, ammo kundalik operatsiyalar firmani boshqarish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish uchun menejerlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday menejerlardan biri "moliyaviy menejer", firmada moliya

⁵ Baker H. K., Powell G. Understanding financial management: A practical guide. – John Wiley&Sons, 2009. 450 p.

⁶ <https://pubdocs.worldbank.org/en/152991470659228735/Finace-Manual-SDF.pdf>

funksiyasini boshqarish va nazorat qilish uchun tayinlangan shaxsdir”⁷. Shuningdek, iqtisodchi olimlar moliyaviy menejmentning katta va kichik kompaniyalar uchun ahamiyatini, moliyaviy menejerlarning vazifalarini keng shunugdek aniq bayon etganlar. Fikrimizcha, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment operativ boshqaruv xususiyatiga ega hisoblanadi.

1.1-jadval

Moliyaviy menejmentning qo'llanilish doirasi⁸

	Subyekti	Obyekti	Samarasi
Davlat	Vazirliklar, Markaziy bank va boshqa davlat organlari	Davlat byudjeti, mahalliy byudjetlar, pul-kredit siyosati	Makroiqtisodiy barqarorlik
Fuqaro	Jismoniy shaxs	Oilaviy daromadlar va xarajatlar	Ijtimoiy farovonlik
AJ	Aksiyadorlik jamiyati boshqaruv organlari	AJda moliyaviy resurslarni shakllantirish, rejalashtirish, taqsimlash va nazorat qilish	Mikroiqtisodiy barqarorlik
MCHJ	Direktor	MCHJda moliyaviy resurslarni shakllantirish, rejalashtirish, taqsimlash va nazorat qilish	Mikroiqtisodiy barqarorlik
YTT	YTT egasi	Moliyaviy resurslarni shakllantirish, rejalashtirish, taqsimlash va nazorat qilish	Ijtimoiy farovonlik

Yuqoridagi jadval ma'lumotlarida moliyaviy menejmentning turli tomonlar yoki shaxslar tomonidan qo'llanilish doirasi keltirib o'tilgan bo'lib, jumladan, fuqarolarda shaxsiy ijtimoiy-iqtisodiy holatni mustahkamlash, oilaviy byudjetni oshirish maqsadida, yuridik shaxslarda faoliyat barqarorligini ta'minlash yo'nalishida ishlatiladi. Iqtisodchi olim Kirti Pandey “Moliyaviy menejmentning ma'nosi: Moliyaviy menejment deganda kompaniyaning moliyaviy resurslarini rejalashtirish va nazorat qilish bilan bog'liq boshqaruv faoliyatining bir qismi tushuniladi. Bu firma uchun mablag' to'plash uchun turli manbalarni topish bilan

⁷ Petty J.W., Titman S., Keown A.J., Martin P., Martin J.D., Burrow M. Financial management: Principles and applications. Pearson Higher Education AU. 2015 y. - 714 p.

⁸ Muallif ishlanmasi.

shug‘ullanish demakdir. Moliyaviy menejment ko‘plab korporativ firmalar tomonidan qo‘llaniladi va uni korporativ moliya yoki biznes moliyasi, deb atash mumkin”⁹. Nazariy tadqiqot va kitoblarni o‘rganish jarayonida shunga ayon bo‘ldikki, moliyaviy menejment rivojlangan mamlakatlarda korporativ moliyaning tarkibi sifatida o‘rganiladi va kompaniyaning rivojlanishi uchun asos bo‘ladi.

Xorijlik iqtisodchilardan E.F.Brigham, J.F.Houstonlarning bayon etishicha “Moliyaviy menejment, shuningdek, korporativ moliya deb ham ataladi, qancha va qanday turdagi aktivlarni sotib olish uchun zarur bo‘lgan kapitalni qanday to‘plash va uning qiymatini maksimal darajada oshirish uchun firmani qanday boshqarish kerakligi haqidagi qarorlarga e’tibor qaratadi”¹⁰. Ushbu holatda moliyaviy qarorlarni ilmiy asoslangan bo‘lishi moliyaviy menejmentning asosiy o‘rnini va vazifasini ko‘rsatadi.

Iqtisodchi olim A.M.Usenko “moliyaviy munosabatlarni turli jarayon va tavakkalchilikka yo‘naltirilgan yondashuvlarga muvofiq boshqarish vositalari va usullarini samarali tanlash korxonaga bozordagi boshqa korxonalar bilan moliyaviy munosabatlarni oqilona shakllantirishga imkon berishini”¹¹ qayd etib o‘tgan. Fikrimizcha, moliyaviy menejment barcha sohalarda pul oqimlarini samarali boshqarishni o‘rganuvchi va o‘rgatuvchi bilimlar majmuasi hisoblanadi.

Iqtisodchilardan Sharan “moliyaviy qarorlarni 4 turga bo‘ladi va ularni quyidagicha ifoda etadi: 1. Investitsion qaror deb nomlanuvchi investitsiya takliflarini tanlash; 2. Aylanma mablag‘lar to‘g‘risidagi qaror deb nomlanuvchi aylanma mablag‘larga bo‘lgan talablarni aniqlash; 3. Moliyaviy qaror deb ataladigan aktivlarni moliyalashtirish uchun mablag‘larni jalb qilish; 4. Dividend to‘lash uchun foydani taqsimlash, dividend to‘g‘risidagi qaror, deb ataladi. Ushbu to‘rtta qaror korporativ moliyaning predmetini tashkil qiladi, ammo yuqoridagi qarorlarni qabul qilishga yordam beradigan moliyaviy tahlil, rejalashtirish va

⁹ Pandey K. Financial management. India: Lulu. 2017. 230 p.

¹⁰ Brigham E. F., Houston J. F. Fundamentals of financial management. – South-Western Cengage Learning, 2013. 820 p.

¹¹ Усенко А. М. Диагностика финансовых отношений экономических субъектов в системе финансового менеджмента. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Орел: «ТГУ», 2006. – 48 стр.

nazorat vositalari kabi moliyaviy vositalar ham moliyaviy menejment mavzusining ajralmas qismi hisoblanadi”¹². Shu jihatlarni inobatga olganda moliyaviy menejmentni moliyaviy qarorlarni qabul qilishda va ularni nazoratini olishda yaxlit tizim sifatida e’tirof etsak bo‘ladi.

Moliyaviy menejment barcha yo‘nalish va sohalarda faoliyat samaradorligini ta’minlovchi kompleks tizim yoki fanlar majmuasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Iqtisodchi olimlardan yana biri – S.V.Galitskayaning qarashida, “moliyaviy menejment korporatsiyalarning aktivlarini va ularni shakllantirish manbalarini boshqarishga bag‘ishlangan ilm bo‘lib ta’riflanadi”¹³. Ilmiy izlanishlarimizdan ayon bo‘lmoqdaki, har bir kompaniya faoliyat davomiyligi yoki rentabelligi uchun moliyaviy menejment samaradorligini ta’minlash hozirgi zamon talabi hisoblanadi.

Hindistonlik iqtisodchi olimlardan V.K.Bhallaning ilmiy adabiyotlarida bayon e’tilishicha “Moliyaviy menejment – bu maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat. Bu san’at va ilm-fanning uyg‘unligi sifatida tavsiflangan, bu orqali nimaga sarmoya kiritish, uni qanday moliyalashtirish va qandaydir maqsadga erishish uchun ikkalasini qanday birlashtirish bo‘yicha muhim qarorlar qabul qilinadi”¹⁴. O‘ylashimizcha, moliyaviy savodxonlik darajasi va amaliy bilimlar faqat korxonaning moliyaviy direktorlarining emas, balki barcha xodimlarining ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, moliyaviy menejment usullaridan samarali foydalanish kompaniyaning moliyaviy menejerlari uchun ham bilim va san’atni o‘z ichiga oladi.

Iqtisodchi olimlardan J.Frank Fabozzi, P.Pamela Peterson “Moliyaviy menejment, ba’zan korporativ moliya yoki biznes moliyasi, deb ataladi, bu moliya sohasi birinchi navbatda tadbirkorlik subyektida moliyaviy qarorlar qabul qilish bilan bog‘liq masaladir. Moliyaviy boshqaruv qarorlariga pul mablag‘lari qoldig‘ini saqlash, kredit berish, boshqa firmalarni sotib olish, banklardan qarz olish, aksiyalar va obligatsiyalar chiqarish kiradi”¹⁵. Ushbu jihatlarni olib

¹² Sharan Fundamentals of Financial Management. London.: Pearson education 2008, 524 p.

¹³ S.V.Galitskaya. Moliyaviy menejment. Moliyaviy tahlil. Korxona moliyasi: M.: Eksmo, 2009.-19 b.

¹⁴ Bhalla V.K. “Financial Management”. India.: S. Chand Publishing. 2008. 1069 p.

¹⁵ J.Frank Fabozzi, P.Pamela Peterson “Financial Management and Analysis”. Germany.: Wiley. 2003, 1024 p.

qaraydigan bo'lsak, moliyaviy menejment kapital harakatini nazorat qiluvchi yo'nalish hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqotchi olim D.Norton aytganidek “Yaxshi ishlaydigan firma uchun moliyaviy menejment ilg'or amaliyotni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Boshqa firmalarda moliya yomon ishlaydi va firma ham shunday. Ba'zan o'rtacha moliyaviy menejmentga qaramay, bozorda ustunlikka ega bo'lgan firma yaxshi natijalarga erishish uchun moliya funksiyasini yangilashga intiladi. Har bir holatda moliyaviy menejmentning vazifasi har xil va ko'pincha murakkab, ammo ma'lum sohalarda takomillashtirish oddiy bo'ladi va vaqti-vaqti bilan boshqa yuqori menejerlar ishtirokisiz buxgalteriya/moliya funksiyasi tomonidan mustaqil hal qilinishi mumkin”¹⁶, deya ta'kidlab o'tilgan. Ilmiy mushohadamiz asosida e'tirof etamizki, moliyaviy menejmentning usullaridan bevosita moliyachilar ham, shuningdek, buxgalterlar ham unumli foydalanadilar.

Xorijlik iqtisodchi olimlardan Meenakshi Rathi, Jyothi Acharya, P.J.Sumalatha, S.Prathibha Bhatlarning qarashlarida, “Kompaniyaning moliyasini boshqarish byudjetlashtirish va pul oqimlari prognozlari, shuningdek, ularni sotib olish va to'lash kabi operatsiyalarni o'z ichiga oladi. Bu kompaniyaning moliyaviy aktivlarini nazorat qilish uchun standart boshqaruv usullaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Moliyaviy menejment, sodda qilib aytganda, daromad va investitsiyalarning rentabelligini (ROI) ko'paytirish uchun mablag'larni taqsimlash bilan bog'liq biznes sohasi”¹⁷dir. Ushbu jihatlarni inobatga olganimizda, aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion loyihalarni tashkil etishdan tortib to uning realizatsiyasigacha moliyaviy menejment komponentlari yoki modellari asosiy o'ringa chiqadi.

Iqtisodchi Y.I.Shoxina fikriga nazar solsak, “moliyaviy menejment banklarda pul fondlarini va aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy mablag'larini samarali boshqarish orqali o'z maqsadlarini shuningdek taktik masalalarni

¹⁶ D.Norton “The Executive's Guide to Financial Management: Improving Risk, Strategy, and Financial Performance”.US.:Palgrave Macmillan. 2016. 421 p.

¹⁷ Meenakshi Rathi, Jyothi Acharya, Sumalatha P J, Prathibha S Bhat “Financial Management” India.: Academic Guru Publishing House. 2023. 205 p.

yecharishga yo‘naltiriladigan bir ilm, deb ta’riflanadi. Bu ilm moliyaviy resurslarni samarali boshqarish va moliyaviy faoliyatning yaxshilanishi uchun zarur bo‘lgan strategik shuningdek taktik masalalarni o‘rganishga yordam beradi”¹⁸. Bizningcha, korxonalarda har qanday strategik rejalashtirishni moliyaviy menejment tizimi orqali amalga oshirish zarurdir. Shuningdek, taktik yoki operativ rejalar bevosita umumiy strategiyaga bo‘ysunishiga, albatta, moliyaviy menejerlar mas’ul hisoblanadi.

Iqtisodchi olimlardan Sudhindra Bhat “Moliyaviy menejment muhim iqtisodiy resurs, ya’ni kapital mablag‘lardan samarali foydalanish bilan shug‘ullanadi. Shunday qilib, moliyaviy menejment quyidagilarni o‘z ichiga oladi: moliyaviy ehtiyojlarni qondirish, moliyaviy resurslarni sotib olish va biznesda mablag‘larni taqsimlash”¹⁹. Ushbu fikrlardan anglash mumkinki, moliyaviy menejment moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojlarni shakllantiradi va qondiradi.

Moliyaviy menejment sohasida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirgan yana bir iqtisodchi J.Tennentning iqtibosiga qarasak, “Yaxshi moliyaviy menejment biznesning muvaffaqiyati uchun zarurdir. Ko‘pgina korxonalar bunga muhtojlik tufayli muvaffaqiyatsizlikka uchradi va ko‘pincha tanlangan sohada kuch yoki qobiliyat yetishmasligi uchun emas, balki qarorlarning moliyaviy ta’sirini tushuna olmaganligi va oxir-oqibatda imiji susaygani uchundir”²⁰. Ushbu iqtisodchi olim moliyaviy menejment tizimini va usullarini kompaniya rivoji yoki bankrotligi uchun qay darajada ta’sir etishini bayon etgan. Rossiyalik iqtisodchi olim K.Y.Kotovanning so‘zlarida, “Moliyaviy menejment yoki moliyaviy menejment ma’lum bir maqsadga erishishga qaratilgan aktivlarni sotib olish, moliyalashtirish va boshqarish bo‘yicha qarorlar bilan bog‘liq. Shunday qilib, moliyaviy menejment sohasidagi boshqaruv qarorlarini aktivlar faoliyatining quyidagi uchta asosiy yo‘nalishiga kiritish mumkin: investitsiyalar, moliyalashtirish va aktivlarni

¹⁸ E.I. Shoxina. Moliyaviy menejment. M.: KNORUS, 2010. - 27 b.

¹⁹ Sudhindra Bhat “Financial Management” India.: Excel Books. 2008. 885 p.

²⁰ Tennent J. Guide to Financial Management.UK: Wiley. 2008. 327 p.

boshqarish”²¹. Ushbu jihatlarni inobatga olsak, moliyaviy menejment uch yirik yo‘nalishni birlashtiradi.

Iqtisodchi olim Jensen Helbergning aytganiday, “Moliyaviy faoliyatni rejalashtirish, nazorat qilish va tashkil etish moliyaviy menejment, deb ataladi. Mana shu toifaga kiruvchi bir nechta tadbirlar mablag‘larni jamlash va ulardan foydalanishdir. Moliyaviy menejment korxonaning moliyaviy resurslariga boshqaruv tamoyillarini qo‘llashda ishtirok etadi. Bu, birinchi navbatda, nisbatlar, qarzlari va aksiyalarga qaratilgan. Bu sohaning asosiy maqsadlaridan ba’zilari foydani ko‘paytirish, boylikni maksimal darajada oshirish, to‘g‘ri pul oqimini ta’minlash va kapital xarajatlarni minimallashtirishdir. Uning bir nechta ittifoqdosh sohalari – investitsiyalarni boshqarish, boshqaruv moliyasi va korporativ moliya”²². Iqtisodiy adabiyotlarda bayon etilganidek, moliyaviy menejmentning o‘rganish sohasi va doirasi keng hisoblanadi.

Xorijlik iqtisodchi olimlardan “Michael J.Barclay, Fangjian Fu, Clifford W.Smithlar o‘zlarining “Seasoned equity offerings and corporate financial management” nomli ilmiy tadqiqotlarida korporativ tuzilmalarda aksiyalar qiymatini oshishida moliyaviy menejmentning o‘rnini tahlil qilib o‘tganlar”²³.

Iqtisodchi olimlardan Michael Melvin, Stefan Norrbinlar transmilliy kompaniyalarda moliyaviy menejment va uning funksiyalarini ko‘rsatib, “transmilliy firmalar turli valyutalarda ifodalangan kreditorlik va debitorlik qarzlari, mahsulotning milliy chegaralar orqali jo‘natilishi va turli siyosiy yurisdiksiyalarda faoliyat yurituvchi sho‘ba korxonalari mavjudligi sababli ularning faoliyatida moliyaviy menejmentga oid turli muammolar paydo bo‘lishini”²⁴ bayon etganlar. Bizga ma’lumki, TMKlar global iqtisodiyotda asosiy savdo va xizmatlarni amalga oshiradi. Ularni rivojlanishi va faoliyat davomiyligi

²¹ Котова К.Ю. Соотношение понятий «Финансовый менеджмент», «Управленческий учет» и «Контроллинг» в международной и российской практике управления. Sciences of Europe, 2016 у. (7-2 (7)), 78-82.

²² Jensen Helberg “Financial Management”. UK.: Larsen and Keller Education. 2022. 224 p.

²³ Michael J. Barclay, Fangjian Fu, Clifford W. Smith “Seasoned equity offerings and corporate financial management” Journal of Corporate Finance. Volume 66, 2021, 101700, ISSN 0929-1199.

²⁴ Michael Melvin, Stefan Norrbin “International Money and Finance (Tenth Edition)” Academic Press, 2023, Pages 151-167, ISBN 9780323906210, <https://doi.org/10.1016/B978-0-323-90621-0.00009-0>.

dunyodagi mamlakatlar iqtisodiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Mana shu jihatni inobatga olganda yirik TMKlar uchun xalqaro eksport bo'yicha pul oqimlarini samarali tashkil etish va nazorat qilishda moliyaviy menejment birlamchi dastakdir.

Yuqoridagilarga qo'shimcha tarzda, moliyaviy menejmentni o'rganishda olimlar tomonidan turli xil ta'riflar va qarashlar mavjuddir. Brigham E.F. Ehrhardt M.C.²⁵, Houston J.F.²⁶, Deepika J.²⁷, James C. Van Horne, John M. Wachowicz²⁸, Atrill, Peter²⁹ shuningdek A.D.Sheremet, A.F.Ionovalarining³⁰ fikrlaricha, "moliyaviy menejment bu – pul aylanmasini, aksiyadorlik jamiyatning moliyaviy resurslarini shakllantirish va foydalanishni boshqarish jarayonidir"³³⁻³⁸. Manashu qisqa ta'rif moliyaviy menejmentning asosiy mazmunini ifoda e'tib beradi va pul oqimlarini optimallashtirish kompaniya boshqaruvi shuningdek aksiyadorlari uchun dolzarb ahamiyatga egadir.

Rossiyalik iqtisodchi olim A.N.Gavrilovaning qarashlarida, "moliyaviy menejmentning tijorat aksiyadorlik jamiyati moliyasini boshqarish tizimi sifatida ta'riflanganligi to'g'ri. Bu, moliyaviy resurslarni boshqarishning yangi tamoyillarini, shakllarini, strukturalarini va usullarini o'z ichiga oladi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida moliyaviy munosabatlarni takomillashtirish va rivojlantirishga yo'naltiradi. Moliyaviy menejmentning asosiy vazifalari moliyaviy resurslarni samarali boshqarish, daromadlarni oshirish va xarajatlarni kamaytirish strategiyalarini belgilash, likvidlilikni ta'minlash, xavfsizlikni ta'minlash va moliyaviy natijalarni yaxshilashdir"³¹. Manashu jihatlarni inobatga olib shuni ta'kidlashimiz mumkinki, moliyaviy menejmentning asosiy elementlari moliyaviy rejalashtirish va nazoratdan iboratdir. Ushbu

²⁵ Brigham E.F. Ehrhardt M.C. Financial management theory and practice. Thomson South-Western, 2008. – 1107p.

²⁶ Brigham E.F., Houston J.F. Fundamentals of Financial Management/Concise 8-th edition/2015. – 692 p.

²⁷ Deepika J. Managing Business Finance. International Research Journal of Management Science, Technology. 201.

²⁸ James C. Van Horne, John M. Wachowicz. Fundamentals of financial management. – 13th ed. – Pearson Education, 2009. – 719.

²⁹ Atrill, Peter. Financial management for decision makers / Peter Atrill. — 5th ed. 2009. – 621 p.

³⁰ D. Sheremet, A. F. Ionova "Korxona moliyasi. Boshqaruv va tahlil". A-M 2007, p. 36.

³¹ Gavrilova A.N va hokazo. Moliyaviy menejment. M.: KNORUS, 2015. -111-114 b.

jarayonlarni samarali amalga oshirishda moliyaviy texnologiyalarning imkoniyatlaridan foydalanish maqbuldir.

Moliyaviy texnologiyalarning kompaniya moliyaviy resurslarini boshqaruvidagi o'rni va "Nexus" tahlilini moliyaviy menejmentda samarali tatbiq qilish yuzasidan xorijlik iqtisodchi Juan Wu o'zining "Nexus analysis of financial management, digital finance and new technologies" nomli tadqiqotida atroflicha ko'rib chiqqan³². Bizga ma'lumki, moliyaviy texnologiyalar nafaqat kompaniyalar, balki jismoniy shaxslarning ham kundalik turmushida moliyaviy resurslarni rejalashtirish va nazorat qilishda keng foydalaniladi.

Mamlakatimizda ham kompaniyalarda moliyaviy menejment samaradorligini oshirish, zamonaviy usullardan kengroq foydalanish, raqobatbardoshlikni ta'minlash va kapital bozorini rivojlantirish orqali arzon moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojni qondirish maqsadida bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, nufuzli iqtisodchi olimlardan B.E.Toshmurodova milliy kompaniyalarda moliyaviy menejmentning shakllanishi va rivojlanishi masalalariga alohida e'tibor qaratib, bu sohani yanda taraqqiy ettirish bo'yicha o'zining ilmiy asoslangan takliflarini keltirib o'tgan³³.

Yurtimiz iqtisodchi olimalaridan R.Karlibayeva moliyaviy menejment taraqqiyotining asosiy bosqichlarini 5 davrga bo'lib, ularning asosiy mohiyatlarini ochib bergan³⁴.

Korporativ tuzilmalarda soliqlarning moliyaviy resurslarni rejalashtirishga ta'siri va soliq imtiyozlarning samaradorligi bo'yicha iqtisodchi olimlarimizdan S.Elmirzayev ilmiy tadqiqotlarni olib borib³⁵, soliq menejmentini moliyaviy menejmentga bog'liqlik darachasini ko'rib chiqqan.

³² Juan Wu, "Nexus analysis of financial management, digital finance and new technologies", Global Finance Journal, Volume 57, 2023, 100869, ISSN 1044-0283, <https://doi.org/10.1016/j.gfj.2023.100869>. (<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1044028323000649>).

³³ Тошмуродова Б.Э. Особенности развития финансового менеджмента в Узбекистане //Экономические науки в России и за рубежом. – 2014. – №. XIV. – С. 97-100.

³⁴ Karlibayeva R. Moliya tizimi taraqqiyoti va moliyaviy menejment nazariyasi shakllanishining fundamental asoslari //Arxiv nauchnykh issledovaniy. – 2020. – T. 35.

³⁵ Elmirzayev Samariddin Eshkuvatovich "Korporativ moliyaviy munosabatlarda soliqlarni rejalashtirish masalalari" // Ekonomika i finansy (Uzbekistan). 2018. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/korporativ-moliyaviy-munosabatlarda-soli-larni-rezhalashtirish-masalalari> (data obraшeniya: 28.12.2023).

Iqtisodchi olimlardan O.N.Xamdamov ilmiy tadqiqotlarida “Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment mexanizmini takomillashtirish jarayonida e’tibor berilishi lozim bo’lgan muhim jihatlarga kapital tarkibi va tuzilishini diversifikatsiyalash, moliyaviy ta’minot manbalarini optimallashtirish, xalqaro va milliy kapital bozoridan moliyaviy resurslar jalb qilishda zamonaviy instrumentlardan foydalanish imkoniyatlari kabilarni kiritish mumkin”³⁶ligini e’tirof etgan.

A.G.Ibragimov, Z.R.Madaminova, M.E.Raxmataliyevlarning fikricha, “moliyaviy menejment – korxonalarning joriy va strategik maqsadlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish, tahlil, bashoratlash va rejalashtirish kabi funksiyalarni amalga oshirish, moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan samarali foydalanish jarayonlarini boshqarishdir”³⁷. Mana shu jihatlarni inobatga olganimizda, moliyaviy menejmentning zamonaviy modellarning bajarilishi kerak bo’lgan yana bir muhim funksiyalardan biri global iqtisodiyotda kompaniya imijini oshirish va zamonaviy to’lov tizimlariga integratsiyalanish.

Yurtimiz iqtisodchi olimlaridan E.M.Turdiyevning PhD dissertatsiyasida qayd etilganidek, “Tadbirkorlik subyektlari moliyaviy menejment tizimining muhim obyektlaridan biri aktivlar hisoblanib, ularni optimal boshqarish bo’yicha qaror qabul qilish, aktivlarning mazmun va mohiyatini teran anglab yetishni shu bilan birga ularning iqtisodiy tabiatiga xos boshqarish mexanizmini shakllantirishni talab qiladi”³⁸, deya o’zining ilmiy mulohazalarini bayon etgan. Mazkur fikrlardan qayd etishimiz mumkinki, moliyaviy menejmentni, eng avvalo, aktivlarni hisobini nazoratga oluvchi va samarali boshqaruvchi tizimi sifatida e’tirof etamiz.

Iqtisodchi olimlardan A.Temirov o’z ilmiy tadqiqotlarida “kichik biznes subyektlarini rivojlanishi ko’pincha, ular faoliyatida moliyaviy boshqaruvning qay

³⁶ Xamdamov O.N. “Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimi metodologik asoslarini takomillashtirish”. Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. BFA: “Iqtisod-Moliya” -2023. – 76-bet.

³⁷ A.G.Ibragimov, Z.R.Madaminova, M.E. Raxmataliyev. Moliyaviy menejment. - T.: “Barkamol fayz media”, 2016, 232 bet.

³⁸ Turdiyev E.M. Sanoat korxonalarida aktivlarni boshqarish tizimini takomillashtirish. PhD diss. avtoref. TDIU: “Iqtisodiyot va ta’lim” -2023. – 66-bet.

darajada tashkil etilganligiga bog‘liq bo‘lishini, korxonada moliyaviy menejmentni ular faoliyatiga kiritilgan boshlang‘ich investitsiyalarni qaytarish, foydani ko‘paytirish va korxona bozor qiymatining barqaror o‘lishini ta‘minlash maqsadida moliyaviy munosabatlarni boshqarishning shakllari, usullari va tamoyillari majmuasi sifatida e‘tirof qilish mumkinligini”³⁹ qayd etib o‘tgan. Bizning fikrimizcha, moliyaviy menejment – bu xo‘jalik faoliyatini yurituvchi subyektlarda barcha turdagi moliyaviy resurslar va munosabatlarni rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish hamda nazorat qilishga yo‘naltirilgan kompleks usul va metodlar jamlanmasi hisoblanib, asosiy maqsad faoliyat barqarorligi va rentabelligini yuqori darajada ta‘minlashdan iboratdir.

1.2-jadval

Moliyaviy menejment tushunchasiga turlicha yondashuv va uning rivojlanish davrlari⁴⁰

Mamlakat	Davr	Yondashuv	Asosiy e‘tibor
AQSh	XVII	AQShda moliyaviy menejment tashkilotlarda asosiy boshqaruv funksiyasi sifatida rivojlanmoqda	Moliyaviy rejalashtirish, natijalarni tahlil qilish, aktivlar va passivlarni boshqarish, risklarni boshqarish, investitsiya
Xitoy	XIX	Xitoyda moliyaviy boshqaruv davlat tomonidan tartibga solish va moliya tizimining barqarorligini ta‘minlash bilan chambarchas bog‘liq	Moliyaviy nazorat, kreditlash va investitsiyalar
Yaponiya	XVIII	Yaponiya Kayzen (doimiy takomillashtirish) tamoyillariga asoslangan moliyaviy boshqaruvning an‘anaviy usullari va o‘ziga xos korporativ madaniyati bilan mashhur	Risklarni boshqarish, innovatsiyalar va uzoq muddatli rejalashtirish
Buyuk Britaniya	XV	Buyuk Britaniyada moliyaviy menejment yuqori baholanadi va unga asosiy boshqaruv funksiyasi sifatida qaraladi	Moliyaviy strategiya, likvidlikni boshqarish, investitsiyalar va byudjetni rejalashtirish
Janubiy Koreya	XX	Janubiy Koreyada moliyaviy menejment iqtisodiy rivojlanishda muhim rol o‘ynaydi	Moliyaviy strategiya, likvidlikni boshqarish, investitsiyalar va byudjetni rejalashtirish
O‘zbekiston	XXI	O‘zbekistonda moliyaviy menejment tashkilotlarni boshqarishda ham katta rol o‘ynaydi	Moliyaviy resurslarni rejalashtirish, investitsiyalarni boshqarish, byudjet nazorati va moliyaviy barqarorlik

Umuman olganda, moliyaviy menejmentning strategik va taktikalik jihatlarini qamrab oladi. Strategiya esa, aynan shu holatda, belgilangan maqsadga

³⁹ Temirov A. O‘zbekiston Respublikasi kichik biznes subyektlari faoliyatida moliyaviy menejmentni takomillashtirish //Arxiv nauchnyx issledovaniy. – 2020.

⁴⁰ Muallif ishlanmasi.

erishish uchun yoʻnalishlar va resurslardan foydalanish uchun amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni anglatadi. Ushbu chora-tadbirlar belgilangan qoidalar va qarorlar qabul qilish prinsiplariga mos ravishda amalga oshiriladi. Strategiya, oʻz navbatida, faqat qabul qilingan yoʻnalishga toʻgʻri keladigan qarorlar variantlarini tanlab, qolganlarini inkor etadi. Maqsadga erishilgach, strategiya oʻz natijasini beradi va tugallanadi.

Taktika – bu maʼlum sharoitlarda belgilangan maqsadga erishish uchun qoʻllaniladigan aniq metodlar va usullardir. Boshqaruv taktikasining asosiy vazifasi – eng samarali qarorlarni qabul qilish va xoʻjalik subyektini holatiga mos boshqaruv metodlari hamda usullarini tanlashdir.

Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning fikr va mulohazalarini oʻrgangan holda samarali moliyaviy menejment uchun baʼzi asosiy tamoyillar va strategiyalarni quyida keltirib oʻtdik:

1. Aylanma kapitalni boshqarish: Tovar-moddiy zaxiralarini, debitorlik va kreditorlik qarzlarni samarali boshqarish kompaniya resurslarining likvidligi va samaradorligini yaxshilashga yordam beradi.

2. Investitsiyalarni boshqarish: Aqlli investitsiya qarorlarini qabul qilish, aktivlar va investitsiya portfellarini boshqarish investitsiya daromadlarini optimallashtirish shuningdek kompaniyaning moliyaviy natijalarini yaxshilashga yordam beradi.

3. Moliyaviy nazorat va buxgalteriya hisobi: Nazorat va buxgalteriya hisobi shu bilan birga muntazam moliyaviy hisobot tizimini tashkil etish rahbariyatga moliyaviy rejalar bajarilishini nazorat qilish, oʻz vaqtida tuzatish choralarini koʻrishga yordam beradi.

4. Moliyaviy risklarni boshqarish: Valyuta, kredit, foiz stavkasi va operatsion risklar kabi moliyaviy risklarni aniqlash, baholash va boshqarish kompaniyaning moliyaviy barqarorligini taʼminlash uchun katta ahamiyatga ega.

5. Shaffoflik va halollik: moliyaviy operatsiyalarda shaffoflik va axloqni taʼminlash investorlar, hamkorlar va manfaatdor tomonlar bilan ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.

Biz tomonimizdan yuqorida qayd etilgan tamoyillarga rioya qilish kompaniyaga o'z moliyasini samarali boshqarishga yordam beradi, bu esa o'z navbatida barqarorlikka, biznesni kengaytirishga va strategik maqsadlarga erishishga asos bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment – bu kompaniyaning strategik maqsadlariga erishish uchun moliyaviy resurslarini rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va monitoring qilish jarayoni hisoblanib, quyidagi jihatlari bilan umumiy menejmentdan ajralib turadi:

birinchidan, moliyaviy rejalashtirish: byudjetlashtirishda muayyan davr uchun daromad va xarajatlarni rejalashtirish amalga oshirilsa, prognozlash orqali tarixiy ma'lumotlar va bozor tendensiyalari asosida kelajakdagi moliyaviy natijalar baholanadi;

ikkinchidan, pul resurslarini boshqarish: qisqa muddatli va uzoq muddatli kapital, ya'ni biznes yuritishning turli bosqichlari uchun qancha mablag' kerakligini aniqlash asosiy vazifalardan bo'lsa, kapital tarkibini shakllantirish yoki o'z va qarz kapitali o'rtasidagi muvozanat, shu jumladan, aksiyalar chiqarish va kreditlar olishni samarali tashkil etish moliyaviy menejmentga borib taqaladi;

uchinchidan, moliyaviy tahlil aniq va qisqa fursatda amalga oshirish. Moliyaviy hisobotlar tahlilida kompaniyaning moliyaviy holatini tushunish uchun balans, daromadlar to'g'risidagi hisobot, pul oqimlari to'g'risidagi hisobotlarni har oy yoki chorakda amalga oshirib borish faoliyat bo'yicha umumiy holatni bayon etib turadi. Shuningdek, ko'rsatkich tahlili, jumladan, likvidlik, rentabellik, aylanmani baholash uchun turli moliyaviy ko'rsatkichlardan foydalanish moliyaviy menejmentning zaruriyatini ifodalaydi;

to'rtinchidan, rentabellikni boshqarish moliyaviy menejment tizimining yana bir asosiy elementi hisoblanadi. Xarajatlar va raqobatni hisobga olgan holda mahsulot yoki xizmatlar narxlarini optimallashtirish orqali foydani yuqorilash, xarajatlarni nazorat qilish, bunda, albatta, ishlab chiqarish va operatsion xarajatlarni optimallashtirish hozirgi kundagi aksiyadorlik jamiyatlarida eng ko'p


e'tibor qaratiladigan jihatdir va bunda moliyaviy menejment modellari yordamga keladi;

beshinchidan, dividend siyosatini aksiyadorlik jamiyatlarida samarasini har tomonlama oshirish. Foydani aksiyadorlar o'rtasida taqsimlash va kompaniyaga qayta investitsiya kiritish strategiyasini belgilash orqali investorlar manfaatlarini va kompaniyaning moliyaviy holatini ijobiy tomonga siljitish moliyaviy menejerlarning doimiy nazoratida bo'ladi;

oltinchidan, moliyaviy menejmentda hisobdorlik va oshkoralik yuqori darajada ta'minlanadi. Buxgalteriya hisobi standartlariga rioya qilish va aksiyadorlar shu bilan birga nazorat qiluvchi organlarga hisobot berish, audit o'tkazish, moliyaviy barqarorlik va risklarni baholash doimiy ravishda aksiyadorlik jamiyatining eng oliy boshqaruv organi aksiyadorlik jamiyati umumiy yig'ilishida rasmiy tarzda bayon etilib boriladi.

Yuqoridagi jihatlar aksiyadorlik jamiyatlariga o'z resurslarini samarali boshqarish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va strategik maqsadlarga erishishda yordam beradi. Moliyaviy menejment investitsiyalarni jalb qilish, barqarorlikni saqlash va aksiyadorlar uchun kompaniya qiymatini oshirishda asosiy rol o'ynaydi.


Bizga ma'lumki, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment va moliyaviy boshqaruv tushunchasi o'zaro almashtirib ishlatiladi, lekin moliyaviy boshqaruv bu o'z navbatida boshqaruv hisobini ifodalaydi, ya'ni buxgalteriyaga xos tizim hisoblanadi. Namunaviy kompleks vazifalar quyidagi rasmda keltirilgan (1.1-rasm).



1.1-rasm. Moliyaviy menejmentning kompleks vazifalari⁴¹

Yuqoridagi rasm ma'lumotlarida aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyatida moliyaviy menejmentning asosiy komponentlari, ya'ni operatsion, loyiha va strategik menejment tizimlari aks ettirilgan. Jumladan, moliyaviy menejmentda operativ jarayonlar sifatida qisqa muddatli mablag'larni samarali boshqarish bo'lsa, strategik vazifalar uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Keltirilgan kompleks vazifalar moliyaviy boshqaruv jarayonining faqatgina umumiy mazmunini ifodalaydi va uni raqamli transformatsiyalash faoliyat rentabelligini ta'minlaydi. Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment samarasini quyidagi rasm orqali ifoda etsak bo'ladi (1.2-rasm).

⁴¹ Muallif ishlanmasi.



1.2-rasm. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment samarasi⁴²


Yuqoridagi 1.2-rasm ma'lumotlarida kompaniyaning moliyaviy menejment tizimi orqali erishishi mumkin bo'lgan imkoniyatlar bayon etilgan. Moliyaviy menejment kapital harakatini boshqarishni, uni ishlab chiqarish quvvatini oshirish va tushumni ko'paytirishga yo'naltirishni nazarda tutadi. Moliyaviy resurslar harakatini boshqarish esa tannarxni kamaytirish va kapitalni ko'paytirish imkonini yaratadi, bu esa kompaniyaning umumiy samaradorligini oshiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqanda, moliyaviy menejment – bu o'z maqsadlariga erishish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun tashkilotning moliyaviy resurslarini rejalashtirish, boshqarish hamda nazorat qilish bilan shug'ullanadigan menejment sohasi hisoblanadi. Bizga ma'lum bo'ldiki, moliyaviy menejment tushunchasi va uning rivojlanish davrlari turli mamlakatlarda turlicha yondashuv, jumladan, xususiyatlarga ega bo'lgandir. Shu jihatlarni inobatga olib, tadqiqotimizning keyingi qismida moliyaviy menejmentning aksiyadorlik jamiyatlarida tashkil etishning o'ziga xos jihatlari keltirib o'tdik.

⁴² Muallif ishlanmasi.

1.2. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentning tashkiliy-huquqiy asoslari

Moliyaviy menejmentni nafaqat biznes uchun, balki oddiygina oila uchun ham zaruriyatini anglab yetdik. Zero, pul oqimlarini samarali boshqarish insonni kambag'allikdan yaxshi sharoitlarga olib chiqsa, moliyaviy savodsizlik yoki moliyaviy menejment bilimlariga ega bo'lmaslik yuqoridan pastga, ya'ni muhtojlikka olib tushadi. Shunday holatni biz kompaniyalarga ham misol sifatida ishlata olishimiz mumkin.



1.3-rasm. Global iqtisodiyotdagi korporatsiyalarning bozor kapitallashuvi, (mlrd. AQSh dollari)⁴³

Bizga ma'lumki, global iqtisodiyotda yetakchi kompaniyalar aksiyadorlik jamiyati shaklida o'z faoliyatini olib boradi va bunda moliyaviy resurslarni shakllantirish tez hamda oson kechadi (1.3-rasm).

1.3-rasm ma'lumotlarida dunyodagi nufuzli Apple, Microsoft va Nvidia kompaniyalarining so'nggi 10 yillikdagi bozor kapitallashuvi, ya'ni bozor qiymati aks ettirilgan. Jumladan, Apple kompaniyasining 2014-yildagi bozor qiymati 590

⁴³ <https://ru.investing.com/equities/apple-computer-inc-historical-data> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 3,4 trln. AQSh dollari yoki qariyb 6 barobarga oshgan. Shuningdek, so'nggi uch yildagi eng yuqori o'sish Nvidia kompaniyasida kuzatilgan bo'lib, hozirgi kunda uning bozor kapitallashuvi 2,6 trln. AQSh dollarini tashkil etadi. Mana shu kompaniyalardagi moliyaviy boshqaruv tizimining mustahkamligi, moliyaviy menejerlarning samarali faoliyati bozordagi imijga va bahoga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Yuqoridagi jihatlarni inobatga olganda, aksiyadorlik jamiyatlarida pul oqimlarini samarali boshqarish va moliyaviy menejment tizimini optimallashtirish, pirovardida, kompaniyaning bozor bahosini o'sishiga olib keladi. Bizning ilmiy izlanishlarimizdan ayon bo'lmoqdaki, har qanday kompaniya uchun moliyaviy menejerning o'рни beqiyosdir va bunda uzoqni ko'zlagan strategiya muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Biz qayd etganimizdek, jahonda aksiyadorlik jamiyatlarining global rivojlanishdagi o'рни beqiyosdir. Zero, iqtisodchilar qayd etganidek, "Aksiyadorlik jamiyati ko'plab xususiy, moliyaviy va moddiy resurslarni yagona ishlaydigan kapitalga birlashtirishning universal mexanizmi sifatida namoyon bo'lib, tadbirkorlik munosabatlarining subyekt sifatida kapitalist tushunchasidan foydalangan. Ammo, boshqa tomondan, u hamma uchun ustav kapitalida ishtirok etish uchun keng imkoniyatlarni ochib berdi va hatto kam daromadli odamlarga ham "kapitalist" bo'lish imkonini berdi"⁴⁴. Fikrimizcha, aksiyadorlik jamiyatlarini paydo bo'lishi yirik loyihalarga zarur bo'lgan kapitalni qismlarga bo'linib shakllanishiga olib keldi.

Iqtisodchi olim R.Karlibayeva o'zining ilmiy izlanishlarida qayd etganidek, "Hozirgi vaqtda nisbatan yirik kapital sig'imini tashkil qiluvchi iqtisodiyot tarmoqlaridagi biznesni tashkil qilishda ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan va korporativ boshqarish tizimiga asoslangan mulkchilikning aksiyadorlik shakllarida faoliyat yurituvchi xo'jalik subyektlarida moliyaviy boshqarishning samarali tizimlarini shakllantirishga ehtiyoj vujudga kelmoqda"⁴⁵. Shu sababdan ham

⁴⁴ Шибаев С.Р. Роль акционерных обществ в развитии предпринимательских отношений // Российское предпринимательство. – 2011. – Том 12. – № 10. – С. 51-54.

⁴⁵ Karlibayeva R. (2022). Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimi. *Архив научных исследований*, 2(1) извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/2237>

moliyaviy menejmentning iqtisodiyotdagi kompaniyalarni rivojlanishida yetakchi omil ham o‘rin egallaydi.


Iqtisodchilar ta’kidlaganidek, “Moliyaviy menejmentdan samarali foydalanish aksiyadorlik jamiyatlarining iqtisodiy hayotida yangicha qadriyatlar tizimini vujudga keltiradi, uning rivojlanish istiqbollari va qonuniyatlarini o‘zgartiradi. Aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy siyosatida uning faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qilayotgan qaror qabul qilishning yangicha shakllari va usullari aynan moliyaviy menejment muhitining shakllanayotganligini ifodalaydi”⁴⁶. Manashu jihatlarni inobatga olganda moliyaviy menejmentning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir.

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentni tashkil etish va uni nazorati bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarda bayon etilishicha “Korxonalarda moliyaviy menejment tizimini tashkil etishda, moliyaviy mexanizm tushunchasi uning moliyaviy menejment tizimidagi o‘rni va ahamiyati, moliyaviy menejmentning mexanizmi ularning o‘zaro o‘xshashlik tomonlari shuningdek bularni moliyaviy menejning faoliyatida tutgan o‘rniga alohida e’tibor berish lozim. Chunki, bozor qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda korxonalar moliyasini boshqarish, moliyaviy mexanizm yordamida amalga oshiriladi”⁴⁷. Bizning fikrimizcha, kompaniyalarda moliyaviy menejmentni tashkil etishning asosiy jihatlari hudud va soha xususiyatlariga mos ravishda, ya’ni moliya-bank tizimi, soliq va imtiyozlar, shuningdek, kapital bozorining rivojlanish darajasi inobatga olinib amalga oshirilishi zarur.

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentni tashkil etish kompaniyaning moliyaviy resurslarini samarali boshqarishni ta’minlash va aksiyadorlar uchun uzoq muddatli qiymat yaratishda muhim ahamiyatga ega. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentning eng asosiy jihatlari quyidagilardan iborat: (1.4-rasm).

⁴⁶ Shernayev A.A. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida moliyaviy menejmentni tashkil etish samaradorligini oshirish masalalari//CARJIS. 2022. № Special Issue 2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/aksiyadorlik-jamiyatlari-faoliyatida-moliyaviy-menejmentni-tashkil-etish-samaradorligini-oshirish-masalalari>

⁴⁷ Yuldasheva Sh.A, To‘xtamirzayeva Sh.M. Moliyaviy menejmentni tashkil etishning asosiy yo‘nalishlari Oriental journal of academic and multidisciplinary research, vol. 1. iss.1 2023 67-74 bet.



1.4-rasm. AJlarda moliyaviy menejmentning eng muhim jihatlari⁴⁸

Yuqoridagi 1.4-rasm ma‘lumotlaridan ayon bo‘lmoqdaki, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentning eng muhim jihatlari investitsiyalarni jalb qilish, aksiyalar qiymatini maksimal darajada oshirish, kapitalni boshqarish, risklarni boshqarish, moliyaviy nazorat va hisobotlarni aniqlik darajasini yuqori qilgan holda shakllantirish kabilar kiradi. Iqtisodiy nashrlarda qayd etilganidek,

⁴⁸ Muallif ishlanmasi.

“Moliyaviy menejment yirik, oʻrta va kichik biznes uchun zarurdir. Pul resurslarini boshqarishning puxta oʻylangan tizimi ularni kompaniyaning rivojlanishi va foydaning oʻsishi uchun eng katta foyda bilan sarflashga yordam beradi. Moliya direktorining roli koʻp qirrali: har kuni u turli xil muammolarni hal qilishi kerak. Shuning uchun uning malakasiga yuqori talablar qoʻyiladi”⁴⁹.

1.3-jadval

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentning tashkiliy asoslari⁵⁰

Tashkiliy jarayon	Ishlab chiquvchi	Boysunuvchi	Muhit
Moliyaviy menejmentning bosh maqsadini belgilab olish	Aksiyadorlar umumiy yigʻilishi	Yuqori boshqaruv organlari	Ichki/tashqi
Moliyaviy menejmentning bosh vazifalarini shakllantirish	Aksiyadorlar umumiy yigʻilishi	Yuqori boshqaruv organlari	Ichki
Moliyaviy menejmentning asosiy va umumiy funksiyalari shakllantirish	Aksiyadorlar umumiy yigʻilishi	Barcha faoliyat subyektlari va obyektlari	Ichki/tashqi
Moliyaviy menejmentning asosiy tamoyillarini ishlab chiqish	Aksiyadorlar umumiy yigʻilishi, Kuzatuv kengashi, Konsalting kompaniyalar	Barcha faoliyat subyektlari va obyektlari	Ichki
Pul oqimlarini rejalashtirish	Kuzatuv kengashi, Ijroiyy organi	Barcha faoliyat subyektlari va obyektlari	Ichki/tashqi
Moliyaviy rejani ishlab chiqish	Kuzatuv kengashi, Ijroiyy organi	Barcha faoliyat subyektlari va obyektlari	Ichki/tashqi
Moliyaviy menejerlarni tayinlash va nazorat qilish	Kuzatuv kengashi, Ijroiyy organi	Barcha faoliyat subyektlari va obyektlari	Ichki
Moliyaviy samaradorlik koʻrsatkichlarni nazoratga olish	Kuzatuv kengashi, Ijroiyy organi	Barcha faoliyat subyektlari va obyektlari	Ichki

Demak, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment kompaniyaning moliyaviy resurslarini aksiyadorlar manfaatlarini inobatga olgan holda samarali boshqarishni taʼminlash, korxonaning barqaror rivojlanishi, oʻsishi va uzoq muddatli qiymatini yaratishda muhim rol oʻynaydi.

Aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy faoliyatini samarali boshqarish moliyaviy menejmentning asosiy prinsiplari amalga oshirilishini taʼminlaydi. Bu prinsiplar umumiy menejmentning tarkibiy qismi boʻlib, quyidagi jihatlarni oʻz ichiga oladi:

⁴⁹ <https://www.kp.ru/guide/finansovyi-menedzhment.html>

⁵⁰ Muallif ishlanmasi.

1. Umumiy boshqaruv tizimiga integratsiya qilinishi. Har qanday boshqaruv qarorlari aksiyadorlik jamiyatining pul oqimlari shakllanishiga, uning jismoniy faoliyati natijalariga va moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatadi. Moliyaviy boshqaruv bevosita ishlab chiqarish menejmenti, kadrlar menejmenti, innovatsion menejment va boshqa funksional boshqaruv sohalari bilan chambarchas bog'liq. Biroq, ko'pincha moliyaviy menejment maxsus masalalarni hal qilishda aksiyadorlik jamiyatining ishlab chiqarish va savdo xususiyatlari va parametrlariga ta'sir qiladi. Bu esa moliyaviy menejmentning aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi tizimiga integratsiya qilinishini talab qiladi.

2. Aksiyadorlik jamiyatining rivojlanishi strategik missiyaga yo'naltirilganligi. Moliyaviy faoliyat doirasidagi boshqaruv qarorlari aksiyadorlik jamiyatining asosiy missiyasiga, uning strategik rivojlanish yo'nalishiga, xususi moliyaviy resurslar rivojlanish ko'rsatkichlariga va boshqa tegishli omillarga mos kelishi zarur.

3. Moliyaviy boshqaruv qarorlarini tanlash jarayonining samaradorligi. Ushbu tamoyilni amalga oshirishda aksiyadorlik jamiyati moliyaviy resurslarini yaratish va ulardan foydalanish, shuningdek, pul oqimlarini tashkil etish bo'yicha har bir qaror moliyaviy boshqaruvning turli imkoniyatlarini inobatga olgan holda qabul qilinishi zarur. Boshqaruv qarorlarini tanlashda alternativ variantlarni amalga oshirish uchun aksiyadorlik jamiyatining mezonlari, belgilangan moliyaviy siyosati, moliyaviy strategiyasi va aniq davr mobaynida mavjud resurslarning cheklanganligi hisobga olinishi kerak.

4. Boshqaruv qarorlarining kompleks xususiyati. Aksiyadorlik jamiyati moliyaviy resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish, shuningdek, pul oqimlarini tashkil etish doirasida qabul qilinadigan barcha boshqaruv qarorlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular moliyaviy faoliyat natijalariga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, moliyaviy menejment aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy faoliyatining umumiy samaradorligiga hissa qo'shadigan, o'zaro bog'liq boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishni ta'minlovchi kompleks boshqaruv tizimi sifatida qaralishi lozim.

Yuqori tebranuvchan boshqaruv tizimining tashkil etilishi. O'tgan davrda aksiyadorlik jamiyatida ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanish, shuningdek, pul oqimlarini optimallashtirish doirasidagi boshqaruv qarorlari kelajakda moliyaviy faoliyatning yangi bosqichlarida har doim ham qayta ishlatilishi mumkin emas. Bu, asosan, tashqi muhitning yuqori dinamikasi va, ayniqsa, moliya bozori konyunkturasining o'zgarishi bilan bog'liq.

Moliyaviy menejmentning barcha vazifalari o'zaro mustahkam bog'langan bo'lib, har biri turli yo'nalishlarga ega bo'lsa ham, ular umumiy maqsadga erishish uchun bir-birini to'ldiradi. Shu sababli, moliyaviy menejment jarayonida bosh maqsadga eng samarali erishish uchun vazifalarni o'zaro takomillashtirish zarur.

Moliyaviy menejment boshqaruv tizimi sifatida subyekt boshqaruvini belgilaydi va ta'minlaydi. Zamonaviy amaliyotda moliyaviy menejment bunday subyektlarni uchta asosiy guruhga ajratadi:

1. Korxona ta'sischisi moliyaviy boshqaruv funksiyalarini mustaqil ravishda amalga oshiradi.

2. Keng profilli moliyaviy menejerlar – korxona moliyaviy boshqaruvining barcha funksiyalarini amaliy jihatdan bajaradigan yollanma xodimlar hisoblanadi. Ushbu mutaxassislar asosan moliyaviy faoliyatning umumiy rahbarligi uchun jalb qilinadi.

3. Funksional moliyaviy menejerlar – tor mutaxassislar bo'lib, korxona moliyaviy faoliyatining ma'lum bir sohasiga oid boshqaruv funksiyasini bajaradigan yollanma xodimlardir.

4. Moliyaviy faoliyat hajmi ortishi va uning diversifikatsiyasi ehtiyoji oshgani sayin, barcha darajadagi moliyaviy menejerlar soni o'sib boradi, ularning ixtisoslashuvi esa doimiy ravishda kengayib bormoqda.

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment o'zining asosiy maqsadlariga va vazifalariga belgilangan funksiyalarni bajarish orqali erishadi. Moliyaviy menejment funksiyalari aksiyadorlik jamiyatlaridagi moliya vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, moliyaviy faoliyatni boshqarishda o'ziga xos

xususiyatlarga ega bo‘ladi. Ushbu funksiyalar moliyaviy menejmentning kompleks mohiyatini yorituvchi ikki guruhga ajratiladi: 1) moliyaviy menejmentning umumiy funksiyalari; 2) moliyaviy menejmentning aniq obyektini ko‘rsatadigan funksiyalar.

Moliyaviy menejmentning asosiy umumiy funksiyalari:

1. Boshqaruv qarorlarini alternativ variantlarga asoslash uchun samarali axborot tizimini yaratish. Ushbu funktsiyani bajarishda moliyaviy menejmentning axborot ehtiyojlari aniqlanib, bu ehtiyojlarni qondiradigan ichki va tashqi ma’lumot manbalari shakllantiriladi, shuningdek, korxona va moliyaviy bozorning konyunkturasi bo‘yicha doimiy monitoring tizimi tashkil etiladi.

2. Korxona moliyaviy faoliyatining turli jihatlarini tahlil qilish. Bu funktsiyada alohida moliyaviy operatsiyalar, korxonaning sho‘balarining, filiallarining va "mas’ul markazlar"ining moliyaviy natijalari, shuningdek, korxona moliyaviy faoliyatining umumiy va ajratilgan yo‘nalishlari bo‘yicha tezkor va chuqur tahlil o‘tkaziladi.

3. Korxonaning moliyaviy faoliyat rejalarini ishlab chiqish. Bu jarayonda korxonaning moliyaviy strategiyasi ishlab chiqilib, rivojlanishning har bir bosqichi aniq belgilanishi kerak.

4. Moliyaviy faoliyat doirasida rag‘batlantiradigan boshqaruv qarorlarini qabul qiluvchi amaliy tizimni ishlab chiqish. Bu funktsiyani amalga oshirish jarayonida bosh menejerlarga va korxonaning alohida tuzilmaviy bo‘limlari menejerlariga o‘rnatilgan moliyaviy ko‘rsatkichlar, moliyaviy normativlar va rejali vazifalarni bajarganligi yoki bajarmaganligi uchun rag‘batlantirishlar va jarimalar tizimi shakllantiriladi.

5. Moliyaviy menejment borasida qabul qilingan qarorlarning amalga oshirilishini samarali nazorat qilish. Ushbu moliyaviy menejment funksiyasini amalga oshirishda korxona ichida ichki nazorat tizimini yaratish, alohida xizmatlar va moliyaviy menejerlar o‘rtasida nazorat javobgarliklarini taqsimlash, nazorat ko‘rsatkichlari va muddatlari tizimini belgilash, shuningdek, amalga oshirilgan nazoratni operativ tarzda boshqarish muhim ahamiyatga ega.

Moliyaviy menejmentning aniq obyektlarini belgilovchi asosiy funksiyalari:

1. Aktivlarni boshqarish. Ushbu boshqaruv funksiyasi korxona operatsion faoliyatida zarur bo'lgan miqdorlarga asoslanib, alohida turdagi aktivlarga haqiqiy ehtiyojni aniqlash va ularning umumiy summasini boshqarishni ta'minlaydi.

2. Kapitallarni boshqarish. Bu funksiyani amalga oshirishda korxonada shakllanadigan aktivlarni moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan kapital ehtiyojini aniqlash; kapitalni samarali ishlatish maqsadida uning tuzilishini takomillashtirish; va samarali aktivlarga kapitalni qayta moliyalashtirish tizimini ishlab chiqish talab qilinadi.

3. Investitsiyalarni boshqarish. Ushbu boshqaruv funksiyasi korxonaning investitsion faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilashni o'z ichiga oladi.

4. Pul oqimlarini boshqarish. Bu boshqaruv funksiyasi korxonaning pul mablag'larining kirim va chiqim oqimlarini shakllantiradi, ularning hajmi va muddatlarini aniqlaydi, shuningdek, vaqtincha mavjud bo'lgan bo'sh pul mablag'laridan samarali foydalanish uchun tasniflashni ta'minlaydi.

5. Moliyaviy risklarni boshqarish. Bu funksiyada moliyaviy risklarni aniqlash, ularni sug'urtalash profilaktikasini va minimallashtirishni ta'minlash uchun tizim shakllantiriladi.

6. Inqirozga qarshi moliyaviy boshqaruv. Ushbu boshqaruv funksiyasi moliyaviy inqiroz alomatlarini o'z vaqtida aniqlash maqsadida korxonaning moliyaviy holatini doimiy ravishda monitoring qilish, shuningdek, inqiroz holatining o'lchovlarini va uni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlashni o'z ichiga oladi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy boshqaruvning tashkiliy-huquqiy jihatlari jamiyatning moliyaviy operatsiyalarining shaffofligi, samaradorligi va qonuniyligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiy taraqqiyotda doimiy ravishda moliyaviy boshqaruvning o'rnini yuqori hisoblangan. Shu sababdan, yillar mobaynida moliyaviy menejment tizimiga oid qonunchilik yoki me'yorlar o'zgarib borgan. Quyida biz

tomonimizdan aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentning huquqiy asoslari keltirib o‘tilgan (1.4-jadval).

1.4-jadval

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentning huquqiy asoslari⁵¹

Huquqiy asos	Tartibga solish xususiyati	Ishlab chiquvchi	Muhit
Bosh qomus	hukumat, mulkdorlar, biznes subyektlari va obyektlari o‘rtasidagi aloqalar	Hukumat	Ichki/tashqi
Qonunlar	hukumat, boy qatlam, biznes subyektlari va obyektlari o‘rtasidagi aloqalar	Hukumat	Ichki/tashqi
Standartlar	Biznes faoliyat subyektlari va obyektlari o‘rtasidagi munosabatlar	Davlat organlari	Ichki/tashqi
Ustav hujjatlari	Biznes faoliyat subyektlari va obyektlari o‘rtasidagi munosabatlar	Aksiyadorlik jamiyatlari yuqori boshqaruv organlari	Ichki
Tarkibiy bo‘linmalar to‘g‘risidagi nizomlar	Biznes faoliyat subyektlari va obyektlari o‘rtasidagi munosabatlar	Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv organlari	Ichki
Moliyaviy hisobotlar	Biznes faoliyatning moliyaviy naztijalari nazorati	Buxgalteriya va moliya bo‘limlari	Ichki

Yuqoridagi jadval ma’lumotlarini inobatga olgan holda quyida aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy boshqaruvining tashkiliy-huquqiy asoslarining asosiy jihatlari keltirilgan:

Ustav hujjatlari: Aksiyadorlik jamiyatining ustavida moliyaviy boshqaruvga taalluqli, shu jumladan, boshqaruv organlarini shakllantirish va faoliyat yuritish tartibi, shuningdek, moliyaviy hujjatlarni tasdiqlash bilan bog‘liq qoidalar belgilangan. Aksiyadorlar oldidagi majburiyatlar: Qonun hujjatlariga muvofiq aksiyadorlik jamiyati o‘zining moliyaviy faoliyati to‘g‘risida, shu jumladan, jamiyatning moliyaviy holatiga oid hisobotlar, hisob-kitoblar va boshqa ma’lumotlarni aksiyadorlarga taqdim etishi shart. Boshqaruv organlari: Aksiyadorlik jamiyatlari o‘rnatilgan boshqaruv tuzilmasi, jumladan, kuzatuv kengashi, ijrochi direktor va jamiyatning moliyaviy resurslarini boshqaradigan boshqa organlarga ega bo‘lishi kerak.

Ichki moliyaviy nazorat: Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy operatsiyalarning qonuniyligi, samaradorligi va shaffofligini ta’minlash uchun

⁵¹ Muallif ishlanmasi.

ichki tartib-qoidalar va nazorat mexanizmlarini ishlab chiqishlari va amalga oshirishlari shart.

Qonunlarga rioya qilish: Aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy boshqaruvi amaldagi qonun hujjatlarining qimmatli qog'ozlar, buxgalteriya hisobi, soliqqa tortish va boshqa huquqiy normalar talablariga qat'iy rioya etishi shart.

Tashqi organlar bilan o'zaro hamkorlik: Aksiyadorlik jamiyatlari o'zlarining moliyaviy operatsiyalarini moliya bozorini tartibga soluvchi organlar talablariga muvofiq amalga oshiradilar.

Xalqaro amaliyotdan ma'lumki, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy boshqaruvning, xususan, moliyaviy menejmentning tashkiliy-huquqiy asoslari kompaniyaning moliyaviy faoliyatini amalga oshirish doirasini belgilaydi. Global iqtisodiy hamjamiyatda anashu asoslarning asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

1. Qonunlar va qoidalar. Birinchidan, fuqarolik kodeksi – u yuridik shaxslar, shu jumladan, aksiyadorlik jamiyatlari uchun umumiy qoidalarni belgilaydi. Ikkinchidan, aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonun orqali aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etish, boshqarish, faoliyat ko'rsatish va tugatishni tartibga soluvchi huquqiy normalar belgilanadi. "Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risida"gi qonun aksiyadorlarning huquqlari, aksiyalarni chiqarish qoidalari va korporativ muammolarni hal qilish tartib-qoidalarini o'z ichiga oladi. Bizga ma'lumki, har bir davlatning o'ziga yarasha soliq tizimi mavjuddir. Soliq qonunchiligi aksiyadorlik jamiyatlarida soliqqa tortish va hisobot berishni tartibga solish orqali moliyaviy boshqaruvga o'z ta'sirini o'tkazadi.

2. Korporativ boshqaruv. Ijroiya organlar, ya'ni bosh direktor va kundalik boshqaruv, shu jumladan, moliyaviy operatsiyalar bilan shug'ullanadigan boshqa mansabdor shaxslar tashkiliy-operatsion vazifalarni amalga oshiradilar. Uchinchidan, audit tizimi, jumladan, ichki va tashqi audit oshkoralik, buxgalteriya hisobining muvofiqligini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga egadir.

3. Moliyaviy hisobot. Moliyaviy hisobot standartlari, ya'ni AJlar moliyaviy hisobotlarni UFRS (Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari) yoki GAAP (AQSh

umumiy buxgalteriya hisobi tamoyillari) kabi umume'tirof etilgan standartlarga muvofiq tayyorlashlari shart. Shuningdek, eng asosiysi majburiy hisobotlar, jumladan, aksiyadorlar va investorlar uchun yillik va choraklik hisobotlarni nashr etish kompaniyani investitsion jozibadorligini oshiradi.

4. Dividend siyosati va foyda taqsimoti. Dividendlar bo'yicha qarorlar: AJlar foydani aksiyadorlar o'rtasida taqsimlash bo'yicha belgilangan qoidalarga, shu jumladan, taqsimlashning minimal va maksimal limitlariga rioya qilishlari shart. Reinvestitsiyalar qonunchilik moliyaviy ko'rsatkichlariga qarab kompaniyaning rivojlanishiga qayta investitsiya kiritishga ma'lum munosabatni talab qilishi mumkin.

5. Aksiyadorlar huquqlari. Cheklovlar va huquqlar: Qonunchilik aksiyadorlarning yig'ilishlarda ovoz berish huquqi, kompaniya faoliyati to'g'risida ma'lumot olish huquqi kabi huquqlarini belgilaydi. Ozchilik huquqlarini himoya qilish: Qonunlar kamroq ovozga ega bo'lgan aksiyadorlarning manfaatlarini himoya qilishi kerak.

6. Nazorat organlari. Nazorat qiluvchi organlar: qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini nazorat qilish va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish. Taftish komissiyalari: moliyaviy hisobotlar shu qatorda ichki va tashqi me'yoriy hujjatlarga rioya etilishi ustidan nazoratni ta'minlovchi muhim tuzilmalar.

7. Etika va korporativ ijtimoiy javobgarlik. Korporativ siyosat – AJlar moliyaviy menejmentning bir qismi sifatida biznesning obro'si va barqarorligiga ta'sir qiluvchi axloq va ijtimoiy mas'uliyat kodeksini tobora ko'proq joriy qilmoqda.

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentning tashqi tashkiliy-huquqiy asoslari kompaniyaning faoliyati, moliyaviy resurslarni boshqarish tartibi va investorlar bilan o'zaro munosabatlar doirasini belgilab beradi. Eng avvalo, "Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risida"gi qonun, "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonun hamda korporativ boshqaruv kodekslari ushbu tashqi asoslarning yadro qismini tashkil etadi. Moliyaviy menejment qarorlarining

qonuniyligi va ishonchliligi kapital bozorida ishtirok etuvchi boshqa subyektlar (masalan, auditorlar, investorlar, banklar, regulyatorlar) bilan bo‘lgan huquqiy munosabatlarning aniq chegaralanishiga bog‘liq. Shuningdek, aksiyadorlar umumiy yig‘ini, kuzatuv kengashi va audit komissiyasi faoliyati bo‘yicha tashqi nazorat mexanizmlari moliyaviy boshqaruv tizimining javobgarlik doirasini kengaytiradi.

1.5-jadval

O‘zbekiston Respublikasida aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentning tashqi tashkiliy-huquqiy asoslari⁵²

Tashkiliy-huquqiy asos	Nomlanishi	Qabul qilingan sana	Qo‘llanilishi
Konstitutsiya	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi	01.05.2023	Barcha tashkiliy-huquqiy jihatlarining asosini tashkil etadi
Kodekslar	O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi	29.08.1996	Aksiyadorlar va kompaniya o‘rtasidagi munosabatlarni
	O‘zbekiston Respublikasi mehnat kodeksi	30.04.2023	Ishchilar va kompaniya o‘rtasidagi munosabatlarni
	O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksi	01.01.2020	Soliq tizimi va kompaniya o‘rtasidagi munosabatlarni
Qonunlar	“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi	07.05.2014	Aksiyadorlik jamiyatlarini umumiy tashkil etish jihatlarini
	“Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi	04.06.2015	Aksiyadorlik jamiyatlarini qimmatli qog‘ozlari muomalasi
	“To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi	12.04.2022	Aksiyadorlik jamiyatlarini kreditorlari bilan muomalasi
	“Raqobat to‘g‘risida”gi	03.07.2023	Aksiyadorlik jamiyatlarini raqobatchilar bilan muomalasi
	“Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi	09.03.2023	Aksiyadorlik jamiyatlarini davlat bilan muomalasi
	“Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi	20.04.2022	Aksiyadorlik jamiyatlarini nobank tashkilotlar bilan muomalasi
	Auditorlik faoliyati to‘g‘risida	25.02.2021	Aksiyadorlik jamiyatlarini umumiy tashkil etish jihatlarini
	“Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi	05.11.2019	Aksiyadorlik jamiyatlarini umumiy tashkil etish jihatlarini
	“Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi	13.04.2016	Aksiyadorlik jamiyatlarini umumiy tashkil etish jihatlarini
	“Investitsiya va pay fondlari to‘g‘risida”gi	25.08.2015	Aksiyadorlik jamiyatlarini umumiy tashkil etish jihatlarini
	“Birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida”gi	12.09.2014	Aksiyadorlik jamiyatlarini qimmatli qog‘ozlari muomalasi
	“Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi	25.02.2022	Aksiyadorlik jamiyatlarini umumiy tashkil etish jihatlarini

Mana shu tashkiliy-huquqiy asoslar aksiyadorlik jamiyatlarida samarali moliyaviy menejmentni ta‘minlab, shaffof va mas‘uliyatli moliyaviy muhitni yaratishga xizmat qilmoqda, bu esa o‘z navbatida investorlar va aksiyadorlarning jamiyatga bo‘lgan ishonchini oshiradi. O‘zbekiston Respublikasida ham

⁵² Muallif ishlanmasi.

aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimini rivojlantirishga doir qator chora-tadbirlarning amalga oshirilayotgani muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuningdek, quyida O'zbekiston Respublikasida aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentning tashqi tashkiliy-huquqiy asoslari keltirib o'tilgan (1.5-jadval).

Yuqoridagi 1.5-jadval ma'lumotlarida aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimi, ya'ni moliyaviy resurslarni boshqarish, pul oqimlarini samarali va qonuniy yo'lga qoyish, umuman olganda kompleks faoliyatni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar aks ettirilgan.

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentning tashkiliy jihatlari, albatta, tashqi va ichki qonun-qoidalarga bo'ysuntiriladi. Bizga ma'lumki, har bir aksiyadorlik jamiyati umumbelgilangan qonun va standartlar asosida o'zining ichki nizomlarini ishlab chiqadi (1.6-jadval).

1.6-jadval

Milliy aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentning ichki tashkiliy-huquqiy asoslari⁵³

Tashkiliy-huquqiy asos	Nomlanishi	Qo'llanilishi
Nizom	Kompaniya ustavi	Aksiyadorlik jamiyatlarini umumiy tashkil etish jihatlari
	Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risida	Aksiyadorlik jamiyatlarini umumiy tashkil etish jihatlari
	Kuzatuv kengashi to'g'risida	Aksiyadorlik jamiyatlarini umumiy tashkil etish jihatlari
	Ijroiya organi to'g'risida	Aksiyadorlik jamiyatlarini umumiy tashkil etish jihatlari
	Audit qo'mitasi to'g'risida	Aksiyadorlik jamiyatlarini umumiy tashkil etish jihatlari
	Dividend siyosati to'g'risida	Aksiyadorlik jamiyatlarini umumiy tashkil etish jihatlari
Qoidalar	Ichki nazorat to'g'risida	Aksiyadorlik jamiyatlarini umumiy tashkil etish jihatlari
	Odob-axloq kodeksi	Aksiyadorlik jamiyatlarini umumiy tashkil etish jihatlari

Yuqoridagi 1.6-jadval ma'lumotlarida aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimining ichki nizomlari aks ettirilgan bo'lib, ular orqali faoliyat davomiyligi va qonuniyligi ta'minlanadi.

⁵³ Muallif ishlanmasi.

Biz tomonimizdan yuqoridagi paragraflarda bayon etilgan fikr-mulohazalar va takliflar nazariy jihatdan moliyaviy menejmentni aksiyadorlik jamiyatlarida samarali tashkil etishga qaratilgan. Shuningdek, nazariy uyg'unlashishi uchun aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentning modellarini ham kengroq ko'rib chiqishimiz maqsadga muvofiqdir.

1.3. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentning modellari

Yuqorida e'tirof etilgan ilmiy tadqiqotlarimizdan shunday xulosaga kelish mumkinki, moliyaviy menejment nazariy jihatdan moliyaviy resurslarning harakati jarayonida xo'jalik subyektlari o'rtasida, ayniqsa, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida yuzaga keladigan iqtisodiy va moliyaviy munosabatlarni boshqarishga qaratilgan.

Rasmiy iqtisodiy nashrlarning bergan ma'lumotlarida qayd etilishicha, "Moliyaviy modellashtirish moliyaviy tahlildagi eng qimmatli, ammo tushunarli bo'lmagan ko'nikmalardan biridir. Moliyaviy modellashtirishning maqsadi kompaniyaning kelajakdagi natijalarini bashorat qilish uchun buxgalteriya hisobi, moliya va biznes ko'rsatkichlarini birlashtirishdir"⁵⁴. Fikrimizcha, moliyaviy menejment modellari har bir aksiyadorlik jamiyatlari uchun individual tarzda ishlab chiqish va uni amaliy jihatdan testdan o'tkazish faoliyat samaradorligiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.


Iqtisodchi olimlardan G.I.Melnikova ta'kidlaganidek, "Moliyaviy resurslarni jalb etishda moliyaviy model muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Uni tashkil etishda loyiha insiatorini va investorni talabini inobatga olish kerak. Muhim sharti – moliyaviy model tushunarli va asoslangan bo'lishi kerak"⁵⁵. Ushbu jihatlarini inobatga olsak, moliyaviy modellashtirish barcha aksiyadorlik jamiyati boshqaruv organlari, shuningdek, har bir menejer uchun tushunarli va sodda bo'lishi umumfaoliyat natijasi, ya'ni daromadga erishish uchun muhim ahamiyatga egadir.

⁵⁴ <https://corporatefinanceinstitute.com/resources/financial-modeling/what-is-financial-modeling/>

⁵⁵ Мельников Г.И. Финансовое моделирование как способ оценки финансового состояния компании //Известия Байкальского государственного университета. – 2013. – №. 1. – С. 32-35.

Iqtisodchi olimlardan I.A.Muxina, G.Y.Ostaev, Y.V.Markovinalarning ilmiy tadqiqotlarida bayon etilishicha, “Moliyaviy modellashtirishning sifat usullarining asosini evristik usullar tashkil etadi, ular korxonaning likvidlik darajasi, to‘lov qobiliyati, kreditga layoqatliligi va uning investitsiya salohiyati to‘g‘risida xulosa chiqarish imkonini beradi; Moliyaviy modellashtirishning evristik usullari qayd etilgan bo‘lib, ular tahlilni amalga oshiruvchining ijodiy fikrlashida muhim rol o‘ynaydi”⁵⁶. Mazkur iqtisodchilar moliyaviy menejmentda evristik usullarni moliyaviy modellashtirishning eng maqbul sifatida hisoblashgan, lekin bizningcha kompaniyaning rentabelligini oshirishda barcha modellarni uyg‘unligini ta’minlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish davomida Biz tomonimizdan moliyaviy modellashtirishning asosiy usullari ajratib olindi. Jumladan, amaliyotda keng foydalaniladigan moliyaviy modellar quyida keltirib o‘tilgan (1.5-rasm).



1.5-rasm. Amaliyotda keng foydalaniladigan moliyaviy modellar⁵⁷

Yuqoridagi 1.5-rasm ma’lumotlarida xorijiy amaliyotda keng qo‘llaniladigan moliyaviy menejmentning modellari aks ettirilgan. Bu modellar bo‘yicha ilmiy

⁵⁶ Мухина И.А., Остаев Г.Я., Марковина Е.В. Финансовое моделирование: классификация моделей и методов //Наука Удмуртии. – 2018. – №. 1. – С. 133-136.

⁵⁷ Muallif ishlanmasi.

izlanishlarni amalga oshirgan holda, ulardan foydalanish imkoniyatlari va salohiyatini quyida keltirib o'tildi.

Uch hisobotli model moliyaviy modellashtirishning eng asosiy asosidir. Nomidan ko'rinib turibdiki, barcha uchta hisobot (daromadlar to'g'risidagi hisobot, balans va pul oqimi) Exceldagi formulalar bilan dinamik ravishda bog'langan. Maqsad, uni barcha hisoblar bog'langan va bir qator taxminlar butun modeldagi o'zgarishlarga olib kelishi mumkin bo'lgan tarzda sozlashdir.

Moliyaviy modelning eng keng tarqalgan turi bu uchta moliyaviy hisobotdan tashkil topgan standart 3 hisobotli model:

Daromadlar to'g'risidagi hisobot – Daromadlar to'g'risidagi hisobot yoki foyda va zarar to'g'risidagi hisobot (P&L) kompaniyaning turli darajadagi rentabelligini ko'rsatadi, yakuniy satr quyida sof daromad bo'ladi.

Naqd pul oqimi to'g'risidagi hisobot – CFS kompaniyaning sof daromadini naqd bo'lmagan to'lovlar va sof aylanma mablag'lar (NWC) o'zgarishiga moslashtiradi, so'ngra investitsiyalar va moliyalashtirish bilan bog'liq faoliyatni hisobga oladi.

Buxgalteriya balansi – Buxgalteriya balansida kompaniya aktivlarining balans qiymati (ya'ni, resurslar) va aktivlarni sotib olish va saqlash uchun mablag'lar qayerdan kelganligi (ya'ni, manbalar) tasvirlangan.

DCF modeli kompaniyaning ichki qiymatini baholaydi, ya'ni kompaniyaning kelajakdagi pul oqimlarini yaratish qobiliyatiga asoslangan bahosi.

Diskontlangan pul oqimlari modeli yoki qisqacha "DCF modeli" – bu kompaniyani bo'sh pul oqimlarini prognozlash orqali baholaydigan moliyaviy modelning bir turi bo'lib, erkin pul oqimlari yoki levered FCF. "Pulning vaqt qiymati" konsepsiyasidan kelib chiqqan holda, prognoz qilingan FCFlar keyinchalik joriy sanaga qaytarilishi va nazarda tutilgan baholashni hisoblash uchun birgalikda qo'shilishi kerak.

Agar firmaga erkin pul oqimi (FCF) ishlatilgan bo'lsa, u holda korxona qiymati hisoblanadi. DCFdan olingan qiymatni hisoblashda nazarda tutilgan baholash joriy bozor qiymati bilan taqqoslanadi. Agar ko'zda tutilgan baholash > Joriy bozor qiymati → past baholangan bo'lsa; Agar ko'zda tutilgan baholash < Joriy bozor qiymati → o'ta yuqori bo'lsa va h.k.

M&A modeli qo'shilish yoki sotib olishning proforma to'planishi/suyultirilishini baholash uchun ishlatiladigan yanada rivojlangan modeldir. Har bir kompaniya uchun bitta yorliqli modeldan foydalanish odatiy holdir, bunda kompaniya A + Kompaniya B = Birlashtirilgan Co. Murakkablik darajasi juda xilma-xil bo'lishi mumkin. Bu model eng ko'p investitsiya banki va/yoki korporativ rivojlanishda qo'llaniladi.

Investitsion bankirlar va korporativ rivojlanish bo'yicha mutaxassislar ham o'z bizneslarini birjaga chiqishdan oldin baholash uchun Excelda IPO modellarini yaratadilar. Bu modellar kompaniyaning taqqoslanadigan tahlilini va investorlar ushbu kompaniya uchun qancha pul to'lashga tayyor ekanligi haqidagi taxminni ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi. IPO modelidagi baholash ikkilamchi bozorda qimmatli qog'ozlar savdosini yaxshi ta'minlash uchun "IPO chegirmasi"ni o'z ichiga oladi.

Kredit yordamida sotib olish operatsiyasi odatda murakkab qarz jadvallarini modellashtirishni talab qiladi va moliyaviy modellashtirishning ilg'or shakli hisoblanadi. LBO (Leveraged Buyout (LBO) Model) ko'pincha barcha turdagi moliyaviy modellarning eng batafsil va qiyinlaridan biri hisoblanadi, chunki moliyalashtirishning ko'p qatlamlari aylanma havolalarni yaratadi va pul oqimi sharsharalarini talab qiladi. Mana shu turdagi modellar xususiy kapital yoki investitsiya bankidan tashqari juda keng tarqalgan emas.

Sum of the Parts Model. Mazkur turdagi model bir nechta DCF modellarini olish va ularni birlashtirish orqali qurilgan.

Konsolidatsiya modeli. Ushbu turdagi model bitta modelga qo'shilgan bir nechta biznes birliklarini o'z ichiga oladi. Odatda, har bir biznes bo'linmasining o'ziga xos yorlig'i mavjud bo'lib, unda boshqa biznes bo'linmalarini umumlashtiruvchi konsolidatsiya yorlig'i mavjud. Bu "Qismlar yig'indisi" mashqiga o'xshaydi, unda A bo'limi va B bo'limi qo'shiladi va yangi, birlashtirilgan ish varag'i yaratiladi. CFning bepul konsolidatsiya modeli shablonini tekshiring.

Byudjet modeli. Bu kelgusi yil(lar)da byudjetni yig'ish uchun moliyaviy rejalashtirish va tahlil (FP&A) bo'yicha mutaxassislar uchun moliyani modellashtirishda ishlatiladi. Byudjet modellari odatda oylik yoki choraklik ko'rsatkichlarga asoslanadi va asosiy e'tiborni daromadlar to'g'risidagi hisobotga qaratadi.

Prognozlash modeli. Manashu tur moliyaviy rejalashtirish va tahlil qilishda (FP&A) byudjet modeli bilan taqqoslanadigan prognozni yaratish uchun ham qo'llaniladi. Ba'zan byudjet va prognoz modellari birlashtirilgan ish kitobidir va ba'zan ular butunlay alohida.

Opcion narxlash modeli. Opcion narxlash modellarining ikkita asosiy turi binomial daraxt va Black-Scholes hisoblanadi. Anashu modellar subyektiv mezonlarga emas, balki faqat matematik formulalarga asoslangan va shuning uchun Excelga o'rnatilgan ko'proq yoki kamroq oddiy kalkulyatoridir⁵⁸.

Aksiyadorlik jamiyatlarini muvaffaqiyatli boshqarishning asosiy jihatlaridan biri moliyaviy boshqaruvning zamonaviy modellaridan samarali foydalanish hisoblanadi. Quyida ulardan ba'zilarini keltirib o'tamiz:

Byudjet tuzish va rejalashtirish: Nolga asoslangan, moslashuvchan byudjet va klaster byudjeti kabi zamonaviy byudjetlashtirish usullaridan foydalanish aksiyadorlik jamiyatlariga moliyaviy resurslarini yanada aniqroq rejalashtirish va byudjetlarni boshqarish imkonini beradi.

⁵⁸ <https://corporatefinanceinstitute.com/resources/financial-modeling/types-of-financial-models/>

Aylanma mablag'larni boshqarish: Tovar-moddiy boyliklarni, debitorlik va kreditorlik qarzlarni boshqarishning zamonaviy yondashuvlaridan foydalanish kapital aylanma siklini optimallashtirish va kompaniya likvidligini yaxshilashga yordam beradi.

Investitsion jozibadorlikni baholash: NPV (sof joriy qiymat), IRR (ichki daromad darajasi) va boshqa risklarni tahlil qilish modellari kabi investitsiyalarni baholash usullaridan foydalanish kompaniyalarga loyihalar va aktivlarga sarmoya kiritish bo'yicha asosli qarorlar qabul qilishda yordam beradi.

Moliyaviy risklarni boshqarish: moliyaviy risklarni boshqarishning zamonaviy usullari va vositalaridan, jumladan, derivativlar, sug'urta, risklarni boshqarish va xedjlashdan foydalanish aksiyadorlik jamiyatlarini yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar va hal etilmagan risklardan himoya qilishga yordam beradi.


Zamonaviy texnologiyalarni qo'llash: Zamonaviy moliyaviy axborot tizimlaridan foydalanish (masalan, ERP, CRM, BI tizimlari) boshqaruv qarorlarini optimallashtirish va moliyaviy operatsiyalarni nazorat qilish imkonini beradi.

Shaffoflik va hisobot: UFRS va GAAP kabi boshqaruv hisobotining zamonaviy standartlaridan foydalanish moliyaviy ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlaydi va investorlarning aksiyadorlik jamiyatiga ishonchini oshiradi.

Zamonaviy moliyaviy boshqaruv modellarini joriy etish va ulardan foydalanish aksiyadorlik jamiyatlariga xarajatlarni kamaytirish, kapitalni optimallashtirish va o'z aksiyadorlari uchun qiymat yaratish imkonini beradi, bu esa kompaniyaning bozorda barqaror va muvaffaqiyatli ishlashini ta'minlaydi.

Moliyaviy menejment modeli deganda, korxonaning pul mablag'lari va moliyaviy resurslarini boshqarishga qaratilgan tizimli yondashuvdir. U tashkilotning moliyaviy faoliyatini optimallashtirish uchun maksimal samaradorlik va rentabellikka erishish maqsadida ishlatiladigan usullar, vositalar, strategiyalar

va jarayonlarning birlashmasini o‘z ichiga oladi. Moliyaviy menejment modelining asosiy tarkibiy qismlari 1.6-rasmda keltirilgan:



1.6-rasm. Moliyaviy menejment modelining asosiy elementlari⁵⁹

Moliyaviy boshqaruv modellari nima uchun kerak? Moliyaviy menejment modellari korxona faoliyatidagi turli jarayonlarni tavsiflash imkonini beradi, masalan: moliyalashtirish masalalari bo‘yicha boshqaruv qarorlari, aktivlar va majburiyatlarni boshqarish siyosati, investitsiya yo‘nalishlari va maqsadlari, uzoq muddatli strategiyalar va taktika, moliyaviy natijalarni rejalashtirish va prognozlash va boshqa shu kabi jarayonlar. Moliyaviy menejmentning asosiy modellari: tavsiflovchi, predikativ va normativ modellar hisoblanadi (1.7-jadval).

⁵⁹ Muallif ishlanmasi.

Moliyaviy menejmentning asosiy modellari⁶⁰

Modellar	Xususiyati	Tarkibi
Tavsiflovchi	Bunday modellar korxona mulkini yoki uning moliyaviy holatini baholashda yuzaga keladigan davom etayotgan jarayonlarni tavsiflash uchun mo'ljallangan.	Moliyaviy xarakterdagi barcha analitik hisob-kitoblar: balansni tahlil qilish (gorizontal va vertikal), uning asosiy ko'rsatkichlari, pul oqimlarini tahlil qilish va boshqalar; Moliyaviy va buxgalteriya hisobotlari bo'yicha yakuniy ko'rsatkichlar va ularning dinamikasini yillar bo'yicha hisoblash
Predikativ	Ushbu modellar nafaqat buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot ma'lumotlariga, balki global bozor tendentsiyalariga ham tayangan holda kompaniyaning moliyaviy holatining rivojlanishini bashorat qilish uchun analitik hisob-kitoblar va koeffitsientlardan foydalangan holda ishlab chiqilgan.	Istiqbolli xarakterga ega bo'lgan analitik moliyaviy jadvallarni hisoblash; Zararsizlik nuqtasini va kompaniyaning mumkin bo'lgan minimal sotish darajasini hisoblash; Turli sohalarida kompaniyaning rivojlanish tendentsiyalarini hisoblash; Vaziyat va omil tahlillari va boshqalar.
Normativ	Ushbu modellar kompaniya rahbariyatiga moliyaviy tahlil asosida kompaniyaning haqiqiy natijalarini ko'rish va bu natijalarni rejalashtirilgan natijalar bilan solishtirish imkonini beradi.	Model rejalashtirilgan ko'rsatkichlarning amalda bajarilishi haqida batafsil tasavvur beradi

Yuqoridagi 1.7-jadvalda moliyaviy menejmentning umume'tirof etilgan asosiy modellari: tavsiflovchi, predikativ va normativ aks ettirilgandir. Bizga ma'lumki, bu modellarni samarali ishlata olish moliyaviy menejmentlarning mahorati va bilimiga bog'liq hisoblanadi.

Modellar asosida rivojlantirish orqali moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy modellar asosida aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy menejment tizimini rivojlantirish, ularning moliyaviy natijalarni oshirish va jamiyatlarining rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi. Bu esa aksiyadorlik jamiyatlarining raqobatga kurashishida ustun mavqega ega bo'lishga, xalqaro bozorlarda muvaffaqiyat qozonishiga va innovatsiyalarni qabul qilishga imkon beradi. Moliyaviy menejmentning zamonaviy modeli zamonaviy iqtisodiy sharoitda kompaniyalarning moliyaviy resurslarini samarali boshqarish bilan bog'liq turli jihatlarni o'z ichiga oladi. Zamonaviy moliyaviy menejment modellarining asosiy elementlarini quyidagicha namoyon etsak bo'ladi (1.7-rasm).

⁶⁰ Muallif ishlanmasi.



1.7-rasm. Zamonaviy moliyaviy menejment modellarining asosiy elementlari⁶¹

Aksiyadorlik korxonalari moliyaviy boshqaruv tizimini zamonaviy modellar asosida qurish orqali o'zlarining moliyaviy ko'rsatkichlarini oshirishlari, jahon bozorlarida raqobatlashishi, yangi xodimlarni yollashlari va biznes maqsadlarini o'zgartirishlari mumkin. Bu esa, ularning moliyaviy natijalarni oshirish,

⁶¹ Muallif ishlanmasi.

xatoliklarni kamaytirish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishga imkon beradi.

Banklar moliyaviy boshqaruv tizimidan foydalangan holda yaxshiroq moliyaviy xulosalar chiqarishi va moliyaviy resurslarini boshqarishi mumkin. Mana shu tizim banklar uchun naqd pul oqimini boshqarish, risklarni boshqarish, kapital tarkibini aniqlash va rentabellik ko'rsatkichlariga erishishda muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy menejment tizimi banklarning likvidligini boshqarishda muhim o'rin tutadi. Banklar likvidlik ehtiyojlarini qondirish va risklarni boshqarish uchun yetarli miqdorda naqd pulga ega bo'lishi kerak. Shu sababli, banklar naqd pulni boshqarish strategiyasini ishlab chiqadilar va likvidlik xavfi va moliyaviy risklarning mumkin bo'lgan oqibatlarini tahlil qiladilar. Bundan tashqari, moliyaviy menejment tizimi banklarga kapital tarkibini aniqlashda yordam beradi.

Banklar o'z kapital tuzilmasini to'g'ri boshqarish orqali risklarni minimallashtirish va rentabellik maqsadlariga erishishlari mumkin. Banklar kapitalga bo'lgan talablarni aniqlashlari, kapitalni rejalashtirishni amalga oshirishlari va kapitalning yetarlilik ko'rsatkichlarini kuzatishlari kerak. Moliyaviy menejment uslubi rentabellikni oshirish uchun moliyaviy qarorlarga ham ta'sir qiladi. Moliyaviy qarorlarga banklarning foiz stavkalari, kredit siyosati va risklarni boshqarish strategiyasi kabi masalalar kiradi. Banklar moliyaviy boshqaruv tizimidan foydalangan holda yaxshiroq moliyaviy xulosalar chiqarishi va moliyaviy resurslarini boshqarishi mumkin. Banklar ishonchli tizim yordamida kapital tuzilishi va rentabellik maqsadlari to'g'risida qaror qabul qilishlari mumkin. Bundan tashqari, moliyaviy boshqaruv tizimi kompaniya yoki bankning barcha moliyaviy faoliyatini tashkil qiladi va tashkilotning moliyaviy resurslarini boshqarish usullari, tartiblari va jarayonlaridan iborat. Bu menejment tizimi – banklar va tashkilotlar strukturasini belgilash, boshqaruv xodimlari va kafolatlangan bo'limlarni tizimga kirish uchun kerakli moliyaviy ta'limga e'tibor beradi.

Banklarda moliyaviy menejment tizimi, bankning barcha moliyaviy operatsiyalarini, moliyaviy nazoratni, depozitlarni qo'llash va kreditlarni taqsimlash jarayonlarini boshqarishga xizmat qiladi. Moliyaviy menejment tizimi bankning moliyaviy himoyasi, moliyaviy risklarni boshqarish, kasb-hunar markazlari bilan hamkorlik va maxfiylikni ta'minlash, yangi moliyaviy mahsulotlarni ishlab chiqish, moliyaviy hisobotlarni taqdim etish, hisob-kitob va audit jarayonlarini boshqarish va shuningdek, professional moliya xodimlarini yaxshilash bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Moliyaviy menejment tizimi, risklardan himoya qilishga yordam beradi, shuningdek, uning asosiy maqsadi – bankning moliyaviy nizomini yaxshiroq ta'sir etish va moliyaviy natijalarni yaxshilashdir. Bundan tashqari, moliyaviy menejment tizimi, banklarni moliyaviy bozorlarda rivojlanish va konkurensiya, kafolatlangan hisob-kitob va hisobi, investitsion faoliyat va bankning korxonaviy administrativ-tadbirlari bilan bog'liq xizmatlar bilan ta'minlashga yordam beradi. Moliyaviy menejment tizimi, banklarda o'ziga xos yo'nalishlarning yanada rivojlanishi va moliyaviy resurslarni samarali boshqarish imkonini beradi. Bu tizim, banklarga moliyalashtirish maqsadida turli xil moliyaviy ta'limlar, kurslar va seminarlar orqali xodimlarga o'quv amaliyotlarni amalga oshirish iboralarini keltiradi.

Aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy menejment tizimini zamonaviy modellar asosida rivojlantirish, ularning moliyaviy faoliyatini yaxshilash, xalqaro bozorlarda raqobatga kelishish, ishga qabul qiluvchilarni jalb qilish va biznes rejalarini o'zgartirishga imkon beradi. Bu esa ularning moliyaviy natijalarni oshirish, xatoliklarni kamaytirish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishga imkon beradi.

O'zbekistonda samarali aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy menejment tizimini zamonaviy modellar asosida rivojlantirish uchun bir qancha muammolar mavjud: Bu muammolar o'z ichiga moliyaviy resurslar qiymatining qimmatligi, aksiyadorlik jamiyatlarining nizom kapitali darajasini pastligi, aksiyadorlik jamiyatlarini investitsion jalb etuvchanligi pastligi, fond bozori va moliyaviy infratuzilmaning rivojlanmaganligi va boshqalar kabi faktorlarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasida moliyaviy menejmentning rivojlanishi haqida fikrlarni tahlil qilinayotganida, moliyaviy menejmentning o'zgarishlar tendensiyalari va holati muhimligi aniqlandi. O'zbekistonda moliyaviy menejmentning rivojlanishi uchun qo'shimcha amaliyotlar va huquqiy-tartibiy reformalar muhimdir.

Moliyaviy menejmentning rivojlanishi, moliyaviy xizmatlarni yuqori sifatda taqdim etish, moliyaviy hisob-kitob va hisobotlarni yaxshilash, investitsiyalarni jalb etish va xalqaro bozorlarda raqobatga kelishish uchun katta ahamiyatga ega. Shunda, O'zbekistonda moliyaviy menejmentning rivojlanishi kelajakda iqtisodiyotning rivojlanishini ta'minlaydigan yo'nalishlardan biri sifatida o'z vazifalarini bajaradi. Bu xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning innovatsion, samaraliroq bo'lishiga, aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy boshqaruv tizimini zamonaviy modellar asosida shakllantirishga imkon beradi.

Birinchi bob bo'yicha xulosalar

Moliyaviy resurslarni boshqarish, daromadlarni ko'paytirish, xarajatlarni qisqartirish, likvidlikni saqlash, xavfsizlikni ta'minlash va moliyaviy natijalarni yaxshilash moliyaviy menejmentning asosiy vazifalari hisoblanadi. Aktsiyadorlik jamiyatining pul mablag'lari va moliyaviy aktivlarini samarali boshqarishning asosiy maqsadlari, uni strategik va taktik muammolarni hal qilishga yo'naltiruvchi, moliyaviy menejmentning muhim qismlari bo'lgan ana shu vazifalardir.

Korporativ siyosat ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishini, hozirgi zamon ishlab chiqarish texnologiyalarini bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlikda qo'llashni optimal sharoitlarini tashkil etadi. Shuning uchun ham korporativ siyosatni nazariy va uslubiy rivojlanishini hozirgi bozor iqtisodiyoti shakllanishi davrida o'rganish juda zarur. Har qanday yangilik, shu jumladan, korporativ boshqaruv o'tmish korporativ boshqaruvidan farq qilsa-da, u o'tmishda ma'lum bo'lgan boshqaruv elementlariga asoslangan holda bozor iqtisodiyoti talablariga moslashgan yangi boshqaruv xususiyatiga ega bo'lib rivojlanadi.

Moliyaviy menejment rivojlanishi, moliyaviy resurslar tashkil etish va boshqarish jarayonlarini samaradorligini oshirish, moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash va investitsiyalarni keng miqyosda jalb etishga imkon beradi. Bu esa

moliyaviy tashkilotlarning samaradorligini oshiradi, innovatsiyalarni qabul qilish va zamonaviy iqtisodiyotga mos kelishga imkon beradi.

Milliy kompaniyalarda aktivlar va xususiy kapital rentabelligini raqamli texnologiyalar asosida nazorat qilib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

II BOB. AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIVAVIY MENEJMENTNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI

2.1. O‘zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy holati tahlili

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment kompaniyaning moliyaviy resurslarini samarali boshqarishni ta’minlash va aksiyadorlar uchun uzoq muddatli qiymat yaratishda asosiy rol o‘ynashini yuqoridagi nazariy hamda amaliy tadqiqotlarni o‘rganish natijasida bayon etib oldik. Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentning eng muhim jihatlariga quyidagilarni kiritsak to‘g‘ri bo‘ladi:

birinchidan, investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari. Bizga ma’lumki, aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy boshqaruvi aksiyalar yoki obligatsiyalar chiqarish yo‘li bilan investitsiyalarni jalb etishga, shuningdek, bu mablag‘lardan operatsiyalar va investitsiyalarni moliyalashtirish uchun samarali foydalanishga qaratilgan;

ikkinchidan, aksiyalar qiymatini maksimal darajada oshirishda moliyaviy menejmlarning o‘rni. Qayd etish joizki, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentning maqsadi jamiyat aksiyalarining qiymatini maksimal darajada oshirishdan iborat bo‘lib, bu aksiyadorlar manfaatlarini va daromadini oshirishga yordam beradi, eng asosiysi jamiyat o‘shining barqarorligini ta’minlaydi;

uchinchidan, moliyaviy menejment orqali aksiyadorlik jamiyatlarida kapital samarali boshqariladi. Xususan, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy boshqaruv moliyaviy barqarorlik va samaradorlikni ta’minlash maqsadida kapital tarkibi, moliyalashtirish manbalarini tanlash, kapitallashtirish optimallashtirish bo‘yicha qarorlar qabul qilishni o‘z ichiga oladi;

to‘rtinchidan, moliyaviy menejment modellari orqali risklarni samarali boshqarish mumkin;

beshtinchidan, moliyaviy nazorat va hisobotni shakllantirishda moliyaviy menejmentning ahamiyati.

Bizning fikrimizcha, jarayonni nazorat qilish, moliyaviy hisobotni tayyorlash va manfaatdor tomonlarni oshkor qilish aksiyadorlik korxonalarida moliyaviy boshqaruvning bir qismidir.

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqqan holda, aktsiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy boshqaruvi ularning moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish, aktsiyadorlar manfaatlarini hisobga olish, korxona barqarorligini, kengayishini va uzoq muddatli qiymatini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi ayon bo'ladi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy barqarorlikni va faoliyat rivojlanishini ta'minlashda moliyaviy menejmentda foydalaniladigan miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari muhim ahamiyat kasb etib, korporativ boshqaruv tizimi va moliyaviy menejerlar doimiy ravishda bu ko'rsatkichlarni nazoratga olib borishlari hamda kerakli chora-tadbirlarni qo'llashlari lozimdir. Moliyaviy menejmentda foydalaniladigan asosiy ko'rsatkichlar sifatida quyidagilarni e'tirof etamiz (2.1-jadval).

2.1-jadval

Moliyaviy menejmentda foydalaniladigan asosiy ko'rsatkichlar⁶²

Ko'rsatkich	Qisqa nomi	Aniqlanishi	Me'yoriy qiymat
Absolyut likvidlilik koeffisienti	AL	$AL = (\text{Pul mablag'lari} + \text{Qisqa muddatli moliyaviy qoyilmalar}) / \text{Joriy majburiyatlar}$	0.2 - 0.5
Moliyaviy mustaqillik koeffisienti	Equity to Total Assets	$EQ/TA = \text{Xususiy kapital} / \text{Jami aktivlar}$	0.5 - 0.8
Aktivlar rentabelligi ko'rsatkichi	ROA	$ROA = (\text{Sof foyda} / \text{Jami aktivlar}) * 100\%$	0>
Xususiy kapital rentabelligi ko'rsatkichi	ROE	$ROE = (\text{Sof foyda} / \text{Xususiy kapital})$	0.2>
Sotish rentabelligi ko'rsatkichi	ROS	$ROS = (\text{Sof foyda} / \text{Yalpi tushum}) * 100\%$	0>
Aylanma aktivlar rentabelligi ko'rsatkichi	RCA	$RCA = (\text{Sof foyda} / \text{Joriy aktivlar}) * 100\%$	0>
Qarzning o'z kapitaliga nisbati	Total debt to equity	$TD/EQ = (\text{Uzoq muddatli majburiyatlar} + \text{Joriy majburiyatlar}) / \text{Xususiy kapital}$	0.25 - 1
Investitsiyalar rentabelligi ko'rsatkichi	ROI	$ROI = (\text{Sof foyda} / \text{Xususiy kapital} + \text{uzoq muddatli majburiyatlar}) * 100\%$	0>

⁶² Muallif ishlanmasi.

2.1-jadvaldagi ko'rsatkichlarni aksiyadorlik jamiyatlarida me'yoriy qiymatlarini ta'minlash shu qatorda faoliyat samaradorligini oshirishda zamonaviy moliyaviy menejment modellaridan foydalanish hozirgi kunda muhim va zarurdir.

Tadqiqotimiz davomida O'zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy holati tahlil etilib, hududlar kesimida faoliyat ko'rsatkichlari o'rganildi. Qayd etishimiz joizki, 2024-yil 1-yanvar holatiga respublika hududlarida aksiyadorlik jamiyatlarining soni 658 taga yaqin bo'lib, ularning asosiy faoliyat turi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, savdo-sotiq va og'ir sanoat hisoblanadi.

2.2-jadval

Andijon viloyati bo'yicha aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati tahlili⁶³

Aksiyadorlik jamiyati nomi	Ustav kapital miqdori	Sof foyda, ming. so'mda			2023-yil bo'yicha	
		2021	2022	2023	ROE	ROA
“UzAuto Motors” AJ	1353923515	1799257475	2648467679	4118249569	312,4	11,3
“Andijonyog'moy” AJ	1833238	12319062	5561000	-		
“Kamalak” IF AJ	618356,7	77930727	91926170	111871649	9,42	6,61
“Hamkorbank” ATB	646648980	450884233	735397304	1200168243	31,94	5,72
“Andijon mexanika zavodi” AJ	24029206	-	-	3194927	6,6	2,11
“Imkon finans mikromoliya tashkiloti” AJ	9000000	-	-	2401770	26,36	11,08
“Andijonkabel” AJ	1161790	6343154	18541673	19549606	9,89	5,97
“Jahon savdo kompleksi” AJ	1072500	7845812	768262	13163044	23,61	16,75
“O'z-tong hong kompani” AJQK	40116012	-44840460	56285320	70201273	- 377.48	12.63
“Andijon biokimyo zavodi” AJ	24070520	6910585	693582	10157483	14,21	11,45

Yuqoridagi 2.2-jadval ma'lumotlarida Andijon viloyati bo'yicha aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati tahlil etilgan bo'lib, rentabellikning eng yuqori ijobiy ko'rsatkichlari “UzAuto Motors” AJ va “Jahon savdo kompleksi” AJga tegishlidir. Shuningdek, “Hamkorbank” ATBning sof foydasi 2023-yilda 163 foizga oshgan. Tahlillarni davom ettirib, keyingi hudud – Buxoro viloyatida

⁶³ <https://new.openinfo.uz/organizations?page=1> manbalari asosida muallif ishlanmasi

ayrim aksiyadorlik jamiyatlarini moliyaviy ko'rsatkichlarini ko'rib chiqamiz (2.3-jadval).

2.3-jadval

Buxoro viloyati bo'yicha aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati tahlili⁶⁴

Aksiyadorlik jamiyati nomi	Ustav kapital miqdori	Sof foyda, ming so'mda			2023-yil bo'yicha	
		2021	2022	2023	ROE	ROA
“Xo'jai Jahon Savdo kompleksi” AJ	37986736	457165	81935	208244	0,49	0,49
“Neftgaztadqiqot” AJ	741622	745291	90018	1024499	16,91	13,29
“O'zneftgazquduqta'mirlash”	2938950	50206	415962	9721326	10,64	4,09
“Buxoro HETK” AJ	18102540	16442135	43174100	8448708	2,42	0,75
“G'ijduvonpaxtatozalash” AJ	26658720	18237553	402089	222277	0,13	0,04
Qorako'l paxta tozalash	10312200	0	1348185	4982669	14,28	14,28
“NGQT” AJ	587350	279960	122349	599159	5,17	2,03
“BGSQ” AJ	630407	4856440	1407766	959532	10,72	1,28
“Buxorodonmahsulotlari” AJ	617430	3166837	17991919	1360	0,01	0,004
“Amubuxorokanalqurilish” AJ		678182	700045	376029	6,21	1,08

Yuqoridagi 2.3-jadval ma'lumotlaridagi 2023-yil natijalariga ko'ra “Neftgaztadqiqot” Ajning ROE ko'rsatkichi 16,91 foizni, Qorako'l paxta tozalash 14,28 foizni tashkil etgan. Qayd etish joizki, Buxoro viloyatidagi aksiyadorlik jamiyatlarining ko'pi neft-gaz sanoatiga ixtisoslashgan hisoblanadi.

2.4-jadval

Jizzax viloyati bo'yicha aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati tahlili⁶⁵

Aksiyadorlik jamiyati nomi	Ustav kapital miqdori	Sof foyda, ming so'mda			2023-yil bo'yicha	
		2021	2022	2023	ROE	ROA
“Jizzax plastmassa” AJ	15198244	7045040	1276060	10642800	0.43	0.27
“Karbonat” AJ	6279424	4792407	28005	2433962	5.65	3.35
“Paxtakor” paxta tozalash AJ	1300000	-554144	-894376	-985016	-6.03	-5.17
“Dashtobod” paxta tozalash AJ	1300000	-2446499	-1366341	-1051486	-8.02	-5.47
“Uch-tepa” paxta tozalash AJ	650000	-9222598	9745674.8	-5512842	-121.83	-34.03
“Jizzaxdonmahsulotlari” AJ	889013	12752156	4834350	1116647	0.93	0.34
“Do'stlik don mahsulotlari” AJ	970375	11402684	2196757	23634969	115.78	7.45
“Jizzax” markaziy dehqon bozori AJ	51245	6457.8	15646.6	33575	0.59	0.48
“Zafarobod” paxta tozalash AJ	1300000	19907	-1444831	-925167	-8.23	-6.05
“Eski shahar” buyum savdo kompleksi AJ	180000	31008	65969	94984	10.25	6.62

Jizzax viloyati bo'yicha aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini tahlil etar ekanmiz, yirik kompaniyalardan “Jizzax plastmassa” AJ, “Do'stlik don mahsulotlari” Ajlarni e'tirof etsak bo'ladi. Xususan, “Jizzax plastmassa” Ajning

⁶⁴ <https://new.openinfo.uz/organizations?page=1> manbalari asosida muallif ishlanmasi.

⁶⁵ <https://new.openinfo.uz/organizations?page=1> manbalari asosida muallif ishlanmasi.

2021-yildagi sof foydasi 7,04 mlrd. soʻmni tashkil etgan boʻlsa, 2023-yilda bu koʻrsatkich 10,6 mlrd. soʻmni va ROA 0,27 foizni tashkil etgan.

2.5-jadval

Qashqadaryo viloyati boʻyicha aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati tahlili⁶⁶

Aksiyadorlik jamiyati nomi	Ustav kapital miqdori	Sof foyda, ming soʻmda			2023-yil boʻyicha	
		2021	2022	2023	ROE	ROA
“Qashqadaryodonmahsulotlar” AJ	1065545	6202087	7525234	5685843	25.68	10.98
“Neft va gaz quduqlarini sinash” AJ	1381950	441353	252621	661813	2.52	0.93
Muborak paxta tozalash	1681290	1138782	-1259355	-928023	-22.82	-8.28
Qashqadaryotexnologiktransport	11461144	2014801	1941016	984308	2.79	2.41
“Don xalq rizqi” AJ	2005992	4966914	4729723	71141	0.19	0.04
“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ	2662428497	57410279	345473172	17749611	0.69	0.29
“Dunyo-M” AJ	30982248	42426711	15994222	472321	0.51	0.13
“Shahrisabz paxta tozalash” AJ	4809340	-4760094	-1631530	-1211496	-11.55	-11.5
“Koson paxta tozalash” AJ	6345127	4194	4525	-487847	-21.83	-5.24
“SEMURG” AJ	69501	36900	5722	-10381	-2.25	-1.2

Yuqoridagi 2.5-jadval maʼlumotlaridan qayd etish joizki, 2023-yil natijalari boʻyicha tahlil etilgan 10 ta AJdan 4 tasi salbiy yoki zarar bilan faoliyat olib borgan. Bu, albatta, bu aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentni samaradorligini oshirish zaruriyatini va faoliyatni modernizatsiyalash kerakligini bildiradi.

2.6-jadval

Navoiy viloyati boʻyicha aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati tahlili⁶⁷

Aksiyadorlik jamiyati nomi	Ustav kapital miqdori, ming soʻmda	Sof foyda, ming soʻmda			2023-yil boʻyicha	
		2021	2022	2023	ROE	ROA
“Janubsanoatmontaj” AJ	1633137	1691711	-7506382	-10492561	-39.9	-7.55
“NKMK” AJ	14999832119					
“Navoiy IES” AJ	2577406890	17996206	540231495	3898970	0.13	0.03
“Navoiy dori-darmon” AJ	2679753	1857	14860	1061572	10.2	4.92
“Navoiyazot” AJ	483024256	35220082	779781781	1253135385	39.64	7.13
Navoiy savdo kompleksi	5707600	633660	256238	278045	4.58	4.53
“Qiziltepa un zavodi” AJ	620274	1205796	309486	-76396	-1.52	-0.12
“Elektrokimyozavod” AJ	670680	11759	-2448935	-2224674	66.63	-2.07
“Qizilqumsement” AJ	702601533	228343480	299361161	469615749	15.49	14.5
Navoiydonmahsulotlari	749724	12466637	9360650	21323352	16.68	8.88

⁶⁶ <https://new.openinfo.uz/organizations?page=1> manbalari asosida muallif ishlanmasi.

⁶⁷ <https://new.openinfo.uz/organizations?page=1> manbalari asosida muallif ishlanmasi.

Bizga ma'lumki, Navoiy viloyati hududida sanoat, xususan, o'gir sanoatga asoslangan aksiyadorlik jamiyatlaridan, "NKMK" AJ va "Qizilqumsement" AJlarning faoliyati respublika uchun muhim ahamiyatga egadir. "Qizilqumsement" AJning 2023-yildagi aktivlar rentabelligi ko'rsatkichi 14,5 foizni, sof foydasi 496,6 mlrd. so'mni tashkil etgan.

2.7-jadval

Namangan viloyati bo'yicha aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati tahlili⁶⁸

Aksiyadorlik jamiyati nomi	Ustav kapital miqdori, ming so'mda	Sof foyda, ming so'mda			2023-yil bo'yicha	
		2021	2022	2023	ROE	ROA
"JIAMSK" AJ	1123920	911520	1264116	1203593	27.86	21.28
"Namangan dori-darmon" AJ	1525680	44515	389942	760512	18.3	2.69
"Uchqo'rg'on-yog'" AJ	5753726	812402	2689206	4156361	13.65	2.39
"O'zElektroterm" AJ	643677	15383	116	634187	41.77	35.72
To'raqo'rg'on paxta tozalash	649999	1836332	30516	-1066855	-9.19	-6.73
Kosonsoy paxta tozalash	650000	4194	4525	-487847	-21.83	-5.24
Uchqo'rg'on don mahsulotlari	685907	13117077	1159779	23890930	15.76	7.51
"Norin paxta tozalash" AJ	723615	3535192	-1724896	-969671	-13.83	-5.03
"Namangan chorsu dub" AJ	765982	717328	127570	56574	2.68	0.84
Pop paxta tozalash	639999	10232530	2069652	-750412	8.42	7.12

2.7-jadval ma'lumotlarida Namangan viloyati bo'yicha aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati tahlil etilgan. Jumladan, 2023-yil bo'yicha xususiy kapital rentabellik ko'rsatkichlari "O'zElektroterm" AJda 41,77 foizni, "JIAMSK" AJda 27,86 foizni, "Uchqo'rg'on-yog'" AJda 18,3 foizni tashkil etgan.

2.8-jadval

Samarqand viloyati bo'yicha aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati tahlili⁶⁹

Aksiyadorlik jamiyati nomi	Ustav kapital miqdori	Sof foyda, ming so'mda			2023-yil bo'yicha	
		2021	2022	2023	ROE	ROA
"Granit" AJ	1322943	1013256	-3776983	-2850959	-23.91	-11.48
"Mitan paxta tozalash" AJ	1463355	18598632	63903	440436	19.43	1.45
"Chelak paxta tozalash" AJ	1529036	-923379	13546856	-2563067	-52.26	-7.84
"BiznesCentr Samarkand" AJ	200000	-614422	213249	129357	4.66	0.35
"Kattaqo'rg'on yog'-moy" AJ	21041256	-18632492	57771	-7055993	-59.83	-20.25
"Samarqand vino kom." AJ	3275171	117129	-926065	151839	2.21	0.56
"Samarqand dori-darmon" AJ	4204760	553612	679400	-3478642	-106.25	-6.27
"O'zqishloqeletqrurilish" AJ	6767600	6185507	20470318	4014645	7.01	4.26
"Juma elevator" AJ	826814	2594080	7016464	451637	2.08	0.29
"Oqtosh-don" AJ	936299	8631986	888637	724528	3.59	0.28

⁶⁸ <https://new.openinfo.uz/organizations?page=1> manbalari asosida muallif ishlanmasi.

⁶⁹ <https://new.openinfo.uz/organizations?page=1> manbalari asosida muallif ishlanmasi.

Samarqand viloyatida jami 28 ta AJ o'z faoliyatini olib boradi. Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, tahlil etilgan AJlardan 6 tasi 2023-yilni foyda bilan yakunlagan, shuningdek, mana shu hududdagi aksiyadorlik jamiyatlarining aksariyat qismi paxta tozalash zavodlari hisoblanadi.

2.9-jadval

Surxondaryo viloyati bo'yicha aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati tahlili⁷⁰

Aksiyadorlik jamiyati nomi	Ustav kapital miqdori, ming so'mda	Sof foyda, ming so'mda			2023-yil bo'yicha	
		2021	2022	2023	ROE	ROA
“Surxondaryodonmahsulotlari” AJ	1776058	313888	863574	190815	0.31	0.05
“Uzun paxta tozalash” AJ	1856250	38012	1142010	139638	3.98	1.39
“Sariosiyo paxta tozalash” AJ	1856887	142835	486677	331899	3.88	1.95
“Sharg'un ko'mir” AJ	17029420	4523105	3614755	150171	0.15	0.01
“Sho'rchi paxta tozalash” AJ	2517926	-205945	329066	-44951	-0.83	-0.19
“Qumqo'rg'on paxta tozalash” AJ	4322082	202449	343468	426828	3.85	1.87
“Surxon parmalash ishlari” AJ	590160	1705263	978156	417500	2.26	0.38
“Sho'rchi don mahsulotlari” AJ	905785	6705745	16956045	5513368	7.24	1.16
“Qiziriq paxta tozalash” AJ	3682252	134034	475312	-2110560	-50.5	-10.19
“Sherobod paxta tozalash” AJ	739256	128402	141301	26641	1.68	0.08

Surxondaryo viloyati hududida 21 ta aksiyadorlik jamiyatlari ro'yxatdan o'tgan bo'lib, yuqorida ulardan 10 tasining 2021–2023-yillardagi faoliyat natijalari aks ettirilgan. Jumladan, “Surxondaryodonmahsulotlari” AJ, “Sariosiyo paxta tozalash” AJ, “Sho'rchi don mahsulotlari” AJ, “Qumqo'rg'on paxta tozalash” AJning 2023-yil natijalari bo'yicha ko'rsatkichlari ijobiy hisoblanadi. 2023-yil yakunlariga ko'ra, Surxondaryo viloyatidagi aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati moliyaviy natijalar va rentabellik darajalari bo'yicha keskin farqlanishini ko'rsatdi. Jumladan, eng yuqori ROE ko'rsatkichiga “Sho'rchi don mahsulotlari” AJ ega bo'lib, 7,24 birlikni tashkil etdi, bu korxonaning ustav kapitali nisbatan kichik bo'lsa-da, sof foydaning katta miqdorda shakllanganidan dalolat beradi. Boshqa tomondan, “Qiziriq paxta tozalash” AJ va “Sho'rchi paxta tozalash” AJ larida ROE va ROA salbiy bo'lib, bu ularning iqtisodiy samarasizligi, yuqori moliyaviy yo'qotishlar va ehtimoliy boshqaruv xatolarini ko'rsatadi. Tahlillarimizning keyingi obyekti sifatida Sirdaryo viloyati bo'yicha aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati hisoblanadi (2.10-jadval).

⁷⁰ <https://new.openinfo.uz/organizations?page=1> manbalari asosida muallif ishlanmasi.

2.10-jadval

Sirdaryo viloyati bo'yicha aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati tahlili⁷¹

Aksiyadorlik jamiyati nomi	Ustav kapital miqdori, ming so'mda	Sof foyda, ming so'mda			2023-yil bo'yicha	
		2021	2022	2023	ROE	ROA
“Baxt paxta tozalash” AJ	1,202,224	-7944252	22507115	-1044242	-3.78	-2.16
“Paxtaobod paxta tozalash” AJ	1,240,184	-14949088	56350	-1342191	-0.56	-4.59
“Sayxunobod paxta tozalash” AJ	1,277,200	-3057	-518741	-25030	-0.49	-0.12
“Guliston paxta tozalash” AJ	1,279,998	-1938644	16222	-3131633	-13.18	-9.67
“Oq oltin don mahsulotlari” AJ	1,315,052	128365	796444	-13262364	-	-3.15
“Boyovut paxta tozalash” AJ	2,490,660,	14192708	-2670902	3466	0.02	0.01
“Yo'lreftrans” AJ	21,887,309,	-7997687	4261914	3686265	39.67	6.8
“Xovos don mahsulotlari” AJ	712,793	6675177	479078	316059	3.55	0.14
“Sardoba paxta tozalash” AJ	62,353	-	43449	-18339077	-38.02	-23.22

Yuqoridagi 2.10-jadval ma'lumotlaridan ayon bo'lmoqdaki, 2023-yil natijalari bo'yicha Sirdaryo viloyati hududidagi qator aksiyadorlik jamiyatlari o'z faoliyatlarini zarar bilan yakunlashgan. Jumladan, “Sardoba paxta tozalash” AJ, “Baxt paxta tozalash” AJlarning xususiy kapital rentabellik ko'rsatkichlari salbiy qiymatda bo'lsa, “Yo'lreftrans” AJ, “Xovos don mahsulotlari” AJlari sof foyda bilan aksiyadorlarga dividend ajratishgan.

2.11-jadval

Toshkent shahri bo'yicha aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati tahlili⁷²

Aksiyadorlik jamiyati nomi	Ustav kapital miqdori, ming so'mda	Sof foyda			2023-yil bo'yicha	
		2021	2022	2023	ROE	ROA
“Trastbank” XAB	1000250000	460642865	605335128	800254829	35.66	8.47
“Foton” AJ	1082713	1222160	1374931	1420001	6.79	6.25
AT “Aloqabank”	1191243847	107582490	228394438	607650640	22.99	3.79
“Foykon” AJ	1721477	6048753	3857845	2066755	24.36	18.97
“O'zagrosug'urta” AJ	108955938	8115625	14536389	19257081	16.83	4.12
“Agrobank” ATB	11515191064	404128445	609233756	750890465	6.11	1.13
“O'zenergoinjining”	13167161	2502540	1580985	788943	2.48	2.13
O'ztemiryo'lkonteyner	3366271	120650040	122108419	137719808	22.46	20.56
“Ipoteka-bank” ATB	3834217638	693720240	1156476399	818937136	10.81	1.72
“TREST-12” AJ	39641246	18824698	579417	18549735	7.73	1.64

⁷¹ <https://new.openinfo.uz/organizations?page=1> manbalari asosida muallif ishlanmasi.

⁷² <https://new.openinfo.uz/organizations?page=1> manbalari asosida muallif ishlanmasi.

Toshkent shahridan ro'yxatdan o'tgan aksiyadorlik jamiyatlari 2024-yilning yanvar holatiga 303 tani tashkil etgan bo'lib, aksariyat tijorat banklari shu bilan birga yirik qo'shma korxonalar o'z faoliyatini olib borgan. 2023-yil yakunlari bo'yicha ROE va ROA ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari 2.11-jadvalda berib o'tilgandir. Xususan, "Trastbank" XABning 2023-yildagi sof foydasi 800,2 mlrd. so'mni tashkil etib, oldingi yilga nisbatan 132,2 foizga oshgan. Tahlil etilgan Toshkent shahridan ro'yxatdan o'tgan aksiyadorlik jamiyatlarida ROA, ya'ni aktivlar rentabelligi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich "O'ztemiryo'lkonteyner" AJga tegishli bo'lib, 2023-yilda 20,56 foizni tashkil etgan.

2.12-jadval

Toshkent viloyati bo'yicha aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati tahlili⁷³

Aksiyadorlik jamiyati nomi	Ustav kapital miqdori, ming so'mda	Sof foyda, ming so'mda			2023-yil bo'yicha	
		2021	2022	2023	ROE	ROA
"O'zbekko'mir" AJ	185773565	20559564	55468984	63905564	7	2.78
"OKMK" AJ	2121961761	5359854518				
"O'zbekgeofizika" AJ	374119729	51439749	53098327	40170189	3.95	3.61
"O'MK" AJ	3785717290	1471468482	1153248697	513660728	9.07	4.2
"Ohangaronsement" AJ	4918427	149402872	130969956	33416939	1.97	1.55
"UzAuto Motors Powertrain" AJ	139837000	13454766	182243148	233552636	16.88	5.58
"Angren log Markazi" AJ	6519015	78100	171877	370594	0.73	0.72
"Ohangaron don" Aj	1925938	3745062	16682181	-13635320	-21.8	-3.35
"Bo'ka PT" AJ	1181052	199508	28470	5344	0.02	0.01

2.12-jadval ma'lumotlarida "O'zbekko'mir" AJ, "O'zbekgeofizika" AJ, "UzAuto Motors Powertrain" AJ kabi nufuzli kompaniyalarning moliyaviy holatlari aks ettirilgan. Tahlillardan ayon bo'lmoqdaki, eng yuqori ROE ko'rsatkichi "UzAuto Motors Powertrain" AJda, ya'ni 16,88 foizlik qiymatda bo'lgandir.

⁷³ <https://new.openinfo.uz/organizations?page=1> manbalari asosida muallif ishlanmasi.

2.13-jadval

Farg‘ona viloyati bo‘yicha aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati tahlili⁷⁴

Aksiyadorlik jamiyati nomi	Ustav kapital miqdori, ming so‘mda	Sof foyda, ming so‘mda			2023-yil bo‘yicha	
		2021	2022	2023	ROE	ROA
“Kvarts” AJ	165410408	54712930	64319099	-21749374	-5.74	-2.8
“Farg‘ona yog‘moy” AJ	17951002	3394212	3511910	74091	0.14	0.06
“Baraka IF” AJ	670993	190291	277369	342995	22.07	15.81
“Universal bank” ATB	500000000	13081160	133991496	94854006	22.71	3.97
“Qo‘qon Biokimyo” AJ	71508990	7720912	12243631	10354998	7.37	4.83
“Qo‘qon” mexanika zavodi	20128068	290179	475242	510046	1.7	0.57
“Uzsalaman” AJ	3943002	17609	-17095	68835	4.85	1.68
“Farg‘ona donmahsulotlari” AJ	635897	21243731	1731373	15725112	12.82	5.27
Indorama KFCh	2916798	58770419	168697840	12628006	5.14	1.12
“Farg‘onaazot” AJ	83472914	348773760	233824994	229180277	14.37	11.18

2024-yil 1-yanvar holatiga Farg‘ona viloyati bo‘yicha jami 43 ta aksiyadorlik jamiyatlari faoliyat olib borgan bo‘lib, ulardan “Baraka IF” AJ, “Universal bank” ATB, “Farg‘onaazot” AJning faoliyatlarini ijobiy baholash mumkin. Tahlil etilgan aksiyadorlik jamiyatlaridan bittasida ya‘ni “Kvarts” AJda 2023-yil bo‘yicha ROE va ROA ko‘rsatkichlari salbiydir.

2.14-jadval

Xorazm viloyati bo‘yicha aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati tahlili⁷⁵

Aksiyadorlik jamiyati nomi	Ustav kapital miqdori, ming so‘mda	Sof foyda, ming so‘mda			2023-yil bo‘yicha	
		2021	2022	2023	ROE	ROA
“Shovot don mahsulotlari” AJ	968,956,	1031886	129558	942091	10.67	1.23
“Xonqa don mahsulotlari” AJ	1,848,110	7024095	2666421	208439	2.09	0.2
“Bogot-don” AJ	923,288,	210070	709517	50438	0.61	0.08
“Hazorasp paxta tozalash” AJ	3,625,573,	1646067	1057794	-570079	-2.29	-2.18
“Gurlan paxta tozalash” AJ	7,353,659,	2427696	14449782	-999173	-2.2	-2.06
“Yangibozor paxta tozalash” AJ	1,870,303,	16730191	12904	-671291	-3.37	-2.92
“Bog‘ot paxta tozalash” AJ	4,135,804,	25794442	16316	24667	0.12	0.11
“Urganchkormmash” AJ	650,910	2238421	164977	4779	0.06	0.02
“Hazorasp universal savdo kompleksi” AJ	841,608	171207	180922	132630	7.63	9.67
“Xorazmdonmahsulotlari” AJ	1,163,945,	72696	-3218961	-4366470	-700.88	-6.78

⁷⁴ <https://new.openinfo.uz/organizations?page=1> manbalari asosida muallif ishlanmasi.

⁷⁵ <https://new.openinfo.uz/organizations?page=1> manbalari asosida muallif ishlanmasi.

2024-yil 1-yanvar holatiga Xorazm viloyati bo'yicha jami 30 ta aksiyadorlik jamiyatlari faoliyat olib borgan bo'lib, ulardan "Shovot don mahsulotlari" AJ, "Xonqa don mahsulotlari" AJ, "Hazorasp universal savdo kompleksi" AJning faoliyatlarini ijobiy baholash mumkin. Tahlil etilgan aksiyadorlik jamiyatlaridan to'rttasida 2023-yil bo'yicha ROE va ROA ko'rsatkichlari salbiydir.

2.15-jadval

Qoraqalpog'iston bo'yicha aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati tahlili⁷⁶

Aksiyadorlik jamiyati nomi	Ustav kapital miqdori, ming so'mda	Sof foyda, ming so'mda			2023-yil bo'yicha	
		2021	2022	2023	ROE	ROA
"Ellikqal'a paxta tozalash" AJ	2,484,000	130581	31213	84568	2.84	0.63
"To'rtko'l paxta tozalash" AJ	1,874,880	342148	26804	48409	1.16	0.12
"Qaraqalpaq go'sh-shu't savdo" AJ	648,000	31956	5949	10877	0.53	0.52
"Qaraqalpaqboyan" AJ	622,950	5295	0	12813	0.8	0.63
"No'kis vinozavodi" AJ	14,594,666,	14007031	8878535	48422521	42.45	32.06
"Yog'gar" Aj	4,093,374,	45348	47530	21090	0.36	0.08
"Chimbay may" AJ	671,680,	73136	25026	58552	5.26	2.07
"Qonirat un zavodi" AJ	1,294,660,	99350	-	125317	4.91	0.24


Yuqoridagi 2.15-jadval ma'lumotlaridan ayon bo'lmoqdaki, 2023-yil natijalari bo'yicha Qoraqalpog'iston hududidagi qator aksiyadorlik jamiyatlari o'z faoliyatlarini foyda bilan yakunlashgan. Jumladan, "No'kis vinozavodi" AJ, "Ellikqal'a paxta tozalash" AJlarning xususiy kapital rentabellik ko'rsatkichlari ijobiy qiymatda bo'lib, aksiyadorlarga yuqori dividend ajratilgan.

Tadqiqot davomida "Kapitalbank", "Hamkorbank" va "Milliy bank"lardagi yillik hisobotlar, banklar tomonidan beriladigan dividendlar va rivojlanish strategiyalari tahlil va analiz qilindi. Bu hisobotlar, banklarning moliyaviy holatini, daromadlarni, xarajatlarini, aktivlarni va passivlarni ko'rsatadi. Hisobotlar bankning moliyaviy natijalarini va faoliyatining o'zgarishlarini tushuntiradi. Banklar tomonidan berilayotgan dividendlar, aksiyadorlarga bankning daromadlari asosida taqsimlanadigan moliyaviy to'lovlardir. Bu dividendlar, bankning

⁷⁶ <https://new.openinfo.uz/organizations?page=1> manbalari asosida muallif ishlanmasi.

moliyaviy holatini va daromadlarini o‘z ichiga olganligini ko‘rsatadi. Rivojlanish strategiyalari, bankning uzun muddatli maqsadlari va rivojlanishning belgilangan yo‘nalishlari bo‘yicha o‘rganildi. Bu strategiyalar, bankning kengayishini, yangi bozorlar va xizmatlar yaratishni, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni va boshqarish jarayonlarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari banklarda moliyaviy resurslarni boshqarish, moliyaviy statistikalar, natijalar va xavfsizlikni ta‘minlashga yordam beradigan usullar ko‘rib chiqildi. Bu usullar banklarning moliyaviy faoliyatlarini samarali boshqarish, natijalarni yaxshilash va xavfsizlikni ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega.


Moliyaviy natijalar tahlili, banklarning moliyaviy faoliyatlarini hisob-kitob qilish, natijalar tahlilini o‘tkazish va natijalarni yaxshilashga yordam beradi. Tadqiqot davomida “Kapitalbank”, “Hamkorbank” va “Milliy bank”lardagi yillik hisobotlar, banklar tomonidan beriladigan dividendlar va rivojlanish strategiyalari tahlil qilindi. Bu hisobotlar, banklarning moliyaviy holatini, daromadlarni, xarajatlarini, aktivlarni va passivlarni ko‘rsatadi.



2.1-rasm. “Kapitalbank” ATBning moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisoboti, (mlrd. so‘mda)⁷⁷

⁷⁷ <https://www.kapitalbank.uz/uz/shareholders/financial-indicators/accounting/> asosida muallif tomonidan tayyorlandi.


Yuqoridagi ma'lumotlardan foydalanib, "Kapitalbank" ATB 2021-, 2020- va 2019-yillarining moliyaviy natijalarini tahlil qilishimiz mumkin. To'plangan ma'lumotlarda jami daromad, jami xarajatlar, jami foizsiz daromad, jami foizsiz xarajatlar va sof foyda bo'yicha statistikalarini ko'rishimiz mumkin. 2021-yilda jami foiz daromadi 1 239 333 215 ming so'm bo'lgan, bu 2020-yilga qaraganda 23.5 % o'sishni ko'rsatadi. 2019-yilga nisbatan esa, 81.6 % o'sishni ifodalaydi. 2021-yilda jami xarajatlar 914 077 096 ming so'm bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich o'tgan 2020-yilda 746 239 575 ming so'm va 2019-yilda esa xarajatlari 481 830 414 ming so'mni tashkil etgan. Bu, jami daromad o'sishi va shuningdek, xarajatlarning ham o'sishini ifodalaydi. Jami foizsiz daromad 2021-yilda 545 911 469 ming so'm bo'lib, 2020-yilga nisbatan 9.2 % o'sib, 2019-yilga nisbatan esa 47.8 % o'sishni ko'rsatadi. 2021-yilda jami foizsiz xarajatlar 151 384 975 ming so'm bo'lgan.



2.2-rasm. "Hamkor bank" ATBning moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisoboti, (mlrd. so'mda)⁷⁸

⁷⁸ <https://hamkorbank.uz/upload/iblock/7dc/7dc856c95ee7c4c8a98f2e8ae52786bb.pdf> asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yuqoridagi 2.2-rasmda “Hamkor bank” ATBning 2021-yilda jami foiz daromadi 1 627 923 020 ming so‘m bo‘lib, 2020-yilda bu ko‘rsatkich 1 549 287 724 ming so‘mni, 2019-yilda esa 1 423 447 703 ming so‘m bo‘lganligi ko‘rishimiz mumkin. Bu ko‘rsatkichlar bankning yillik daromadini ifodalaydi va 2021-yilda daromadning oldingi yillardan oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Jami foiz xarajatlari esa 2021-yilda 845 224 274 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2020-yilda bu ko‘rsatkich 879 560 888 ming so‘mni, 2019-yilda esa 883 388 759 ming so‘mni tashkil etganini ko‘rishimiz mumkin. Jami foizsiz daromadlar 2021-yilda 1 586 246 441 ming so‘mni tashkil etgan, bu ko‘rsatkich 2020-yilga nisbatan yuqori darajada o‘shib, 2019-yilga nisbatan esa 183.8 % o‘shishni ko‘rsatdi. Bu o‘shish, kompaniya kapitalini oshirish va yangi daromad manbalari bilan investitsiyalarni ko‘rsatishi mumkin. Jami foizsiz xarajatlar esa 2021-yilda 1 017 004 007 ming so‘m bo‘lib, 2020-yilda 234 887 268 ming so‘mni, 2019-yilda esa 195,113,518 ming so‘m bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin.




2.3-rasm “Milliy bank” ATBning moliyaviy natijalari to‘g‘risidagi hisobot⁷⁹

⁷⁹<https://nbu.uz/uz/about-bank/annual-reports/> asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yuqoridagi ma'lumotlarda "Milliy bank" ATBning 2021-yilda jami foiz daromadi 6 320 657 849 ming so'm bo'lib, 2020-yilda bu ko'rsatkich 5 921 774 493 ming so'mni, 2019-yilda esa 4 375 719 317 ming so'm bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Bu ko'rsatkichlar bankning yillik daromadini ifodalaydi va 2021-yilda daromadning oldingi yillardan oshganligini ko'rishimiz mumkin. Jami foiz xarajatlari esa 2021-yilda 3 464 017 403 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda bu ko'rsatkich 3 283 379 922 ming so'mni, 2019-yilda esa 2 830 151 891 ming so'mni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. Jami foizsiz xarajatlar esa 2021-yilda 276 631 748 ming so'm bo'lib, 2020-yilda 367 091 356 ming so'mni, 2019-yilda esa 238 802 773 ming so'm bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. SOF foyda 2021-yilda 983 326 435 bo'lib, 2020-yilga nisbatan 8.55 % o'sib, 2019-yilga nisbatan esa 5.75 % o'sishni ko'rsatadi.


Tahlillarimizning navbatdagi obyekti "Davir-bank" XATB hisoblanib, uning aktivlar va majburiyatlari hisobi quyida ko'rsatib o'tilgan (2.4-rasm).



2.4-rasm. "Davir-bank" XATBning aktivlari va majburiyatlari tahlili, (mlrd. so'm)⁸⁰

⁸⁰ <https://new.openinfo.uz/organizations/26?active-collapse=facts> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.


2.4-rasm ma'lumotlarida "Davr-bank" XATBning aktivlar va majburiyatlari tahlil etilgan bo'lib, o'rtacha hisobda ularning nisbati 85 foizni tashkil etgan. Jumladan, 2016-yilda aktivlarning umumiy qiymati 341 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 18 barobarga oshgan. Shuningdek, shu davrda bankning jami majburiyatlari 5,1 trln. so'mni yoki oldingi yilga nisbatan 156,6 foizga oshgan.



2.5-rasm. "Davr-bank" XATBning ustav kapitali o'zgarishi tahlili, (mlrd. so'm)⁸¹


2.5-rasm ma'lumotlarida "Davr-bank" XATBning xususiy kapitali tahlili etilgan bo'lib, 2016-yilda ustav kapital 40 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 400 mlrd. so'mga va taqsimlanmagan foyda 584 mlrd. so'mlik qiymatda bo'lgan. Shuningdek, bankning xarajatlar va daromadlar dinamikasi quyida keltirib o'tilgan (2.6-rasm).

⁸¹ <https://new.openinfo.uz/organizations/26?active-collapse=facts> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



2.6-rasm. “Davrbank” XATBning aktivlari va majburiyatlari tahlili, (mlrd. so‘m)⁸²

2.6-rasm ma’lumotlarida “Davrbank” XATBning xarajatlari va daromadlari tahlil etilgan bo‘lib, 2016-yilda jami foizli daromadlar 34 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib 1452 mlrd. so‘mga va foizli xarajatlar 971 mlrd. so‘mlik qiymatda bo‘lgan. Shuningdek, bankning sof foydasi dinamikasi quyida keltirib o‘tilgan (2.7-rasm).



2.7-rasm. “Davrbank” XATBning sof foydasi o‘zgarishi tahlili, (mlrd. so‘m)⁸³

Yuqoridagi 2.7-rasm ma’lumotlarida “Davrbank” XATBning sof foydasi o‘zgarishi tahlil etilgan bo‘lib, 2023-yil natijalariga ko‘ra 371,4 mlrd. so‘mni

⁸² <https://new.openinfo.uz/organizations/26?active-collapse=facts> ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

⁸³ <https://new.openinfo.uz/organizations/26?active-collapse=facts> ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

tashkil etgan. Shuningdek, umumiy operatsion xarajatlar 2016-yilda 26,5 mlrd. soʻmni va 2023 yilda 262,5 mlrd. soʻmni yoki oʻrtacha yillik 141 foizga oʻsgan.

Daromadlarni oshirish strategiyalari bu banklarning isteʼmol qilgan moliyaviy resurslardan maksimal daromad olishga qaratilgan usullardir. Bu strategiyalar, investitsiya portfelini boshqarish, kreditlar berish, xizmatlarni yuqori narxlar bilan taqdim etish va yangi bozorlar va xizmatlar yaratishni oʻz ichiga oladi. Xarajatlarni kamaytirish strategiyalari, banklarning moliyaviy resurslarini samarali ishlatish va xarajatlarni minimallashtirishga yoʻl qoʻyadi. Banklarda moliyaviy menejment tizimini rivojlantirishning bir necha asosiy jihatlari mavjud, ular:

birinchidan, avtomatlashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari;

ikkinchidan, riskka asoslangan yondashuvning samarasi: kredit riski, operatsion risk, likvidlik riski va boshqa turdagi risklar kabi risklarni boshqarishga katta eʼtibor beriladi. Bu risklarni baholash va boshqarishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish, shuningdek, moliyaviy qarorlar qabul qilishda riskka asoslangan yondashuvlarni joriy etishni oʻz ichiga oladi;

uchinchidan, kapitalni boshqarish salohiyati: kapitalning minimal darajalari uchun qatʼiy tartibga soluvchi talablar, kapital majburiyatlarini boshqarishga eʼtibor berish, har xil turdagi risklar uchun kapitalni yanada aniqroq baholash usullarini ishlab chiqish;

toʻrtinchidan, shaffoflik va hisobotlarga qoʻyiladigan talablarni kuchaytirish;

beshinchidan, korporativ boshqaruvga toʻgʻri yondashuv;

oltinchidan, likvidlikni boshqarishni kuchaytirish.

Yuqoridagi strategiyalar, likvidlik nazorati, likvidlik risklarini tahlil qilish va operatsion tizimlarni rivojlantirishdan iborat. Xavfsizlikni taʼminlash strategiyalari, banklarning moliyaviy operatsiyalarini xavfsizlashtirish va moliyaviy risklarni minimallashtirishga yoʻl qoʻyadi. Barcha usullar va strategiyalar, banklarning moliyaviy faoliyatlarini samarali boshqarish va natijalarni yaxshilashga yordam beradi.

2.2. O‘zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment amaliyoti tahlili

O‘zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment amaliyoti bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich moslashayotgan sharoitda nisbatan yangi va rivojlanayotgan boshqaruv yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Amaliyotda kuzatilishicha, yirik davlat ishtirokidagi jamiyatlarda moliyaviy qarorlar ko‘pincha strategik rejalashtirish emas, balki byudjet ijrosi va qisqa muddatli likvidlik muammolarini bartaraf etishga yo‘naltirilgan. Aksariyat hollarda moliyaviy menejerlar qarorlar qabul qilishda nafaqat moliyaviy ko‘rsatkichlarni (ROE, ROA, EBITDA), balki siyosiy yoki tashqi ko‘rsatmalarni ham inobatga olishga majbur bo‘lmoqda, bu esa mustaqil menejment tamoyillarini cheklab qo‘ymoqda. Shu bilan birga, xususiy sektor aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment faoliyati tobora tizimlashtirilmoqda, u yerda risklarni boshqarish, dividend siyosati va investitsion qarorlar tahlili bozor printsiplariga yaqinlashmoqda. Korporativ hisobotlarni IFRS asosida yuritish va yillik audit tekshiruvlarining joriy qilinishi bu amaliyotning xalqaro standartlarga moslashishini ta'minlamoqda. Ammo, kichik va o‘rta korxonalarda moliyaviy menejment odatda buxgalteriya bilan tenglashtirib yuborilishi, samarali strategik moliyaviy boshqaruvni cheklab qo‘ymoqda. Umuman olganda, moliyaviy menejment amaliyotining O‘zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlarida institutsional shakllanishi davom etmoqda va bu yo‘lda malakali mutaxassislar, raqamli infratuzilma va erkin bozor tamoyillariga asoslangan korporativ boshqaruv madaniyatini kengaytirish zarur.

O‘zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimida samarali nazorat o‘rnatish milliy iqtisodiy o‘sishga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Yuqoridagi tahlillar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, O‘zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentning muhim jihatlari quyidagilardan iborat:

1. Moliyaviy rejalashtirish va byudjetlashtirish. Kompaniyalar uzoq muddatli va qisqa muddatli moliyaviy rejalarni ishlab chiqishlari, moliyaviy barqarorlik va rentabellikka erishish uchun maqsad va strategiyalarni belgilashlari kerak.

2. Aylanma mablag'larni boshqarish. Naqd pul, inventar va debitorlik qarzlarni samarali boshqarish kompaniyalarga xarajatlarni kamaytirish va moliyaviy salomatlikni yaxshilashga yordam beradi.

3. Moliyaviy tahlil. Moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish boshqaruv xodimlariga kompaniyaning hozirgi holatini baholash, muammoli joylarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko'rish imkonini beradi.

4. Investitsiyalarni boshqarish. Turli loyihalar va aktivlarga sarmoya kiritish to'g'risida qaror qabul qilish xavflarni va kutilayotgan daromadlarni chuqur tahlil qilishni talab qiladi.

5. Risklarni boshqarish. Moliyaviy menejerlar valyuta o'zgarishi, foiz stavkalari va qonunchilikdagi o'zgarishlar bilan bog'liq moliyaviy risklarni samarali boshqarishlari kerak.

Respublikamizda faoliyat olib borayotgan aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy menejment tizimiga oid ko'rsatkichlari quyida tahlil etilgan (2.16-jadval).

2.16-jadval

Milliy aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy menejment tizimiga oid ko'rsatkichlari tahlili⁸⁴

Yil	ROA			ROE			TD/EQ		
	“Jizzax plast massa” AJ	“Qizilqum sement” AJ	“O'zmet kombinat” AJ	“Jizzax plast massa” AJ	“Qizilqum sement” AJ	“O'zmet kombinat” AJ	“Jizzax plast massa” AJ	“Qizilqum sement” AJ	“O'zmet kombinat” AJ
2018	14,41	21,84	11,35	19,13	23,98	25,18	32,82	9,8	121,83
2019	5,59	16,24	9,2	8,79	16,95	20,99	57,19	4,38	128,15
2020	0,34	27,51	4,98	0,5	29,41	12,16	47,69	6,9	144,41
2021	1,36	8,62	18,44	1,72	10,09	47,44	26,82	16,98	157,23
2022	0,17	10,72	11,61	0,21	11,68	29,6	23,97	8,97	154,97
2023	0,27	14,5	4,2	0,43	15,49	9,07	59,4	6,88	116,12

2.16-jadvaldagi ko'rsatkichlarni “Jizzax plastmassa” AJ, “Qizilqum sement” AJ, “O'zmet kombinat” AJ aksiyadorlik jamiyatlarida aktivlar rentabelligi ko'rsatkichi, xususiy kapital rentabelligi ko'rsatkichi, qarzning o'z kapitaliga nisbati tahlil etilgan bo'lib, “O'zmet kombinat” Ajning so'nggi yillardagi

⁸⁴ Aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy hisobotlaridan foydalangan holda muallif ishlanmasi.

ko'rsatkichlari salbiy bo'lsa, "Qizilqum sement" AJning ko'rsatkichlari ijobiydir. Jumladan, "Jizzax plastmassa" AJning 2018-yildagi aktivlar rentabelligi ko'rsatkichi 14,41 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda shu ko'rsatkich 0,27 foizga teng bo'lgan. ROE ko'rsatkichi bo'yicha "Qizilqum sement" AJ 2023-yil natijalari bo'yicha 15,49 foizga ega bo'lgan. Majburiyatlarni xususiy kapitalga nisbati bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich 116,2 foiz "O'zmet kombinat" AJga tegishlidir.

Banklarda moliyaviy menejment tizimini rivojlantirish moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va barcha manfaatdor tomonlar uchun qiymat yaratish maqsadida moliyaviy resurslarni boshqarish samaradorligini oshirish, risklarni minimallashtirish va shaffoflikni oshirishga qaratilgan.

2.17-jadval

"Davrbank" ATBida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga oid ko'rsatkichlar tahlili⁸⁵

Yillar	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	5 yillik o'rtacha o'zgarish
Ko'rsatkichlar						
Likvidlilik koeffitsiyenti	1,17	1,17	1,19	1,18	1,19	1,18
Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti	0,14	0,14	0,16	0,15	0,16	0,15
Aktivlar rentabelligi ko'rsatkichi	4,15	5,26	5,13	4,66	5,63	4,97
Xususiy kapital rentabelligi ko'rsatkichi	28,46	29,01	34,59	30,35	34,59	31,40
Muammoli kreditlar ulushi, foizda	0,7	0,8	0,9	1,0	0,6	0,80
Foizli marja/yalpi daromad	2,2	2,1	0	2,8	0,16	1,45
Foizsiz xarajatlar/yalpi daromad	0,13	0,13	0,11	1,0	0,33	0,34

Mijozlarga xizmat ko'rsatishning uzoq kanallariga o'tishda bankning foiz va komissiya daromadlari tarkibini optimallashtirish va mavjud savdo kanallarining samaradorligini oshirish bank uchun juda foydali bo'lishi mumkin. Shu maqsadga erishish uchun asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

⁸⁵ www.newopeninfo.uz sayti asosida muallif ishlanmasi.


1. Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallarini rivojlantirish: Bank onlayn-banking, mobil ilovalar va boshqa masofaviy xizmat ko'rsatish kanallarini rivojlantirishga sarmoya kiritishi mumkin, bu esa mijozlarga xizmat ko'rsatish narxini pasaytiradi va bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshiradi.

2. O'zaro savdoning oshishi: Bank mavjud mijozlarga qo'shimcha mahsulot va xizmatlarni faol ravishda targ'ib qilishi mumkin, bu komissiya daromadlarini oshiradi va mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilaydi.

3. Filiallar tarmog'ini optimallashtirish: Bank o'z filiallarining samaradorligini tahlil qilishi va tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish uchun filiallar tarmog'ini qayta ko'rib chiqish yoki birlashtirish imkoniyatlarini ko'rib chiqishi mumkin.

4. Yangi xizmatlarni ishlab chiqish: Yangi savdo kanallarini rivojlantirish va qo'shimcha xizmatlar, masalan, investitsion va sug'urta xizmatlarini ko'rsatish komissiya daromadlarini oshirishga yordam beradi.

Ushbu qadamlar bankning daromadlar tuzilmasi samaradorligini oshirishga yordam beradi va yanada barqaror va diversifikatsiyalangan foyda manbalarini ta'minlaydi (2.8-rasm).



2.8-rasm. Milliy banklarda moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili, (2022-yil, %da)⁸⁶

⁸⁶ Muallif ishlanmasi.

2.8-rasm ma'lumotlarida respublikamizdagi milliy banklar: "Davrbank" XATB, "Kapitalbank" ATB, "Ipoteka-bank" ATIB, "Anor bank" AJ, "Trastbank" XAB moliyaviy menejment tizimi ko'rsatkichlari tahlil etilgan bo'lib, xususiy kapital rentabelligi ko'rsatkichi "Kapitalbank" ATBda 41,46 foiz, "Trastbank" XABda 36,92 foizni, "Ipoteka-bank" ATIBda 19,54 foizni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. Xususan, "Davrbank" XATBda mijozlarga xizmat ko'rsatishning uzoq kanallariga o'tish hamda mavjud savdo kanallarining samaradorligini oshirish orqali foizli daromadlar bilan bir qatorda, bank foizlar va komission daromadlar tarkibini optimallashtirish natijasida bank xususiy kapital rentabelligi (ROE) ko'rsatkichi 2022-yilda 34,59 foiz yoki oldingi yilga nisbatan 4,24 foizga oshgan.

2.18-jadval

O'zbekistonda tijorat banklari jami va ustav kapitali miqdori bo'yicha guruhlanishi⁸⁷

Ko'rsat kichlar nomi	Jami		shulardan:											
			100 mlrd. so'mgacha		100 dan 300 mlrd.		300 dan 500 mlrd.		500 mlrd. so'mdan 1 trln.		1 trln. so'mdan 2 trln.		2 trln. va undan yuqori	
	ban klar	summa (mlrd)	soni	ulushi, %	soni	ulushi, %	soni	ulushi, %	soni	ulushi, %	soni	ulushi, %	soni	ulushi, %
01.01.2021 y.														
Jami kapital	32	5835 1	1	0,1	9	2,3	5	2,9	4	5,1	6	14,2	7	75,3
shundan, ustav kapitali	32	4465 6	1	0,2	14	4,3	5	3,9	4	7,0%	2	7,8%	6	76,7
01.01.2022 y.														
Jami kapital	33	7091 8	2	0,1	8	2	5	3	2	2,1	8	17	8	76
shundan, ustav kapitali	33	5476 0	2	0,2	11	3	7	5	3	4	3	8	7	80
01.01.2023 y.														
Jami kapital	31	7956 5	1	0,1	5	1	4	2	5	4,5	5	10	11	82
shundan, ustav kapitali	31	5985 7	1	0,1	7	1	7	4	5	6	4	9	7	79
01.01.2024 y.														
Ko'rsat kichlar	Jami		200 mlrd. so'mgacha		200 dan 350 mlrd. so'mgacha		350 dan 500 mlrd. so'mgacha		500 mlrd. so'mdan 1 trln. so'mgacha		1 trln. so'mdan 2 trln. so'mgacha		2 trln. so'm va undan yuqori	
Jami kapital	35	9707 9	4	0,7	5	1,3	4	1,9	2	1,5	6	8,1	14	86,5
shundan, ustav k.	35	6864 3	1	0,1	10	3,4	6	3,4	4	3,3	7	13,8	7	75,9

⁸⁷ O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentni samarali tashkil etishda xususiy va qarz kapitali nisbatini bir me'yorda optimallashtirish zarur. "O'zbekiston Respublikasida 19.04.2023 yildagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartishlar kiritish haqida"gi O'RQ-831-son Qonunga muvofiq bank ustav kapitalining eng kam miqdori: 2023-yil 1-sentyabrdan e'tiboran 200 mlrd. so'mni; 2024-yil 1-apreldan e'tiboran 350 mlrd. so'mni; 2025-yil 1-yanvardan e'tiboran 500 mlrd. so'mni tashkil etishi kerakligi belgilab o'tilgan"⁹⁷ (2.18-jadval).

Yuqoridagi jadval ma'lumotlarida qayd etilganidek, O'zbekiston Respublikasida 2024-yilning 1-yanvar holatiga ustav kapitali 500 mlrd. so'mgacha bo'lgan banklar 17 tani, 2 trln. so'mdan ortiq jami kapitalga ega bo'lganlari 14 tani tashkil etgan.

Xalqaro amaliyotdan ma'lumki, kompaniyalarda strategik jihatdan moliyaviy rejalashtirish va uni nazoratini olishda moliyaviy menejmentning o'rni beqiyos hisoblanadi. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida: "iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni — 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun zamin yaratish"⁸⁸, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "“O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni hamda "“O'zbekiston — 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-300-sonli qaroriga muvofiq, "ijtimoiy sug'urta tizimini joriy etish bo'yicha, xususan, sug'urta to'lovlarini moliyalashtirishning manbalarini aniqlash, ijtimoiy sug'urta jamg'armasi mablag'lari hisobidan to'lanadigan to'lovlarni belgilash, ijtimoiy

⁸⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmoni.

sug'urta tizimi doirasidagi kafolatlangan sug'urta to'lovlari orqali norasmiy bandlikni kamaytirish va rasmiy mehnat munosabatlariga o'tishni rag'batlantirish bo'yicha vazifalar belgilab olingan"⁸⁹. Shu jihatlarni inobatga olganda, sug'urta kompaniyalarida "Moliyaviy menejment" tizimini rivojlantirish va uni optimalligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.


Sug'urta kompaniyalari sug'urta bozorida moliyaviy xizmatlarni amalga oshirib, tabiiy ofatlar (zilzila, suv toshqini, yog'in va boshqalar), har xil baxtsiz hodisalar ro'y berishi talofatni qoplovchi sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunida qayd etilganidek, "Sug'urta bozorining professional ishtirokchilarini tashkil etish va davlat ro'yxatidan o'tkazishda sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etiladi"⁹⁰. Sug'urta kompaniyalari 25-fevral 2022-yilga qadar aksiyadorlik jamiyatlari va mas'uliyati cheklangan jamiyatlar shaklida faoliyat olib borayotgan edi.

Nizom sug'urta korxonalarini faqat aksiyadorlik jamiyati sifatida tashkil etishga ruxsat berish uchun o'zgartirildi. Sug'urta operatsiyalari bo'yicha rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilda O'zbekiston Respublikasida moliyaviy xizmatlar hajmi 20 697,7 milliard so'mga oshib, 80 431,0 milliard so'mni tashkil etdi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 22,5 foizini moliyaviy xizmatlar tashkil etdi. Umumiy moliyaviy xizmatlar sektori 129,3 foizga o'sdi. Bundan tashqari, 5,871 trillion so'm yoki 7,3 foiz sug'urta xizmatlariga yo'naltirildi. Ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yil yakuniga ko'ra 47 ta sug'urta kompaniyasi 6 841 354 ta shartnoma imzolagan, bu 2020 yilning shu davriga nisbatan 115,2 foizga ko'pdir.⁹¹. Ana shu omillardan kelib chiqib, sug'urta sohasini kengaytirish va yangi sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega.

⁸⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son.

⁹⁰ O'zbekiston Respublikasining 23.11.2021 yildagi O'RQ-730-son "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.

⁹¹ <https://stat.uz/images/uploads/docs/xizmatlar12022pressuz.pdf>



2.9-rasm. Sug'urta kompaniyalari xizmatlari⁹²

Moliyaviy, investitsion va operatsion qarorlarni qabul qilish sug'urta firmalarida moliyaviy menejmentning murakkab vazifalaridan biridir. Tizimli xavf-xatarlarning oldini olish va bir vaqtning o'zida faoliyatning rentabelligini oshirish ehtimoli sug'urta kompaniyasining moliyaviy boshqaruv tizimining samaradorligi va samaradorligi bilan ortadi. Yurtimizda faoliyat olib borayotgan sug'urta kompaniyalarida ham moliyaviy menejment tizimi shakllantirilgan va uning funksiyalariga optimallashtirilmoqda. Xususan, “Kapital sug'urta” AJ SKning 2021–2022-yillar uchun moliyaviy hisoboti ma'lumotlarini quyida ko'rib chiqishimiz mumkin (2.19-jadval).

2.19-jadval

“Kapital sug'urta” AJ SKning 2021–2022-yillar uchun moliyaviy hisoboti, (ming so'm)⁹³

Ko'rsatkich nomi	2021-yil (ming so'm)		2022-yil (ming so'm)	
	Daromad (foyda)	Xarajatlar (yo'qotishlar)	Daromad (foyda)	Xarajatlar (yo'qotishlar)
Sug'urta xizmatlarini ko'rsatishdan daromadlar	79 224 990,18	0,0	115 927 041,53	0,00
Vositachilik xizmatini ko'rsatishdan daromadlar	142 515,12	0,0	309 179,57	-
Qayta sug'urta bo'yicha zararlar ulushining qoplanishi bo'yicha daromadlar	41 026,7	0,0	-	-
Qayta sug'urta bo'yicha komission mukofotlar, tantiemalar va yig'imlar bo'yicha daromadlar	4 260 762,89	-	16 799 889,85	-
Adjaster va syurveyer xizmatlarini ko'rsatishdan olingan daromadlar	0,0	0,0	-	-
Sug'urta xizmatlarini ko'rsatishdan sof tushum	83 669 294,87	0,0	133 036 110,95	0,00
Ko'rsatilgan sug'urta xizmatlarining tannarxi	0,0	67 457 351,43	0,00	95 992 155,32
Sug'urta xizmatlarini ko'rsatishdan yalpi foyda	16 211 943,44	0,00	37 043 955,63	0,00

⁹² B Toshmurodova, S.Elmirzayev, N.Tursunova. “Moliyaviy menejment”. Darslik. T.:“Iqtisod-moliya” 325 (2017).

⁹³ O'zbekiston Respublikasi istiqbolli loyihalar milliy agentligi korporativ axborot yagona portali (<https://new.openinfo.uz/home>).

Davr xarajatlari	0,0	23 098 050,16	0,00	46 918 647,16
Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	1 006 950,85	0,00	1 122 908,46	0,00
Asosiy faoliyatning foydasi (zarari)	0,0	5 879 155,87	0,00	8 751 783,07
Moliyaviy faoliyatning daromadlari	7 511 464,77	0,0	18 570 019,02	0,00
Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar	0,0	174 056,43	0,00	6 573 073,62
Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari)	1 458 252,5	0,0	3 245 162,3	0,0
Favquloddagi foyda va zararlar	0,0	0,0	0,0	0,0
Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar)	1 458 252,5	0,0	3 245 162,3	0,0
Foyda solig'i	0,0	356 449,9	-	1 603 098,21
Hisobot davrining sof foydasi (zarari)	1 101 802,5	0,0	1 642 064,1	0,0

2.19-jadval ma'lumotlarida "Kapital sug'urta" AJ SKning 2021–2022-yillar uchun moliyaviy natijalari ko'rsatib o'tilgan bo'lib, sug'urta xizmatlarini ko'rsatishdan daromadlar 2022-yilda 115,9 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 146 foizga oshgan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, davr xarajatlari ham 2 baravarga oshganligini kuzatishimiz mumkin. Sug'urta kompaniyalari uchun aktivlar va xususiy kapital rentabelligi muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida "Kapital sug'urta" AJ SKning yil yakunlari bo'yicha moliyaviy ko'rsatkichlar, aktivlar va xususiy kapital rentabelligi ko'rsatib o'tilgan (2.20-jadval).

2.20-jadval

"Kapital sug'urta" AJ SKning yil yakuni bo'yicha moliyaviy ko'rsatkichlari, (ming so'm)⁹⁴

Кўрсаткич	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
ROA (%)	0	0	7.58	2.42	0.43	1.22	0.74	0.75
ROE (%)	0	0	22.96	7.34	1.58	2.76	2.01	2.98
Сугурта захиралари - (I-шакл, 580-бет)	29 073 411	33 784 633.8	34 176 663.2	52 449 151.11	66 519 348.39	75 359 138.34	108 136 521.78	133 458 422.74
Сугурта даражаси	54.19	64.58	58.69	60.69	60.66	60.36	72.49	61.21
Капитал даражаси	28.98	28.5	32.99	32.89	27.32	44.33	36.72	25.28

2.20-jadval ma'lumotlarida "Kapital sug'urta" AJ SKning 2015–2022-yillar uchun aktivlar rentabelligi (ROA), xususiy kapital rentabelligi (ROE), sug'urta

⁹⁴ O'zbekiston Respublikasi istiqbolli loyihalar milliy agentligi korporativ axborot yagona portali (<https://new.openinfo.uz/home>).

zaxiralari va darajasi shuningdek kapital darajasi yillar kesimida ko'rsatib o'tilgan. Xususan, xususiy kapital rentabelligi (ROE)ni 2017-yilda 22,96 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda shu ko'rsatkich 2,98 foizni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin.

2.21-jadval

“O‘zagrosug‘urta” AJ SKning 2021–2022-yillar uchun moliyaviy hisoboti, (ming so‘m)⁹⁵

Ko'rsatkich nomi	2021-yil (ming so‘m)		2022-yil (ming so‘m)	
	Daromad (foyda)	Xarajatlar (yo‘qotishlar)	Daromad (foyda)	Xarajatlar (yo‘qotishlar)
Sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishdan daromadlar	154 334 598,60	0,00	203 681 383,70	0,00
Qayta sug‘urta bo‘yicha zararlar ulushining qoplanishi bo‘yicha daromadlar	833 246,60	-	424 944,60	-
Sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishdan sof tushum	155 167 845,20	0,00	204 106 328,30	0,00
Ko‘rsatilgan sug‘urta xizmatlarining tannarxi	0,00	72 004 597,10	0,00	103 049 054,30
Sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishdan yalpi foyda (zarar)	83 163 248,10	0,00	101 057 274,00	0,00
Davr xarajatlari	0,00	99 253 240,00	0,00	107 934 169,30
Asosiy faoliyatning boshqa daromatlari	14 153 027,40	0,00	8 585 846,50	0,00
Asosiy faoliyatning foydasi (zarari)	0,00	1 936 964,50	1 708 951,20	0,00
Moliyaviy faoliyatning daromatlari	17 097 687,60	0,00	18 971 397,00	0,00
Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar	0,00	5 048 182,70	0,00	3 017 177,20
Umumxo‘jalik faoliyatining foydasi (zarari)	10 112 540,4	0,0	17 663 171,1	0,0
Favquloddagi foyda va zararlar	0,0	0,0	0,0	0,0
Foyda solig‘ini to‘lagunga qadar foyda (zarar)	10 112 540,4	0,0	17 663 171,1	0,0
Foyda solig‘i	-	1 996 915,20	-	3 126 781,60
Hisobot davrining sof foydasi (zarari)	8 115 625,2	0,0	14 536 389,5	0,0

2.21-jadval ma'lumotlarida “O‘zagrosug‘urta” AJ SKning 2021–2022-yillar uchun moliyaviy natijalari ko'rsatib o'tilgan bo'lib, sug‘urta xizmatlarini

⁹⁵ O‘zbekiston Respublikasi istiqbolli loyihalar milliy agentligi korporativ axborot yagona portali (<https://new.openinfo.uz/home>).

ko'rsatishdan daromadlar 2022-yilda 203,7 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 132 foizga oshgan.

2.22-jadval

“O‘zagrosug‘urta” AJ SKning yil yakuni bo‘yicha moliyaviy ko‘rsatkichlari, (ming so‘m)⁹⁶

Кўрсаткич	2015	2016	2017	2018	2020	2020	2021	2022
ROA (%)	5.56	5.73	0	1.95	2.19	2.28	2.98	4.13
ROE (%)	16.86	18.07	0	7.46	8.96	8.55	9.69	15.07
Суғурта захиралари - (1-шакл, 580-бет)	69 291 669.3	82 403 543.2	109 704 366.9	123 740 109.6	161 953 937	162 604 363	207 652 373.7	274 244 908.7
Суғурта даражаси	55.01	55.19	57.48	53.17	57.12	55.32	76.38	77.94
Капитал даражаси	32.97	31.73	-15.68	26.21	24.48	26.67	30.81	27.42

2.22-jadval ma'lumotlarida “O‘zagrosug‘urta” AJ SKning 2015–2022-yillar uchun aktivlar rentabelligi (ROA), xususiy kapital rentabelligi (ROE), sug‘urta zaxiralari va darajasi hamda kapital darajasi yillar kesimida ko‘rsatib o‘tilgan. “O‘zagrosug‘urta” AJ SKning ROEning eng katta ko‘rsatkichi – 18,07 foiz bo‘lib, bunga 2016-yilda erishilgan.

Sug‘urta kompaniyalarida xususiy kapitalni shakllantirishda qo‘shimcha aksiyalar chiqarish amaliyoti muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda, aksiyalarning ommaviy joylashtirishning keng tarqalgan usuli sifatida IPO va SPO jarayonlarini ko‘rishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra, “birlamchi ommaviy taklif (IPO) – aksiyadorlik jamiyati (IPO tashabbuskori) tomonidan qo‘shimcha aksiyalarni cheklanmagan investorlar doirasi uchun ommaviy taklifi bo‘lsa, ikkilamchi ommaviy taklif (SPO) – aksiyador (SPO tashabbuskori) tomonidan unga tegishli bo‘lgan aksiyalarni cheklanmagan investorlar doirasi uchun ommaviy taklifi hisoblanadi”⁹⁷.

⁹⁶ O‘zbekiston Respublikasi istiqbolli loyihalar milliy agentligi korporativ axborot yagona portali (<https://new.openinfo.uz/home>).

⁹⁷ Karimov A. I. THE EXPERIENCE OF INVOLVING THE POPULATION'S FREE MONEY IN THE DEVELOPMENT OF THE SECURITIES MARKET //International Finance and Accounting. – 2020. – T. 2020. – №. 6. – S. 18.

“O‘zbekinvest” aksiyadorlik jamiyatida IPO o‘tkazish jarayonida 247 ta ariza taqdim etilgan bo‘lib, aksiyalar uchun taklif etilgan mablag‘ 18,13 milliard so‘mga yetdi. Shundan jami 14,11 mlrd. so‘mlik 100 ta ariza muvaffaqiyatli amalga oshirildi⁹⁸.

Tahlillarni davom ettirgan holda kompaniyada moliyaviy menejment tizimiga ta’sir etuvchi omillarni ekonometrik modellar orqali baholaymiz. Bunda, avvalambor, respublikadagi bank tizimining faoliyat samaradorligini yuqoriligini inobatga olgan holda tahlillarni shakllantirib olamiz (2.23-jadval).

2.23-jadval

O‘zbekistonda davlat ulushi mavjud banklarning moliyaviy ko‘rsatkichlari tahlili, (01.01.2024 yil holatiga)⁹⁹

Tijorat banklari	Sof foydasi	Kreditlar			Depozitlar			Aktivlar	Kapital
		Jami	Jismoniy shaxslar	Yuridik shaxslar	Jami	Jismoniy shaxslar	Yuridik shaxslar		
O‘zmilliybank	1716	99423	13841	85583	32920	10087	22833	127503	17849
O‘zsanoatqurilishbank	911	57124	7814	49310	13799	4440	9358	74634	8728
Agrobank	750	54483	9922	44561	15389	7043	8346	66700	12297
Asaka bank	150	39213	7960	31254	15485	3918	11567	58014	6668
Xalq banki	248	24549	15663	8886	17044	3660	13384	36603	5883
Biznesni rivojlantirish banki	236	21801	10690	11111	9419	1737	7682	27063	3180
Mikrokredit bank	21	14437	5342	9095	6361	1682	4679	19062	3934
Turon bank	57	11894	2526	9369	4662	1628	3033	15939	1897
Aloqa bank	607	10294	3081	7213	9227	3311	5916	16045	2643
Poytaxt bank	16	79	27	52	53	16	37	215	160

2.23-jadval ma’lumotlarida O‘zbekistonda davlat ulushi mavjud banklarning moliyaviy ko‘rsatkichlari tahlili aks ettirilgan. Jumladan, jami kreditlar va depozitlar bo‘yicha “O‘zmilliybank” ATBni alohida qayd etish joizdir. Shuningdek, yuqoridagi banklar bo‘yicha jami sof foyda 4,712 trln. so‘mni tashkil etgan va bunda aktivlar rentabelligi 1,07 foizni tashkil etgan.

⁹⁸ “Toshkent” respublika fond birjasi ma’lumotlari- www.uzse.uz

⁹⁹ <https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/> ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Yuqoridagi 2.23-jadval ma'lumotlaridan tijorat banklarining moliyaviy menejment tizimiga ta'sir etuvchi omillarini ekonometrik modellar orqali bahoshda kredit va depozitlarni ajratib olamiz. Regressiya koeffitsiyentining baholash vektorini aniqlab olamiz. Kichik kvadratlar usuliga ko'ra, s - vektor quyidagicha olinadi:

$$s=(X^T X)^{-1} X^T Y \quad (2.1)$$

X_j matrisasiga yagona ustun qo'shish orqali quyidagi jadvalni hosil qilamiz (2.24-jadval).

2.24-jadval

Omili ko'rsatkichlar regressiya jadvali¹⁰⁰

S	Kreditlar		Depozitlar	
	Jismoniy shaxslar	Yuridik shaxslar	Jismoniy shaxslar	Yuridik shaxslar
1	13841	85583	10087	22833
1	7814	49310	4440	9358
1	9922	44561	7043	8346
1	7960	31254	3918	11567
1	15663	8886	3660	13384
1	10690	11111	1737	7682
1	5342	9095	1682	4679
1	2526	9369	1628	3033
1	3081	7213	3311	5916
1	27	52	16	37

Yuqoridagi 2.24-jadvaldagi omili ko'rsatkichlardan matritsa Y ajratib olamiz (2.25-jadval).

2.25-jadval

Matritsa Y:

1716
911
750
150
248
236
21
57
607
16

Yuqoridagi 2.24-jadvaldagi omili ko'rsatkichlardan matritsa X^T ajratib olamiz (2.26-jadval).

¹⁰⁰ Muallif ishlanmasi.

2.26-jadval

Matritsa X^T

1	1	1	1	1	1	1	1	1	1
13841	7814	9922	7960	15663	10690	5342	2526	3081	27
85583	49310	44561	31254	8886	11111	9095	9369	7213	52
10087	4440	7043	3918	3660	1737	1682	1628	3311	16
22833	9358	8346	11567	13384	7682	4679	3033	5916	37

Yuqoridagi 2.24-jadvaldagi omilli ko'rsatkichlardan matritsa $X^T X$ ko'paytmalarini amalga oshiramiz (2.27-jadval).

2.27-jadval

Matritsalar ko'paytmasi, $(X^T X)$

10	76866	256434	37522	86835
76866	818456160	2613212974	374570558	906676240
256434	2613212974	13143363802	1624764580	3466911383
37522	374570558	1624764580	219270996	470691719
86835	906676240	3466911383	470691719	1116606393

2.27-jadval ma'lumotlaridan kelib chiqqan holda quyida teskari matritsani aniqlab olamiz (2.28-jadval).

2.28-jadval

Teskari matritsani aniqlash $(X^T X)^{-1}$

0.3907	-2.6E-5	4.0E-6	-5.7E-5	3.0E-6
-2.6E-5	0	0	0	0
4.0E-6	0	0	0	0
-5.7E-5	0	0	0	0
3.0E-6	0	0	0	0

2.28-jadval ma'lumotlaridan kelib chiqqan holda quyida regressiya koeffitsiyenti vektori ($Y(X) = (X^T X)^{-1} X^T Y$) aniqlab olamiz (2.29-jadval).

2.29-jadval

Regressiya koeffitsiyenti vektori $Y(X) = (X^T X)^{-1} X^T Y$

-51.4422
-0.0238
0.00712
0.1012
0.0165

2.29-jadval ma'lumotlaridan kelib chiqqan holda regression funktsiya quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$Y = -51.4422 - 0.0238X_1 + 0.00712X_2 + 0.1012X_3 + 0.0165X_4 \quad (2.2)$$

Regressiya koeffitsiyentlarini talqin qiladigan bo'lsak, doimiy boshqa omillarning (xi modelida hisobga olinganlardan tashqari) Y natijasiga jamlangan ta'sirini baholaydi va x_i bo'lmaganda Y -51,4422 bo'lishini bildiradi. b_1

koeffitsiyenti, x_1 1 ga oshgani sayin Y 0,0238 ga kamayadi. b_2 , x_2 1 ga oshgani sayin Y 0,00712 ga oshadi. b_3 koeffitsiyenti shuni ko'rsatadiki, x_3 1 ga oshgani sayin Y 0,1012 ga oshadi. b_4 koeffitsiyenti shuni ko'rsatadiki, x_4 1 ga oshgani sayin Y 0,0165 ga oshadi. Moliyaviy menejment tizimiga ta'sir etuvchi omillarni xususiy tijorat banklarda ekonometrik modellar orqali baholashda sof foyda va boshqa ko'rsatkichlarni quyida keltirib o'tdik (2.30-jadval).

2.30-jadval

Xususiy tijorat banklarning moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili, (01.01.2024-yil holatiga)¹⁰¹

Tijorat banklari	Sof foydasi	Kreditlar			Depozitlar			Aktivlar	Kapital
		Jami	Jismoniy shaxslar	Yuridik shaxslar	Jami	Jismoniy shaxslar	Yuridik shaxslar		
Ipoteka bank	818	37 264	21 251	16 013	17 773	4 182	13 591	47 638	7 579
Kapital bank	1629	26 586	19 022	7 564	30 102	16 009	14 093	41 866	4 226
Hamkor bank	1200	15 854	6 935	8 919	7 971	4 375	3 596	20 980	3 758
Ipak yo'li bank	740	11 701	2 486	9 215	7 991	2 763	5 228	16 866	2 752
Orient Finans bank	608	8 448	3 160	5 288	8 869	3 063	5 806	13 126	2 248
Invest Finans bank	250	6 431	2 886	3 545	7 406	3 823	3 583	9 571	1 180
Trast bank	800	4 947	2 525	2 422	6 743	1 538	5 205	9 450	2 244
O'zKDB bank	430	2 651	14	2 637	6 240	688	5 552	8 845	1 311
Asia Alliance Bank	321	3 712	1 266	2 446	6 080	1 648	4 432	8 029	845
Tenge bank	42	4 208	1 813	2 395	2 225	1 323	902	6 640	1 272
Davr bank	371	5 004	3 569	1 436	2 741	1 074	1 667	6 130	1 006
TBC bank	40	3 730	3 615	115	2 682	2 585	96	4 513	1 208
Anor bank	139,5	3 169	2 687	482	3 720	2 827	893	4 418	582
Ziraat bank	60	1 595	83	1 511	1 979	963	1 016	2 941	469
Universal bank	94	1 162	198	964	1 706	789	917	2 392	418
Oktobank	74,6	249	20	229	1 648	481	1 167	2 367	479
Garant bank	1,2	922	192	730	997	647	351	1 681	285
Apeks bank	-18,5	29	2	27	185	0,5	184	605	278
Uzum bank	38,8	50	0,0	50	10	0,0	10	472	265
Madad invest bank	34,9	292	19	273	50	29	21	336	240
Smart bank	4,9	0,3	0,3	0,0	10	10	0,1	213	203
Yangi bank	-2	46	0,0	46	3	0,6	2	200	197
AVO bank	-27	7	0,4	7	7	0,0	7	177	153

2.30-jadval ma'lumotlarida O'zbekistonda xususiy tijorat banklarining moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili aks ettirilgan. Jumladan, jami kreditlar va

¹⁰¹ <https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

depozitlar bo'yicha "Ipoteka bank" ATB va "Kapital bank" ATBni alohida qayd etish joizdir. Shuningdek, yuqoridagi banklar bo'yicha jami sof foyda 7,696 trln. so'mni tashkil etgan. Yuqoridagi 2.30-jadval ma'lumotlaridan xususiy tijorat banklarining moliyaviy menejment tizimiga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik modellar orqali bahoshda kredit va depozitlarni ajratib olamiz. Regressiya koeffitsiyentini baholash vektorni aniqlab olib, kichik kvadratlar usuliga ko'ra s-vektor quyidagicha olinadi: $s=(X^T X)^{-1} X^T Y$ (2.1)

X_j matritsasiga yagona ustun qo'shish orqali quyidagi jadvalni hosil qilamiz (2.31-jadval).

2.31-jadval

Xususiy tijorat banklarning omilli ko'rsatkichlar regressiya jadvali¹⁰²

S	Kreditlar		Depozitlar	
	Jismoniy shaxslar	Yuridik shaxslar	Jismoniy shaxslar	YSH
1	21251	16013	4182	13591
1	19022	7564	16009	14093
1	6935	8919	4375	3596
1	2486	9215	2763	5228
1	3160	5288	3063	5806
1	2886	3545	3823	3583
1	2525	2422	1538	5205
1	14	2637	688	5552
1	1266	2446	1648	4432
1	1813	2395	1323	902
1	3569	1436	1074	1667
1	3615	115	2585	96
1	2687	482	2827	893
1	83	1511	963	1016
1	198	964	789	917
1	20	229	481	1167
1	192	730	647	351
1	2	27	0.5	184
1	0	50	0	10
1	19	273	29	21
1	0.3	0	10	0.1
1	0	46	0.6	2
1	0.4	7	0	7

Yuqoridagi 2.31-jadvaldagi omilli ko'rsatkichlardan matritsa Y va X^T ni ajratib olib, omilli ko'rsatkichlardan matritsa $X^T X$ ko'paytmalarini amalga oshiramiz (2.32-jadval).

¹⁰² Muallif ishlanmasi.

2.32-jadval

Matritsalar ko'paytmasi, $(X^T X)$

23	71743.7	66314	48818.1	68319.1
71743.7	930405725.25	616770826.8	480839210	653041993.83
66314	616770826.8	549349140	301036935.1	493922095
48818.1	480839210	301036935.1	349882749.61	371487875.2
68319.1	653041993.83	493922095	371487875.2	555489851.01

2.32-jadval ma'lumotlaridan kelib chiqqan holda quyida teskari matritsani aniqlab olamiz (2.33-jadval).

2.33-jadval

Teskari matritsani aniqlash $(X^T X)^{-1}$

0.07891	9.0E-6	-9.0E-6	-9.0E-6	-6.0E-6
9.0E-6	0	0	0	0
-9.0E-6	0	0	0	0
-9.0E-6	0	0	0	0
-6.0E-6	0	0	0	0

2.33-jadval ma'lumotlaridan kelib chiqqan holda quyida regressiya koeffitsiyenti vektori $Y(X) = (X^T X)^{-1} X^T Y =$ aniqlab olamiz (2.34-jadval).

2.34-jadval

Regressiya koeffitsiyenti vektori $Y(X) = (X^T X)^{-1} X^T Y =$

-5.8476
-0.03558
0.05593
0.08656
0.03516

2.34-jadval ma'lumotlaridan kelib chiqqan holda regression funksiya quyidagi ko'rinishda bo'ladi: $Y = -5.8476 - 0.03558X_1 + 0.05593X_2 + 0.08656X_3 + 0.03516X_4$ (2.2)

Regressiya koeffitsiyentlarini talqin qiladigan bo'lsak, doimiy boshqa omillarning (xi modelida hisobga olinganlardan tashqari) Y natijasiga jamlangan ta'sirini baholaydi va x_i bo'lmaganda Y -5,8476 bo'lishini bildiradi. b_1 shuni ko'rsatadiki, x_1 1 ga oshgani sayin Y 0,03558 ga kamayadi. b_2 shuni ko'rsatadiki, x_2 1 ga oshgani sayin Y 0,05593 ga oshadi. b_3 shuni ko'rsatadiki, x_3 1 ga oshgani sayin Y 0,08656 ga oshadi. b_4 koeffitsiyenti shuni ko'rsatadiki, x_4 1 ga oshgani sayin Y 0,03516 ga oshadi. Yuqoridagi tahlillar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, tijorat banklarida jismoniy shaxslarga taqdim etiladigan kreditlarni optimallashtirish orqali sof foydani oshirish mumkin hisoblanadi.

2.3. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda kompaniyalarni moliyaviy menejment holati tahlili

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda kompaniyalarning moliyaviy menejmenti moliyaviy resurslarni rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilishni o'z ichida mujassam qilgan keng ko'lamli faoliyatni o'z ichiga oladi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda kompaniyalarni moliyaviy boshqarish murakkab va yuqori darajada tashkil etilgan jarayon bo'lib, quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi:

1. Moliyaviy rejalashtirish va prognozlash: Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardagi kompaniyalar investitsiyalarning zarur darajasini, kapital talablarini, kapitalning optimal tuzilishini va moliyaviy natijalarni prognozlashda aniqlash uchun moliyaviy modellar va hisoblash usullaridan faol foydalanadilar.

2. Aylanma mablag'larni boshqarish: Tovar-moddiiy zaxiralarni, debitorlik va kreditorlik qarzlarini boshqarish rivojlangan mamlakatlarda kompaniyalarning moliyaviy menejmentning muhim tarkibiy qismidir. Qisqa muddatli moliyaviy barqarorlikni yaxshilash uchun operatsion oqimlarni optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish uchun boshqaruv usullari qo'llaniladi.

3. Investitsion qarorlarni qabul qilish: rivojlangan mamlakatlardagi kompaniyalar aktivlar va loyihalarga sarmoya kiritish bo'yicha asosli qarorlar qabul qilish uchun investitsion jozibadorlikni baholash va risklarni tahlil qilish usullaridan faol foydalanadilar.

4. Moliyaviy risklarni boshqarish: Rivojlangan mamlakatlardagi kompaniyalar valyuta riski, foiz stavkasi riski, likvidlik riski va kredit riski kabi moliyaviy risklarni boshqarishga alohida e'tibor beradi va ularni yumshatish va boshqarish uchun turli usullar va vositalarni qo'llaydi.

Bizga ma'lumki, davlatlar jamiyat, xususan, fuqarolarning birlamchi va ikkilamchi ehtiyojlarini qondirishda aksiyadorlik jamiyati shaklidagi kompaniyalar, jumladan, transmilliy korporatsiyalarning o'rni va ahamiyati katta hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda listingdan o'tgan mahalliy kompaniyalar tahlili¹⁰³

Davlat	AQSh	Xitoy	Yaponiya	Kanada	Janubiy Koreya
Yillar	listingdan o'tgan mahalliy kompaniyalar, sonida				
2013	4180	2489	3408	3810	1798
2014	4369	2613	3458	3691	1849
2015	4381	2827	3504	3501	1948
2016	4331	3052	3535	3368	2039
2017	4336	3485	3598	3278	2114
2018	4013	3584	3652	3330	2186
2019	3910	12730	3704	3358	2262
2020	4104	12341	3754	3922	2318
2021	4774	11629	3818	3455	2383
2022	4642	11497	3865	3534	2446

Yuqoridagi 2.35-jadval ma'lumotlarida rivojlangan mamlakatlarda listingdan o'tgan mahalliy kompaniyalar soni tahlil etilgan bo'lib, eng yuqori ko'rsatkichlar AQSh va Xitoy davlatlariga tegishlidir. Jumladan, so'nggi 10 yillikda AQShda listingdan o'tgan kompaniyalar 111,05 foizga oshgan bo'lsa, Xitoyda bu ko'rsatkich 461,9 foizni tashkil etgan. Shuningdek, Yaponiyada 2013-yilda listingdan o'tgan mahalliy kompaniyalar soni 3408 tani tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 3865 tani, Kanadada 3534 tani va Janubiy Koreyada 2446 tani tashkil etgan. Qayd etish joizki, O'zbekistonda listingdan o'tgan mahalliy kompaniyalar soni 100-110 tani tashkil etadi. Mana shu jihatlarni olib qaraydigan bo'lsak, mamlakat rivojida aksiyadorlik jamiyatlarining o'rni katta hisoblanadi.

Tahlillarni navbatdagi obykti sifatida dunyo bo'yicha 2023-yilda eng katta soliqlar to'lagungacha sof foydaga ega bo'lgan aksiyadorlik kompaniyalari hisoblanadi (2.36-jadval).

¹⁰³ https://data.worldbank.org/indicator/CM.MKT.LDOM.NO?locations=1W&most_recent_value_desc=true

2.36-jadval

Dunyo bo'yicha 2023-yilda eng katta soliq to'lagungacha sof foyda (EBIT) olgan aksiyadorlik kompaniyalari tahlili, (mlrd. AQSh dollari)¹⁰⁴

Kompaniyalar	Davlat	Soliq to'lagungacha sof foyda	YaIMga nisbatan SF	31.12.2023 yil holatiga moliyaviy rentabellik ko'rsatkichlari		
				ROA	ROE	ROI
Saudi Aramco	SA	247,43	23,2%	29.37	28.71	17.73
Apple	AQSh	114,3	0,4%	29.39	156.04	73.68
Berkshire Hathaway	AQSh	100,3	0,4%	9.32	17.81	
Microsoft	AQSh	95,02	0,3%	38.40	19.33	39.01
Alphabet	AQSh	78,78	0,3%	19.02	27.22	29.60
Gazprom	Rossiya	76,74	3,8%	-2.2	-4,0	13,6
JP Morgan chase	AQSh	63,52	0,2%	1.24	15.15	9.21
Exxon mobile	AQSh	61,00	0,2%	9.72	17.28	21.45
ICBC	Xitoy	54,89	0,3%	0.66	7.83	5.74
China Construction bank	Xitoy	55,33	0,3%	0,91	11,56	28,39
Uniper	Germaniya	47,82	1,1%	0,53	2,28	2,41
Shell	Buyuk Britaniya	47,43	1,4%	4.65	10.07	14.06

Yuqoridagi 2.36-jadval ma'lumotlarida dunyo bo'yicha 2023-yilda eng katta soliq to'lagungacha sof foyda (EBIT) olgan aksiyadorlik kompaniyalari tahlili aks ettirilgan bo'lib, Saudiya Arabistonining eng yirik aksiyadorlik kompaniyasi Saudi Aramco 247,4 mlrd. AQSh dollari bilan eng yuqori o'rinda turibdi. Saudi Aramconing moliyaviy menejment tizimiga oid ko'rsatkichlaridan xususiy kapital rentabelligi – 28,71 foizni, aktivlar rentabelligi – 29,37 foizni, investitsiyalar rentabelligi – 17,73 foizni tashkil etgan. Qayd etishimiz joizki, Saudi Aramconing soliq to'lagungacha sof foydasi Saudiya Arabistonining YaIMsiga nisbatan 23,2 fozi nisbatni ko'rsatmoqda. Navbatdagi, dunyodagi EBITasi eng yuqori kompaniya bu – Apple aksiyadorlik kompaniyasi bo'lib, uning shtab-kvartirasi AQShda joylashgan. Apple kompaniyasining soliq to'lagungacha sof foydasi 114,3 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan holda, 31.12.2023 yil holatiga moliyaviy rentabellik ko'rsatkichlaridan ROE – 156,04, ROA-29,39, ROI-73,68 foizni tashkil etgandir. Shuni alohida ta'kidlash joizki, yuqoridagi top -12 Dunyo bo'yicha 2023-yilda eng katta soliq to'lagungacha sof foyda ro'yxatida 6 tasi yoki 50 foizi AQShdagi

¹⁰⁴ <https://www.macrotrends.net/> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

aksiyadorlik kompaniyalari hisoblanadi. Shuningdek, Rossiyaning yirik aksiyadorlik kompaniyasi Gazpromning natijalariga to'xtaladigan bo'lsak, 2023-yil yakunlari bo'yicha 76,74 mlrd. AQSh dollarlik soliq to'lagungacha sof foydaga ega bo'lgan. Aktivlar rentabellegi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich AQShdagi Microsoft kompaniyasiga tegishlidir.

2.37-jadval

AQShda aksiyadorlik kompaniyalari daromadi (sof tushum) ko'rsatkichlari tahlili, (mlrd. AQSh dollari)¹⁰⁵

Yillar	Walmart	Berkshire Hathaway	Alphabet	JP Morgan chase	Tesla
2013	468,7	182,2	55,5	106,7	2,0
2014	476,3	194,7	66,0	103,0	3,2
2015	485,6	210,9	74,9	101,0	4,1
2016	482,1	215,1	90,3	106,4	7,0
2017	485,9	239,9	110,9	114,6	11,8
2018	500,3	247,8	136,8	129,8	21,5
2019	514,4	254,6	161,9	142,5	24,6
2020	523,9	245,6	182,5	129,9	31,5
2021	572,5	276,2	257,6	127,2	53,8
2022	611,3	302,0	282,8	154,8	81,5
2023	648,1	364,5	307,4	239,4	96,7

Yuqoridagi 2.37-jadval ma'lumotlarida AQShda aksiyadorlik kompaniyalari daromadi (sof tushum) ko'rsatkichlari tahlil etilgan bo'lib, eng yuqori ko'rsatkich Walmart kompaniyasiga tegishlidir. Walmart kompaniyasining 2013-yildagi sof tushumi 468,7 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 648,1 mlrd. AQSh dollari yoki oldingi yilga nisbatan 106,02 foiz oshgandir. Shuningdek, navbatdagi tahlillar obyekti Berkshire Hathaway kompaniyasi hisoblanib, uning daromadi 2023-yil natijalari bo'yicha 364,5 mlrd. AQSh dollarida bo'lgan. Qayd etish joizki, yuqori dinamik o'zgarishga ega bo'lgan kompaniya Tesla hisoblanib, uning daromadi 2013-yilda 2,0 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 96,7 foizni yoki kuzatilgan davrda 4835 foizga oshgandir.

Tahlillar davomida yuqoridagi 2.37-jadvalda qayd etilgan aksiyadorlik kompaniyalari sof foydasi ko'rsatkichlari quyida aks ettirilgandir (2.38-jadval).

¹⁰⁵ <https://www.macrotrends.net/> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

2.38-jadval

AQShda aksiyadorlik kompaniyalari sof foydasi ko'rsatkichlari tahlili, 9mlrd.**AQSh dollari)¹⁰⁶**

Yillar	Walmart	Berkshire Hathaway	Alphabet	JP Morgan chase	Tesla
2013	16,9	19,5	12,7	16,5	-0,07
2014	16,0	19,9	14,1	20,1	-0,29
2015	16,4	24,1	15,8	22,7	-0,88
2016	14,7	24,1	19,5	22,8	-0,77
2017	13,6	44,9	12,6	22,6	-2,2
2018	9,7	4,0	30,7	30,7	-1,1
2019	6,8	81,4	34,3	34,6	-0,77
2020	14,9	42,5	40,2	27,4	0,7
2021	13,5	89,9	76,0	46,5	5,5
2022	11,7	-22,7	59,9	35,9	12,6
2023	15,5	96,2	73,7	47,8	14,9

Yuqoridagi 2.38-jadval ma'lumotlarida AQShda aksiyadorlik kompaniyalari sof foydasi ko'rsatkichlari tahlili aks ettirilgan bo'lib, 2023-yil natijlariga ko'ra eng yuqori ko'rsatkich Berkshire Hathaway kompaniyasiga tegishlidir. Bizga ma'lumki, Berkshire Hathaway kompaniyasi investitsion kompaniya hisoblanib, 2013-yilda uning sof foydasi 19,5 mlrd. AQSh dollarini va 2022-yilda sof zarari 22,7 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan. 2022-yildagi Berkshire Hathaway kompaniyasining yo'qotishlariga asosiy sabablaridan biri Paramount kompaniyasiga kiritilgan sarmoya hisoblanadi. Shuningdek, 2023-yilda Alphabet kompaniyasining sof foydasi 123,03 foizga, JP Morgan Chaseda 133,15 foizga, Teslada 118,25 foizga, Berkshire Hathawayda 423,79 foizga, Walmartda 132,48 foizga oshgandir. Mana shu tahlilda ham sof foyda bo'yicha dinamik tempga ega bo'lgan kompaniya Tesla aksiyadorlik kompaniyasi hisoblanadi.

AQShdagi eng nufuzli kompaniyalardan biri bu, albatta, Apple kompaniyasi hisoblanadi. Quyida Apple kompaniyasining moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili aks ettirilgan (2.39-jadval)


¹⁰⁶ <https://www.macrotrends.net/> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

2.39-jadval

Apple kompaniyasining moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili, (mlrd. AQSh dollari)¹⁰⁷

Yillar	Sof tushum	Yalpi daromad	Operativ foyda	Sof foyda	EBITDA	EBIT
30.09.2013	170,9	64,3	48,9	37,0	55,8	48,9
30.09.2014	182,8	70,5	52,5	39,5	60,5	52,5
30.09.2015	233,7	93,6	71,2	53,4	82,5	71,2
30.09.2016	215,6	84,3	60,0	45,7	70,5	60,0
30.09.2017	229,2	88,2	61,3	48,4	71,5	61,3
30.09.2018	265,6	101,8	70,9	59,5	81,8	70,9
30.09.2019	260,2	98,4	63,9	55,3	76,5	63,9
30.09.2020	274,5	104,9	66,3	57,4	77,3	66,3
30.09.2021	365,8	152,8	108,9	94,7	120,2	108,9
30.09.2022	394,3	170,8	119,4	99,8	130,5	119,4
30.09.2023	383,2	169,2	114,3	96,9	125,8	114,3

Yuqoridagi 2.39-jadval ma'lumotlarida Apple kompaniyasining sof tushum, yalpi daromad, operativ foyda, sof foyda, EBITDA va EBIT ko'rsatkichlari tahlil etilgan bo'lib, yil yakuni sifatida 30-sentyabr sanasi olingan. Jumladan, 30.09.2013 yil bo'yicha Apple kompaniyasining sof tushumi 170,9 mlrd. AQSh dollarini, 30.09.2023 yil holatiga 383,2 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan. Apple kompaniyasining yalpi daromad 2023-yilda 1,009 mlrd. AQSh dollariga kamaygan.



2.10-rasm. Apple kompaniyasining EPS tahlili, (AQSh dollari)¹⁰⁸

¹⁰⁷ <https://www.macrotrends.net/> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



2.11-rasm. Apple kompaniyasining aksiyalari bozor bahosi tahlili, (AQSh dollari)¹⁰⁹

Yuqoridagi 2.11-rasm ma'lumotlarida Apple kompaniyasining aksiyalari bozor bahosi tahlil etilgan bo'lib, 2012-yilda uning qiymati 30 AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 180 AQSh dollaridan oshgan.



2.12-rasm. Apple kompaniyasining aksiyalarining bozor bahosida o'zgarishi tahlili, (%da)¹¹⁰


Yuqoridagi 2.12-rasm ma'lumotlarida Apple kompaniyasining aksiyalari bozor bahosi o'zgarishi tahlili etilgan bo'lib, 2012-yilga nisbatan 2023-yilga 2000 foizga oshgandir.

¹⁰⁸ <https://www.macrotrends.net/> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

¹⁰⁹ <https://www.macrotrends.net/> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

¹¹⁰ <https://www.macrotrends.net/> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Apple kompaniyasida moliyaviy menejment, ko‘plab muvaffaqiyatli kompaniyalarda bo‘lgani kabi, tashkilot barqarorligi va farovonligini ta’minlashda asosiy rol o‘ynaydi.



2.13-rasm. Apple kompaniyasining rentabellik ko‘rsatkichlari tahlili, (%da)¹¹¹

Apple kompaniyasida moliyaviy menejmentning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Byudjetlashtirish va rejalashtirish: Apple prognozlash va byudjetlashtirish bilan faol shug‘ullanadi, bu esa kompaniyaning strategik maqsadlaridan kelib chiqib, xarajatlarni optimallashtirish va moliyani boshqarishga yordam beradi.

2. Aylanma kapitalni boshqarish: Apple kapitalning maqbul taqsimlanishini ta’minlash va qisqa muddatli moliyaviy quvvatni yaxshilash uchun o‘z qarzlari, inventarlarini va kreditlarini nazorat qiladi.

3. Investitsion qarorlar: Faol investitsiya strategiyasi orqali Apple yuqori sifatli investitsiyalar va aktivlarni boshqarishni talab qiladigan yangi mahsulotlar va texnologiyalarni ishlab chiqish orqali raqobatdosh ustunlikni yaratish va saqlab qolishga intiladi.

¹¹¹ <https://www.macrotrends.net/> ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

4. Moliyaviy nazorat va hisobot: Apple qat'iy moliyaviy nazoratni qo'llab-quvvatlaydi va investorlar hamda manfaatdor tomonlarni moliyaviy operatsiyalarining barqarorligi va shaffofligini ta'minlash uchun yuqori hisobot standartlariga bo'ysunadi.

5. Risklarni boshqarish: Global kompaniya sifatida Apple valyuta riski, operatsion risk va likvidlik xavfi kabi turli moliyaviy risklarni faol ravishda boshqaradi.

Bundan tashqari, Apple kompaniyasining moliyaviy yetakchiligi va nazorati aksiyadorlar qiymatini yaratish va kompaniyaning barqaror o'sishiga hissa qo'shadigan qo'shilish va qo'shib olish, kapital xarajatlar va dividendlar kabi strategik moliyaviy qarorlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Umuman olganda, Apple moliyaviy menejmenti o'z biznesining murakkab, ko'p qirrali va muhim jihati bo'lib, tez o'zgaruvchan texnologiya bozorida kompaniyaning moliyaviy barqarorligiga hissa qo'shadi.

Tadqiqotimiz davomida, Xitoyda aksiyadorlik kompaniyalari daromadi (sof tushum) ko'rsatkichlari tahlilini alohida qayd etib o'tdik (2.40-rasm).

2.40-jadval

Xitoyda aksiyadorlik kompaniyalari daromadi (sof tushum) ko'rsatkichlari tahlili, (mlrd. AQSh dollari)¹¹²

Yillar	Weibo	Hello Group	China Automotive Systems	Qifu Technology	NetEase
2013	0,188	0,003	0,415	-	1,519
2014	0,334	0,044	0,466	-	1,887
2015	0,477	0,133	0,443	-	3,520
2016	0,655	0,553	0,462	-	5,498
2017	1,150	1,318	0,499	0,044	8,315
2018	1,178	1,950	0,496	0,646	9,767
2019	1,766	2,444	0,431	1,324	8,509
2020	1,689	2,302	0,417	2,078	11,289
2021	2,257	2,287	0,497	2,610	13,747
2022	1,836	1,841	0,529	2,400	13,990
2023	1,759	1,690	0,576	2,294	14,573

¹¹² <https://www.macrotrends.net/> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Yuqoridagi 2.40-jadval ma'lumotlarida Xitoyda aksiyadorlik kompaniyalari daromadi (sof tushum) ko'rsatkichlari tahlil etilgan bo'lib, eng yuqori ko'rsatkich NetEase kompaniyasiga tegishlidir. NetEase kompaniyasining 2013-yildagi sof tushumi 1,519 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 14,573 mlrd. AQSh dollari yoki oldingi yilga nisbatan 104,31 foizga oshgandir. Shuningdek, navbatdagi tahlillar obyekti Weibo kompaniyasi hisoblanib, uning daromadi 2023-yil natijalari bo'yicha 1,759 mlrd. AQSh dollarida bo'lgan. Qayd etish joizki, yuqori dinamik o'zgarishga ega bo'lgan kompaniya Hello Group hisoblanib, uning daromadi 2013-yilda 0,003 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 1,69 mlrd. AQSh dollarini yoki kuzatilgan davrda 56 333 foizga oshgandir.

Tahlillar davomida yuqoridagi 2.40-jadvalda qayd etilgan aksiyadorlik kompaniyalari sof foydasi ko'rsatkichlari quyida aks ettirilgan (2.41-jadval).

2.41-jadval

Xitoyda aksiyadorlik kompaniyalari sof foydasi ko'rsatkichlari tahlili, (mlrd. AQSh dollari)¹¹³

Yillar	Weibo	Hello Group	China Automotive Systems	Qifu Technology	NetEase
2013	-0,039	-0,017	0,026	-	0,734
2014	-0,065	-0,083	0,033	-	0,766
2015	0,034	0,013	0,027	-	1,039
2016	0,108	0,145	0,022	-	1,671
2017	0,352	0,318	-0,019	-0,024	1,645
2018	0,571	0,409	0,002	-0,276	0,894
2019	0,494	0,426	0,009	0,359	3,050
2020	0,313	0,322	-0,004	0,535	1,848
2021	0,428	-0,457	0,011	0,904	2,645
2022	0,085	0,215	0,021	0,580	2,948
2023	0,342	0,275	0,037	0,601	4,143

Yuqoridagi 2.41-jadval ma'lumotlarida Xitoyda aksiyadorlik kompaniyalari sof foydasi ko'rsatkichlari tahlili aks ettirilgan bo'lib, 2023-yil natijlariga ko'ra eng

¹¹³ <https://www.macrotrends.net/> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

yuqori ko'rsatkich NetEase kompaniyasiga tegishli bo'lib, uning qiymati 4,14 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan.

2.42-jadval

Yaponiyada aksiyadorlik kompaniyalari daromadi (sof tushum)

ko'rsatkichlari tahlili, (mlrd. AQSh dollari)¹¹⁴

Yillar	Toyota	Mitsubishi UFJ	Sony	Honda	Mizuho Financial
31.03.2013	234,6	55,6	72,3	119,5	34,6
31.03.2014	256,9	49,9	77,7	118,4	25,1
31.03.2015	247,8	47,4	74,8	121,3	27,7
31.03.2016	235,7	51,4	67,3	121,2	25,5
31.03.2017	256,7	51,3	70,7	130,2	30,6
31.03.2018	264,4	52,5	76,9	138,3	30,3
31.03.2019	272,0	58,3	77,9	142,9	30,9
31.03.2020	275,4	66,8	75,9	137,4	31,8
31.03.2021	255,8	54,5	84,6	123,8	32,8
31.03.2022	279,3	51,4	88,3	129,5	18,8
31.03.2023	274,9	66,2	85,4	125,1	31,7
31.03.2024	311,2	79,5	89,8	140,9	57,1

Tadqiqotimiz davomida, Yaponiyada aksiyadorlik kompaniyalari daromadi (sof tushum) ko'rsatkichlari tahlilini alohida qayd etib o'tdik (2.42-rasm).

Yuqoridagi 2.42-jadval ma'lumotlarida Yaponiyada aksiyadorlik kompaniyalari daromadi (sof tushum) ko'rsatkichlari tahlil etilgan bo'lib, eng yuqori ko'rsatkich Toyota kompaniyasiga tegishlidir. Toyota kompaniyasining 2013-yildagi sof tushumi 234,6 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 311,2 mlrd. AQSh dollari yoki oldingi yilga nisbatan 113.2 foiz oshgan.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar

O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment kompaniyalarning barqaror rivojlanishini ta'minlash va ularning aksiyadorlar uchun qiymatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Bunga moliyaviy faoliyatni rejalashtirish, nazorat qilish va tahlil qilish, shuningdek, resurslar va risklarni boshqarish uchun strategik qarorlar qabul qilish kiradi.

¹¹⁴ <https://www.macrotrends.net/> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Tahlillar natijasida ayon bo'ldiki, rivojlangan mamlakatlardagi kompaniyalar aktivlar va loyihalarga sarmoya kiritish bo'yicha asosli qarorlar qabul qilish uchun investitsion jozibadorlikni baholash va risklarni tahlil qilish usullaridan keng foydalanadilar. Shu jihatlar aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlari, xususan, ROE, ROA, ROI larga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Moliyaviy menejment tizimiga ta'sir etuvchi omillarni xususiy tijorat banklarda ekonometrik modellar orqali baholashda sof foyda va boshqa ko'rsatkichlarni tanlab olgan holda, jismoniy shaxlar bo'yicha kredit resurslarini optimallashtirish lozimligini aniqladik.

Moliyaviy, investitsion va operatsion qarorlarni qabul qilish aksiyadorlik sug'urtasi korxonalarida moliyaviy boshqaruvning murakkab vazifalaridan biridir.

Tizimli xavflarni kamaytirish va operatsion rentabellikni oshirish ehtimoli uning optimal va samarali tashkil etilishi bilan ortadi.

Xulosa qilganda, O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment kompaniyalarning barqaror rivojlanishini ta'minlash va aksiyadorlar uchun ularning qiymatini oshirishda muhim o'rin tutadi.

III BOB. O‘ZBEKISTONDA AKSIYADORLIK JAMIYATLARI- NING MOLIYAVIY MENEJMENTNI ZAMONAVIY MODELLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

3.1. Aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy menejmentini zamonaviy modellar asosida rivojlantirish yo‘nalishlari


Bizga ma’lumki, jahon miqyosida iqtisodiyotni modernizatsiyalashuvi hamda keskin globallashuv jarayoni, o‘z navbatida, transmilliy kompaniyalarga, xususan, aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyatiga ham keng ta’sirini o‘tkazadi. Xalqaro va mahalliy kompaniyalarning moliyaviy ko‘rsatkichlarini tahlil etib, shunga iqrar bo‘ldikki, barcha turdagi resurslarni optimal boshqarish orqali faoliyat davomiyligini va daromadliligini ta’minlash mumkin. Zero, mana shu holatda moliyaviy menejment modellaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Iqtisodchilarning ilmiy izlanishlarida ta’kidlanishicha, “Korxonani resurs bilan ta’minlashning asosiy tarkibiy qismi moliya, shuning uchun moliyaviy menejment xo‘jalik yurituvchi subyektni umumiy boshqaruv tizimining ajralmas qismi sifatida faoliyatida alohida o‘rin tutadi shu bilan birga barqaror rivojlanishni ta’minlaydi”¹¹⁵. Fikrimizcha, aksiyadorlik jamiyatlarida, xususan, mahalliy korxonalarda operativ moliyaviy menejment unumdorligini ta’minlashda Biz tomondan taklif etilayotgan ilmiy jihatdan asoslangan zamonaviy modellardan foydalanish muhim ahamiyatga egadir.

Moliyaviy menejment samaradorligi va uni yanada rivojlantirish aksiyadorlik jamiyatlarida mulkdor, ya’ni aksiyadorning manfaatini ifoda etadi.

Moliyaviy menejment yoki uning sub'ektlari, moliyaviy menejerlar uzoq muddatli va qisqa muddatli strategik rejalashtirish, moliyaviy munosabatlar va korporatsiya ichidagi nazorat uchun mas'ul bo'lganligi sababli, ular ijobiy xulosani kafolatlaydi. Shu nuqtayi nazardan, dunyodagi rivojlangan mamlakatlarda kompaniya boshqaruvida moliyaviy menejment tayanch yoki “yurak-qon tomir” vazifasini bajaradi. Xususan, aksiyadorlik jamiyatlarimizda moliyaviy

¹¹⁵Дьяков С.А., Вовк Е.А., Деркач В.Н., Калитка В.В. Совершенствование системы финансового менеджмента предприятия в цифровой экономике // ЕГИ. 2023. №45 (1). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sovershenstvovanie-sistemy-finansovogo-menedzhmenta-predpriyatiya-v-tsifrovoy-ekonomike> (дата обращения: 01.02.2024).

menejrlarning “alohida o‘rni” quyida keltirib, qo‘shimcha tarzda takliflar berib o‘tganmiz (3.1-rasm).



3.1-rasm. Aksiyadorlik jamiyatlarimizda moliyaviy menejrlarning faoliyati¹¹⁶

Yuqoridagi 3.1-rasm ma’lumotlarida aksiyadorlik jamiyatlarimizda moliyaviy menejrlarning faoliyati bayon etilgan bo‘lib, bizningcha, kompaniya bozor bahosini oshirish, kompaniyaga FINTECHni keng joriy etish, ehtimoliy zararlarni va risklarni sun’iy intellekt orqali baholash va moliya institutlari bilan keng integratsiyani ta’minlash umumiy faoliyatni yanada rivojlantiradi.

O‘zbekistonda aksiyadorlik jamiyati shaklidagi biznes subyektlarning faoliyatini samarali tashkil etishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yilning 28-fevralidagi PF–27-son farmonida qayd etilganidek, “Iqtisodiyotni, shu jumladan, sanoatning yetakchi tarmoqlarini yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish. 2024–2026-yillarda ustav kapitalida davlat ulushi mavjud transformatsiya qilinadigan aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga ESG (Environment, Social, Governance)ni

¹¹⁶ Muallif ishlanmasi.

joriy etish”¹¹⁷, shu o‘rinda bayon etamizki, dunyoda moliyaviy xarajatlar va resurslarni zamonaviy konsepsiyasida atrof-muhit, jamiyat hamda korporativ boshqaruv uyg‘unligiga erishish orqali samarali boshqarishda moliyaviy menejment alohida ahamiyat kasb etadi.

Tahlillardan ayon bo‘ldiki, dunyoda mamlakatlar aholisini ijtimoiy-iqtisodiy farovonligida aksiyadorlik jamiyatlarining ahamiyati yuqori bo‘lib, shu o‘rinda milliy kompaniyalarimizning faoliyati ham diqqatga sazovor (3.1-jadval).

3.1-jadval

O‘zbekiston iqtisodiyotida kompaniyalar faoliyati tahlili¹¹⁸

Ko‘rsat kichlar /Yillar	Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (yillik)	Faoliyat ko‘rsatayot gan AJ soni (yillik)	Yalpi ichki mahsulot hajmi (ishlab chiqarish usulida, joriy narxlarida, yillik), trln. so‘m	Jumladan	
				Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (ishlar,xizmatlar) hajmi, trln. so‘m	AJ va boshqa biznes subyektlarida mahsulot (ishlar,xizmatlar) hajmi, trln. so‘m
2013-yil	241201	1232	153,3	93,4	59,9
2014-yil	246687	1090	186,8	115,6	71,2
2015-yil	257758	715	221,4	143,0	78,4
2016-yil	268428	659	255,4	170,6	84,8
2017-yil	285531	606	356,5	232,8	123,7
2018-yil	323517	603	473,7	295,6	178,1
2019-yil	398133	593	594,7	333,0	261,7
2020-yil	475197	599	668,0	366,1	301,9
2021-yil	528929	607	820,5	443,9	376,6
2022-yil	592371	629	995,6	515,7	479,9
2023-yil	485024	625	1192,2	610,4	581,8


Yuqoridagi jadval ma’lumotlarida O‘zbekiston iqtisodiyotida kompaniyalar faoliyati tahlil etilgan bo‘lib, jumladan, 2023-yilda jami 485024 ta subyektdan 625 tasi aksiyadorlik jamiyati shaklidagi mahsulot yoki xizmatlar yaratgan. Shuningdek, respublikada kichik tadbirkorlik subyektlarining ham faoliyatini alohida qayd etishimiz joizdir, ya’ni 2013-yilda ular tomonidan 93,4 trln. so‘mlik mahsulot (ish,xizmat)lar yaratilgan bo‘lsa, 2023-yilda 610,4 trln. so‘mlik yoki so‘nggi 11 yilda 6,5 barobarga oshgan. Shu jihatlarni inobatga olganda, kichik

¹¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yilning 28-fevralidagi PF-27-son “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 02.03.2023-y., 06/23/27/0121-son; 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son; 29.12.2023-y., 06/23/216/1008-son.

¹¹⁸ www.stat.uz asosida muallif ishlanmasi.

tadbirkorlik subyektlari hisoblangan mikrofirmalar, mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi tarmoqlardagi korxonalarni aksiyadorlik jamiyati shakliga bosqichma-bosqich o‘tkazish, albatta, bu jarayonda iqtisodiy-institutsional o‘zgarishlarni, qonunlarni, mamlakat soliq tizimini yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etishini qayd etish joizdir.

Tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, xorijiy kompaniyalarda mulkining xususiyligi yoki institutsional investorlar tomonidan erkin boshqarilishi pul oqimlaridan samarali foydalanishga keng imkoniyat yaratish bilan birgalikda, xarajatlarni optimallashtirishga ham sezilarli ta’sirini ko‘rsatadi. Bu, albatta, butun moliyaviy menejment tizimini tezkorligini va samaradorligini ta’minlaydi. Milliy iqtisodiyotimizdagi aksiyadorlik jamiyatlarida davlatning ulushi yuqoriligicha qolishi, bizning fikrimizcha, bozor iqtisodiyotining tezkor o‘zgarishlariga yoki tendensiyalariga to‘loqonli javob bera olmay qo‘ladi. Xususan, quyida O‘zbekistonning aksiyadorlik jamiyatlarida ulush bo‘yicha egalari ko‘rsatib o‘tilgan (3.2-rasm).



3.2-rasm. 01.01.2024 yil holatiga aksiyadorlik jamiyatlarida qiymat bo‘yicha egalik qilish, (%da)¹¹⁹

Yuqoridagi 3.2-rasm ma’lumotlarida 2024-yilning 1-yanvar holatiga milliy aksiyadorlik jamiyatlarida ustav kapital qiymati bo‘yicha aksiyadorlar ko‘rsatib o‘tilgan. Xususan, jami 625 ta aksiyadorlik jamiyatining aksiyalar nominal qiymati 186,9 trln. so‘mni tashkil etadigan bo‘lsa, shundan davlat 158,2 trln. so‘mlik,

¹¹⁹ Markaziy depozitoriy ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

xo‘jalik boshqaruvi organlari 3,8 trln. so‘mlik, xorijiy egalar 8,8 trln. so‘mlik qiymatga ega bo‘lgan.

3.2-jadval

Davlat ishtirokidagi AJlarda xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish bo‘yicha belgilangan vazifalar¹²⁰

T/r	Tashkilot nomi	Sotiladigan <ulush miqdori<br=""></ulush> (foizda)	Ommaviy savdolar	
			Sotish shakli	Muddati
Professional konsultantlarni jalb qilgan holda xalqaro bozorda ommaviy savdolarga chiqariladigan aksiya paketlari (ulushlari)				
1.	“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ	51	Ommaviy savdolar	2025-yil II chorak
2.	“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ	100	Ommaviy savdolar	2024-yil IV chorak
3.	“O‘zbekinvest” EISK” AJ	79,4	Ommaviy savdolar	2025-yil I chorak
4.	“O‘zagrosug‘urta” AJ	94,5	Ommaviy savdolar	2025-yil I chorak
Xalqaro fond bozorida aksiyalarining birlamchi (IPO) va (yoki) ikkilamchi (SPO) ommaviy taklifi o‘tkaziladigan davlat ishtirokidagi yirik korxonalar				
5.	“Navoiy KMK” AJ	1-5	IPO	2025-yil III chorak
6.	“Olmaliq KMK” AJ	1-5	IPO	2025-yil IV chorak
7.	“O‘zbekgidroenergo” AJ	1-5	SPO	2025-yil II chorak
8.	“O‘zbektelekom” AJ	1-5	IPO	2025-yil IV chorak

Yuqoridagi 3.2-jadval ma’lumotlarida O‘zbekiston Respublikasidagi aksiyadorlik jamiyati shaklidagi korxonalarda rejalashtirilayotgan davlat ulushini qisqartirish bo‘yicha chora-tadbirlar bayon etilgan. Xususan, “Issiqlik elektr stansiyalari” AJlarning 51 foizi, “Dehqonobod kaliy zavodi” AJning 100 foizlik ulushi fond birjasi orqali 2024–2025-yillarda ommaviy savdolarga chiqarilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, “O‘zbekinvest” EISK” AJning 79,4 foizi va “O‘zagrosug‘urta” AJning 94,5 foizida 2025-yilning yanvar-mart oylarida aksiyalarining ommaviy savdosi amalga oshiriladi. IPO va SPolar orqali esa,

¹²⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 19.04.2024 yildagi “Davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni transformatsiya qilish va xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–163-son. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.04.2024-y., 07/24/163/0300-son.

“Navoiy KMK” AJ, “Olmaliq KMK” AJ, “O‘zbekgidroenergo” AJ, “O‘zbektelekom” AJning 5 foizigacha bo‘lgan oddiy aksiyalari realizatsiyasi amalga oshiriladi. Shu jihatlarni inobatga olib, davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarida xususiylashtirish jarayonlarini samarali tashkil etish va uni jadallashtirishda e‘tiborga molik nuqtalardan biri moliyaviy menejment shu bilan birga uning modellarining unumdorligini oshirishdir. Bizga ma‘lumki, davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy menejmenti tijorat va ijtimoiy manfaatlar uyg‘unligi tufayli alohida yondashuvni talab qiladi. Biz tomonimizdan davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy menejmentiga oid tavsiyalar sifatida quyidagilarni bayon etsak bo‘ladi (3.3-rasm).



3.3-rasm. Davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy menejmentiga oid tavsiyalar¹²¹

¹²¹ Muallif ishlanmasi.

Yuqorida qayd etilgan takliflar, fikrimizcha, davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlariga o'z mablag'larini samarali boshqarish va o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini amalga oshirishda, moliyaviy boshqaruv tizimining optimalligini kafolatlashda yordam beradi. Bundan tashqari, ushbu kontekstda "zamonaviy moliyaviy boshqaruv modellari"ning ahamiyatini ta'kidlash juda muhimdir.

Zamonaviy moliyaviy menejment modellari – bizningcha aksiyadorlik jamiyatlariga xususiy va qarz kapitalni yuqori saviyada boshqarishga hamda ilmiy asoslangan strategiyalarni va taktik qarorlarni qabul qilishga keng yordam beradigan metod-usullar, shuningdek, yondashuvlar hisoblanadi. Quyida ulardan bir nechta keltirib o'tilgan:

1. Aksiyadorlarga qiymat yaratish: Aksiyadorlar uchun kompaniya qiymatini boshqarish modeli kompaniya kapitallashuvini maksimal darajada oshirishga qaratilgan. Bu moliyaviy menejmentga aksiyadorlar uchun kuchli daromad keltiradigan investitsiyalarga e'tibor qaratishga yordam beradi.

2. Muvozanatga asoslangan moliyaviy ko'rsatkichlarga erishish. Mazkur holatda aksiyadorlik jamiyatlari strategik va taktik jihatdan rejalashtirilgan missiyalarga erishish bo'yicha umumiy ko'rsatkichlarni o'lchash, baholash qaratilgan kompleks tizimga asoslangan metodologiya ishlab chiqiladi.

3. Byudjetlashtirishni samarali tashkil etish. Bu model barqaror rivojlanish va moslashuvchan byudjetni boshqarish tamoyillariga asoslanadi. An'anaviy yillik byudjet o'rniga kompaniyalar tez o'zgaruvchan biznes muhitiga mos keladigan yanada moslashuvchan moliyaviy rejalarni ishlab chiqishda qo'l keladi.

4. Real qiymatlarga tayangan boshqaruv usuli. Shu model aksiyadorlik jamiyatlarida real qiymatlar yaratishni o'lchash va boshqarishga qaratilgan. U boshqaruv samaradorligini, investitsiya samaradorligini, qarz va kapitalni baholash usullarini o'z ichiga oladi.

5. Risklarni boshqarish - moliyaviy menejmentning bir shakli bo'lib, moliyaviy risklarni, jumladan, operatsion, bozor, kredit va obro'-e'tibor muammolarini aniqlash, baholash va nazorat qilishni ta'kidlaydi.

6. Aksiyadorlik jamiyatida aylanma ichki kapitalni boshqarish samarasini oshirish. Moliyaviy menejment modeli aylanma ichki kapitalni boshqarishda likvidlikning maqbul darajasiga erishishi, jami xarajatni minimall holga olib kelishiga yo‘naltirilgandir.

O‘zining chiqarilgan aksiyalarini (yoki qaytarib sotib olingan aksiyalarni) sotib olish kompaniya tomonidan muomaladagi aksiyalar sonini kamaytirish orqali moliyaviy mustahkamlikni yaxshilash uchun ishlatilishi mumkin. Bu aksiya daromadning oshishiga va kompaniyaning moliyaviy ko‘rsatkichlarining yaxshilanishiga olib kelishi mumkin. Ushbu yondashuv aksiyadorlar nazoratini susaytirishning oldini olish va qimmatli qog‘ozlarni dushmanona egallab olishdan himoya qilish uchun ham ishlatilishi mumkin. Biroq, bunday strategiya kompaniyaning hozirgi moliyaviy holati va uning uzoq muddatli istiqbollari nuqtayi nazaridan ham diqqat bilan baholanishi kerak.

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy barqarorlik va yuqori o‘sish ko‘rsatkichlarini ta‘minlashda moliyaviy menejmentning zaomonaviy modellaridan foydalanish bir qator omillarga bo‘g‘liq bo‘lib, ularni samarali amalga oshirish soha rivojiga katta hissa qo‘shadi.


Moliyaviy menejmentning zamonaviy modellari aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejmentni rivojlantirishning bir qancha asosiy yo‘nalishlarini taklif etadi. Quyida shu sohalardan ba‘zilari keltirilgan:

Birinchisi, tahlil vositalarini qo‘llash. Analitik vositalar va modellarni, jumladan moliyaviy tahlil, aksiyalarni baholash modellari, statistik usullar va biznesga asoslangan investitsiya qarorlarini qabul qilish tartib-qoidalarini qo‘llash zamonaviy aksiyadorlik jamiyati moliyaviy boshqaruvida yuqori baholanadi.

Ikkinchisi, aylanma kapitalni boshqarish. Qayd etish joizki, moliyaviy menejmentning modellari aylanma kapital menejmentiga keng e‘tibor qaratadi.

Uchinchidan, moliyaviy xatarlarni samarali xedjerlash. Moliyaviy risklarni boshqarishga, shu jumladan, valyuta riskini, foiz stavkasi riskini, qimmatli qog‘ozlar riskini va operatsion riskni boshqarish tizimlarini ishlab chiqishga katta ahamiyat qaratadi. To‘rtinchidan, moliya bozorlarining globallashtirish integratsion

hamkorligi. Aksiyadorlik jamiyatlari dunyodagi yetakchi moliya bozorlari bilan o‘zaro moliyaviy integratsiyalash aloqalasini o‘rnatishga harakat qiladi. Beshinchidan, texnologiya va avtomatlashtirishdan foydalanish. Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy moliyaviy modellar boshqaruv qarorlarini takomillashtirish, optimallashtirish uchun ERP tizimlari kabilardan keng foydalaniladi. Oltinchidan, moliyaviy jarayonlarni samarali menejmenti. Tashqi makroiqtisodiy vaziyatdan kelib chiqib, moliyaviy menejmentning zamonaviy modellari barqarorlik va muntazamlilik hosil etadi.



3.4-rasm. Aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy menejmentini zamonaviy modellar asosida rivojlantirish yo‘nalishlari¹²²

¹²² Muallif ishlanmasi.

Moliyaviy tahlilni rivojlantirish korxonalarga ma'lumotlar va prognozlar asosida to'g'ri qaror qabul qilishda yordam beradi, moliyaviy risklarni boshqarish moliyaviy yo'qotishlarni minimallashtirishga yordam beradi, raqamli texnologiyalarni joriy etish esa moliyaviy boshqaruv tartib-qoidalarini takomillashtirish, moliya bo'limining shaffofligi va samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy menejmentini zamonaviy modellar asosida rivojlantirishning shu yo'nalishlari korxonalarga moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish, operatsion samaradorlikni oshirish va zamonaviy ishbilarmonlik muhitida yanada yaxshi natijalarga erishishga yordam beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ayta olamizki, aksiyadorlik jamiyatida, jumladan, mahalliy kompaniyalarda moliyaviy menejment zamonaviy modeli moliyaviy boshqaruvni har tomonlama takomillashtirishga, jami resursini optimallashtirishga, jamiyatdan manfaatdor shaxslarni ehtiyojlarini qondirishga hissa qo'shadi va uni barcha sohalarda qo'llash hozirgi davr talabidir.

Zamonaviy moliyaviy boshqaruv modellarining afzalliklari quyidagilardan iborat:

Aniqroq qaror qabul qilish strategiyalari: zamonaviy moliyaviy boshqaruv modellari ko'plab o'zgarishlar va omillarni hisobga olgan holda ma'lumotlarga asoslangan qaror strategiyalarini qabul qilish uchun murakkab vositadan foydalanadi.

Resurslarni boshqarishni optimallashtirish: moliyaviy boshqaruv modeli moliyaviy resurslarni yanada samarali boshqarish, ko'proq pul tejash va puldan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Shaffof qarorlar: moliyaviy menejmentning zamonaviy shakllari ma'muriy jarayonning shaffofligi va ravshanligini oshiradi, to'g'ri nazorat va xatarlarni boshqarishga yordam beradi.

Yuqori bashoratli aniqlik: zamonaviy moliyaviy menejment modellarining tahliliy vositalari ma'lumotlar va tendensiyalarni tahlil qilish asosida kelajakdagi

moliyaviy ko'rsatkichlarni aniqroq bashorat qilish imkonini beradi, bu esa qarorlar sifatini yaxshilaydi.

Xatarlarni yaxshiroq boshqarish: moliyaviy boshqaruvning zamonaviy usullari xavflarni yanada samarali aniqlash va baholashni osonlashtiradi, bu esa risklarni boshqarish rejalarini yaratishga imkon beradi.

Bozorga tez moslashish: ishlab chiqilgan moliyaviy menejment modellari moslashuvchanligi sababli reaktiv bozor tendensiyalariga tez va aniq moslasha oladi, aksiyadorlik jamiyatlarida hosil bo'lgan muammo yoki imkoniyatli vaziyatga tezroq aks-sado berish imkonini beradi.

Zamonaviy moliyaviy menejment modellari kompaniya moliyasini boshqarish uchun kuchli vosita bo'lishiga qaramasdan, ularda ma'lum kamchiliklar va cheklovlar ham mavjud. Quyida ulardan bir nechta keltirib o'tilgan:

Murakkablik va xarajat: Zamonaviy moliyaviy boshqaruv modellarini amalga oshirish ko'pincha ularni amalga oshirish va saqlash uchun vaqt, pul va malakali xodimlarni o'z ichiga olgan katta resurslarni talab qiladi.

Natijalarning aniq emasligi yoki yuqori xatolilik: Moliyaviy boshqaruv modellari natijalar uchun keng ko'lamli talqinlarni o'z ichiga oladi, ular rejalashtirilgan boshqaruv qarorlarining samaradorligi va samaradorligini baholashda qarama-qarshilik va nomuvofiqliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Kelajak bashorati yetarli ilmiy yechimini topmaganligi: hozirgi moliyaviy menejment modellari globallashtirish bilan birga siyosiy xavflar, tez o'zgaruvchan bozor iqtisodiyotida aniqlikni cheklashi tayindir.

Inflyatsiyani tahmin qilish va xatolarni tahmin qilish: cheklangan ma'lumotlar mavjudligi va inson noaniqligi sababli, moliyaviy boshqaruv modellarini qo'llash ba'zan inflyatsiyani tahmin qilish va xatolarni kiritishga olib kelishi mumkin. O'zgarishlarga moslashishdagi cheklovlar: ba'zi modellar tez o'zgaruvchan biznes muhitiga moslashish uchun yetarlicha moslashuvchan bo'lmasligi mumkin, bu ularni amalda muvaffaqiyatli amalga oshirilishini qiyinlashtirishi mumkin.

Modellarning sun'iyliigi: modelga asoslangan qarorlarni haddan tashqari standartlashtirish va avtomatlashtirishda muhim inson omillari va sezgi yo'qolishi mumkin, bu ham haqiqiy vaziyatning buzilgan ko'rinishiga olib kelishi mumkin.

Bu kamchiliklar moliyaviy boshqaruvning zamonaviy modellari qimmatli emas degani emas. Buning o'rniga, ular ma'lum bir vaziyatda ularning cheklovlari va afzalliklarini hisobga olgan holda qo'llanilishini diqqat bilan baholash muhimligini ta'kidlaydilar.

O'zbekiston o'z iqtisodiyotini jadal rivojlantirayotganiga qaramay, moliyaviy menejment sohasida mamlakatdagi korxona va tashkilotlar duch keladigan bir qancha muammolar mavjud:

1. Moliyalashtirish manbalarini cheklanganligi: ko'pgina aksiyadorlik jamiyatlari, jumladan, kichik biznes, kapitallashtirish imkoniyatining cheklanganligi oqibatida biznesini kengaytirishga qiynalmoqda.

2. Samara aylanma mablag'larni boshqarish: ko'pgina kompaniyalar o'z aylanma mablag'larini, jumladan, ish haqi, inventar va kreditorlik qarzlarini boshqarishda muammolarga duch kelishadi.

3. Moliyaviy savodxonlikning yo'qligi: tadbirkorlarning moliyaviy savodxonligining yo'qligi biznesni samarali rejalashtirish va moliyaviy qaror qabul qilishni qiyinlashtirishi mumkin.

4. Zamonaviy moliyaviy vositalardan foydalanilmayotganligi: moliyaviy boshqaruv imkoniyatlari va vositalari, masalan, risklarni boshqarish, prognozlash va ma'lumotlarni tahlil qilish O'zbekiston tashkilotlarida har doim ham samarali qo'llanilmaydi.

5. Byurokratik jarayonlardagi qiyinchiliklar: byurokratik murakkablik va moliyaviy ruxsatnomalar va litsenziyalarni olishning uzoq jarayoni O'zbekistonda biznes jarayonlarini sekinlashtirishi mumkin.

6. Beqaror moliyaviy bozorlar: milliy valyutalar va moliya bozorlarining beqarorligi kompaniyalar uchun, ayniqsa, xorijiy hamkorlar bilan biznes aloqalari mavjud bo'lganlar uchun qo'shimcha xavf va noaniqlikni keltirib chiqaradi.

Moliyaviy boshqaruvning mana shu muammolariga qarshi kurashish O'zbekiston korxona va tashkilotlariga yanada barqaror hamda samarali rivojlanish imkonini beradi. Yuqoridagi fikr va mulohazalarni, ilmiy asoslangan takliflarni aksiyadorlik jamiyatlarida, jumladan, milliy kompaniyalarimizda keng qo'llash milliy iqtisodiy rivojlanishga yuqori hissa qo'shadi, deb o'ylaymiz. Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy moliyaviy texnologiyalardan foydalanish, albatta, hozirgi zamon talabi ekanligini rivojlangan mamlakatlardagi tajribasidan ma'lumdir shuningdek bu bo'yicha keyingi qismda tegishli takliflar shakllantirdik.

3.2. Milliy aksiyadorlik kompaniyalarida moliyaviy menejmentni samarali tashkil qilishda zamonaviy moliyaviy texnologiyalarning istiqbollari

Aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy menejmentini zamonaviy modellar asosida rivojlantirish yo'nalishlarini ilmiy tadqiq etish jarayonida yuqorida qator takliflar keltirib o'tdik. Shu jumladan, kompaniyalarda moliyaviy resurslarining menejmentida raqamlashtirishni keng qo'llash va moliya institutlari bilan integratsiya qilish muhimligini qayd etib o'tdik. Mazkur jihatlarni inobatga olganda, milliy aksiyadorlik kompaniyalarida moliyaviy menejmentni samarali tashkil qilishda zamonaviy moliyaviy texnologiyalar joriy etish yo'nalishlarini yanada kengroq va aniqroq taqdim etish muhimdir.

Milliy iqtisodiyotdagi aksiyadorlik jamiyatlarida faoliyat barqarorligini ta'minlash va yuqori samaradorlikka erishish uchun har qanday moliyaviy resurslar samarali ishlatilishi lozim. Shuni alohida qayd etish joizki, respublikamizda "iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni – 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kirish uchun zamin yaratish"¹²³ bo'yicha vazifalar belgilab olingan. Mana shu jihatlarni

¹²³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 110

inobatga olganda, kompaniyalarni raqamlashtirish va ularda “Moliyaviy menejment” tizimini rivojlantirish hamda uni optimalligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaymiz.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va unga innovatsiyalar olib kirishda raqamli texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘zning Oliy Majlisga Murojaatnomasida bayon etganidek, “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi”¹²⁴. Biz tadqiqotimizning bir qismi, aynan, aksiyadorlik kompaniyalariga raqamli texnologiyalarni, xususan, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish orqali resurslar unumdorligini oshirish bo‘lgani uchun ushbu yo‘nalishda qator ilmiy ishlarni organdik va AQSh yoki Xitoy korxonalarini rivojlanishida ilg‘or texnikalarning ulushi kattaligini qayd etdik.

Raqamli iqtisodiyot davr talabi bo‘lib uni iqtisodiyotni barcha sohalarida qo‘llash zarur. Raqamli iqtisodiyotni qo‘llashda uni qay darajada samara berishi muhimdir. Erishilgan samarani raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga yo‘naltirish, uni jadal o‘rishini kafotlaydi¹²⁵. Ushbu jihatlar va tafsilotlar barcha aksiyadorlik jamiyatlarini raqamlashtirishga undaydi. Zero, iqtisodiy yuksalish hozirda “digital” yoki raqamli borliqdadir.

Ma’lumki, har qanday aksiyadorlik jamiyatining asosiy vazifasi o‘z ixtiyoridagi cheklangan moliyaviy va nomoliyaviy resurslardan unumli foydalangan holda mijozlarning cheksiz talablarini qondirishga harakat qilgan holda tovar va xizmatlar yetkazib berishdan iborat. Shuningdek, moliyaviy faoliyatni iqtisodiy jarayonining bir qismi sifatida aksiyadorlik jamiyatlarini ko‘rishimiz mumkin. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aksiyadorlik jamiyatini operativ

29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son; 10.02.2023 y., 06/23/21/0085-son.

¹²⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi /Sh.M.Mirziyoyev. - Toshkent: «Tasvir» nashriyot uyi, 2020. - 72 b.

¹²⁵ Muxtarov B.A., G‘oyibnazarov A.F. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy samaradorlikning o‘ziga xos xususiyatlari. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 2022-yil. 1(2), 117–119.

faoliyati barqarorligini ta'minlashda moliyaviy faoliyat asosiy ahamiyat kasb etadi. Bizga ma'lumki, kerakli moliyaviy resursni jalb etmasdan, mablag'larni samarali taqsimlamay turib, ijobiy-salbiy pul va valyuta oqimlarini to'g'ri baholamasdan, aksiyadorlik jamiyatining faoliyatini barqarorligini ta'minlashga erisha olmaymiz. Shuning uchun moliyaviy faoliyat korxonaning umumiy moliyaviy-iqtisodiy jarayonining bir qismi sifatida ajralib turadi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy-xo'jalik faoliyatini raqamli transformatsiyalash ularga o'z mablag'larini yanada samarali boshqarish imkonini beradi. Zero, moliyaviy ma'lumotlarni elektron formatda to'plash, saqlash va tahlil qilish, moliyaviy operatsiyalarni tezroq va aniqroq kuzatishda raqamli texnologiyalarning o'rni beqiyosdir.

Raqamli transformatsiya yangi narsa emas, lekin zamonaviy texnologiyalar tezroq takomillashmoqda, yangi texnologiyalarga moslashish jarayoni ko'pincha madaniy, operatsion yoki hatto texnik to'siqlar tufayli kechiktiriladi. Aksiyadorlik jamiyatlari endi raqamli biznesning yangi modellari, xizmatlarini va raqamli qo'shimcha qiymatlarni qo'shish orqali raqobatdoshlaridan oldinda bo'lish uchun tezkorlikni kuchaytirishga intilmoqda.

Moliyaviy texnologiyalar moliya bozorining jadal rivojlanayotgan segmenti hisoblanib, banklar, innovatsion tashkilotlar, sug'urta tashkilotlari va boshqa tashkilotlar tomonidan o'z ishlarida keng qo'llaniladi. Moliyaviy texnologiyalar moliya sektoridagi innovatsiyalarni o'rganish va joriy etishda yuqori samaradorlik va operatsion samaradorlikni ta'minlaydi. Moliyaviy sektorda yangi tashkil etilgan tashkilotlardan tashqari, banklar, moliyaviy xizmatlar provayderlari, moliyaviy tahlil va hisobot markazlari va boshqalar kabi an'anaviy moliya institutlari ma'lumotlar bazalaridan hisobotlarni yig'ish, tahlil qilish, boshqarish va ishlab chiqarish uchun ushbu texnologiyalardan keng foydalanadilar. Mana shu yangi tashkil etilgan tashkilotlar moliya sohasidagi innovatsiyalar va texnologik o'zgarishlarni o'rganish va joriy etish bilan faol shug'ullanadi.

Boshqa moliyaviy sektor korxonalari moliyaviy texnologiyalardan keng foydalanadi. Moliyaviy texnologiyalar moliya sektorining samaradorligi va samaradorligini oshirishga, shuningdek, iqtisodiyot yo'nalishidagi keyingi o'zgarishlarga sezilarli hissa qo'shadi. Bu ma'lumotlar moliya sektorida har ikkisi ham sanoatni rivojlantirishda muhim rol o'ynab (raqamli) texnologiyalar sohasida shakllangan.

Zamonaviy moliyaviy jarayonlar, shuningdek, moliyaviy menejment amaliyotlarini qayta shakllantirish moliyaviy texnologiyalarning (FinTech) ortib borayotgan ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Tez texnologik o'zgarishlar: FinTech yechimlari moliyaviy faoliyatni amalga oshirish usulini o'zgartiradi.

Global biznes muhiti: Globallashuv davrida kompaniyalar dinamik va murakkab muhitda ishlaydi.

Samaradorlik va avtomatlashtirish: FinTech muntazam moliyaviy vazifalarni avtomatlashtirish, xatolarni kamaytirish va moliyaviy jarayonlar samaradorligini oshirish imkoniyatlarini taklif etadi. Ma'lumotlar tahlili va qarorlar qabul qilish: Moliyaviy texnologiyalar katta hajmdagi moliyaviy ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish imkonini beradi. Risklarni boshqarish: FinTechning moliyaviy menejmentga integratsiyalashuvi xavflarni baholash va kamaytirish uchun yangi vositalarni joriy qiladi. Kapitalga kirish va moliyaviy inklyuziya: FinTech moliyaviy xizmatlardan foydalanishni demokratlashtirish, kompaniyalarni kapitalning muqobil manbalari bilan ta'minlash imkoniyatiga ega. Normativ landshaft: FinTechning ortib borayotgan mashhurligini tartibga soluvchi tekshiruvlarga sabab bo'ldi. Korxonalarda moliyaviy menejmentni tashkil etishda moliyaviy texnologiyalarni keng jalb etish istiqbollari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar bir qancha asosiy muammolarni hal qiladi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy-xo'jalik faoliyatini raqamli o'zgartirish moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish va raqamli platformalarda


qaydlarni yuritish orqali yanada samarali boshqaruvni amalga oshirish ko'zda tutilgan. Moliyaviy-xo'jalik faoliyatining raqamli transformatsiyasi aksiyadorlik jamiyatlariga raqamli davrga moslashish va raqobatdosh ustunlikka erishish imkonini beradi. Tezroq, samaraliroq va shaffof moliyaviy boshqaruvni ta'minlash orqali kompaniyalar yaxshiroq qarorlar qabul qilish va muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini yaratadilar. Bundan tashqari, raqamli transformatsiya xarajatlarni kamaytirishi va samaradorlikni oshirishi mumkin.

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarini raqamli o'tkazish jarayonida bir qator jihatlarga e'tiborni qaratish juda muhim. Bularga tadbirkorlik faoliyati yo'nalishi, biznesni rivojlantirish imkoniyatlari, tovar va xizmatlarni standartlashtirish va boshqa strategik ahamiyatga ega tartib-qoidalar kiradi.

V.K.Bhalla "Yangi texnologiyalar va yengillashtirilgan qoidalar institutsional muhitni o'zgartirmoqda. Moliyaviy bozorlar o'zgaruvchan bo'lib, foiz stavkalari juda qisqa muddatli davrda keskin yuqoriga yoki pastga siljishi mumkin. Moliya sohasidagi muhim va tezkor rivojlanish va qarorlar qabul qilish muhitida yangi nazariyalarni qo'llash moliya menejerlari uchun yangi muammolar va imkoniyatlarni keltirib chiqaradi. Mazkur o'zgarishlar va ularning ta'sirini bilish zamonaviy biznes firmalarining samarali boshqaruvi va moliyaviy barqarorligi uchun zarurdir. Moliyaviy menejerlar qanchalik samarali qarorlar qabul qilish mumkinligini bilishlari va samarasiz qarorlardan qochishlari kerak"¹²⁶. Qayd etamizki, moliyaviy texnologiya yoki FinTech – moliyaviy xizmatlar, boshqaruv jarayonlari va mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni yaxshilash uchun moliya sanoatida qo'llaniladigan keng ko'lamli innovatsion texnologiyalardir.

Moliyaviy texnologiyalarning aksiyadorlik jamiyatlaridagi iqtisodiy mohiyatining ba'zi asosiy jihatlari quyida keltirib o'tilgan (3.5-rasm).

¹²⁶ Bhalla V.K. "Financial Management". India.: S. Chand Publishing. 2008. 1069 p.



3.5-rasm. Moliyaviy texnologiyalarning aksiyadorlik jamiyatlaridagi iqtisodiy mohiyati¹²⁷

Yuqoridagi rasm ma'lumotlarida moliyaviy texnologiyalarning aksiyadorlik jamiyatlaridagi innovatsion rivojlanishdagi, samaradorlikni oshirishdagi hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi asosiy jihatlari aks ettirilgan.

Yuqorida aytib o'tilganidek, "moliyaviy texnologiya" (FinTech) atamasi banklar tomonidan moliyaviy xizmatlarni samarali tashkil etish, operatsion vazifalarni yaxshilash va birinchi navbatda moliyaviy boshqaruvni maksimal darajada oshirish uchun qo'llaniladigan zamonaviy AKT va ilovalar kabi turli xil texnologiyalarni o'z ichiga oladi. Quyida moliyaviy texnologiyalarning aksiyadorlik jamiyatlarida qo'llashning bir nechta asosiy turlari bayon etilgan:

¹²⁷ Muallif ishlanmasi.

1. Aksiyadorlik jamiyatlarining mahsulot va xizmatlariga mobil to'lovlarni, online bank tolovlarini yoki webbanking to'lovlarini amalga oshirish. Mobil bank ilovalari, web to'lov tizimi kabi texnologiyalardan moliyaviy tranzaksiyalarni amalga oshirishda keng foydalansa bo'ladi.

2. Aksiyadorlik jamiyatlarining personal uchun raqamli hamyonlar va elektron to'lov tizimlari: PayPal, Apple Pay, Google Pay va boshqalar kabi pul mablag'larini saqlash va elektron to'lovlarni amalga oshirish vositalari xodimlar faoliyatida keng ahamiyatga egadir.

3. Kredit berish va kraudfunding: Aksiyadorlik firmalari xususiy investorlardan qarz beradigan, qarz beradigan va pul yig'adigan moliyaviy texnologiyalardan foydalangan holda o'z tashabbuslarini samarali moliyalashtira oladi.

4. Investitsiya texnologiyalari orqali aksiyadorlik jamiyatlarining egasiga aylanish: Qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilish uchun onlayn platformalar, investitsiya va aktivlarni boshqarish bo'yicha robot-maslahatchilar, xususiy investorlar uchun investitsiya ilovalari aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlarini sotib olish imkoniyatini beradi.

5. Blokcheyn va kriptovalyutalar: aksiyadorlik jamiyatlari uchun raqamli valyutalar va markazlashmagan taqsimlangan registrlar asosidagi texnologiyalar, xavfsiz va shaffof moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi.

6. Moliyaviy tahlil jarayonlarini sun'iy intellekt orqali avtomatlashtirish: sun'iy intellekt algoritmlari orqali moliyaviy tahlil tizimlarini samarali yo'lga qo'yish moliyaviy menejment operativligini oshiradi.

Qayd etilganidek, zamonaviy moliyaviy texnologiyalar (fintech) kompaniyalarda moliyaviy menejmentni optimallashtirish va samarali tashkil etishda asosiy rol o'ynaydi. Umuman olganda, hozirgi kundagi xorijiy amaliyotda eng zamonaviy moliyaviy texnologiyalar quyidagilardan iborat (3.3-jadval).

Xorijiy amaliyotda biznesni samarali tashkil etishdagi eng zamonaviy moliyaviy texnologiyalar¹²⁸

Zamonaviy moliyaviy texnologiyalar	Qoʻllaniladigan soha	Natija
QuickBooks, Xero, NetSuite, 1C, Sage Intacct, FreshBooks, Thomson Reuters CS	Buxgalteriya jarayonlarini avtomatlashtirish	Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish uchun dasturiy ta'minotdan foydalanish, bu vaqt xarajatlarini kamaytiradi va xatolar ehtimolini kamaytiradi
ERP, 1C SMART, AccountsIQ, Professional Suite	Korporativ xarajatlarni boshqarish tizimlari	Xarajatlarni nazorat qilishni optimallashtirish va korporativ kartalarni boshqarish imkonini beruvchi yechimlar. Ular sizning xarajatlaringizni kuzatib borish va byudjetlaringizni qondirishga yordam beradi
Cloud computing, ePromis ERP Cloud,	Barcha yoʻnalishlarda	Bulutli texnologiyalar moliyaviy ma'lumotlarga istalgan vaqtda va istalgan qurilmadan kirishni osonlashtiradi. Bu ko'proq moslashuvchanlik va ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlaydi.
Tableau, Power BI kabi BI (Business Intelligence) vositalari	Big Data Analytics	Katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish strategik qarorlar qabul qilishda yordam beradigan naqsh va tendentsiyalarni aniqlash imkonini beradi
ChatGPT, Julius AI, DataLab, BlazeSQL, Echobase, Microsoft Power BI, Polymer	Moliyaviy tahlil	Sun'iy intellekt kredit tahlili, risklarni boshqarish va prognozlash kabi jarayonlarni avtomatlashtirishi mumkin, bu esa ko'proq xabardor qaror qabul qilishga olib keladi
Stripe, PayPal	To'lov tizimlari va elektron hamyonlar	Stripe va PayPal kabi vositalar to'lovlarni qabul qilish va qayta ishlashni osonlashtiradi, bu esa pul oqimini yaxshilashga yordam beradi
Blockchain	Shartnomalar tuzish	Blokcheyn texnologiyasi tranzaksiyalarning yuqori darajadagi xavfsizligi va shaffofligini ta'minlaydi. U shartnomalar va hisob-kitoblarni boshqarish uchun ishlatilishi mumkin
Robo-maslahatchilar	Barcha yoʻnalishlarda	Ushbu vositalar investitsiyalarni boshqarish va rejalashtirishda, portfellarni optimallashtirish va xavfni kamaytirish uchun algoritmardan foydalanishda yordam berishi mumkin
KPI, ERP	Mobil qurilmalar uchun moliyaviy dastur	Mobil yechimlar real vaqt rejimida xarajatlarni kuzatish, byudjetlarni boshqarish va moliyaviy ma'lumotlarga kirish imkonini beradi, bu esa boshqaruvni yaxshilaydi


Yuqoridagi 3.3-jadval ma'lumotlarida xorijiy amaliyotda eng zamonaviy moliyaviy texnologiyalarning kompaniyalarda qoʻllanilish yoʻnalishlari keltirib oʻtilgan. Jumladan, QuickBooks, Xero, NetSuite kabi texnologiyalar Buxgalteriya jarayonlarini avtomatlashtirishda, Julius AI, DataLab, BlazeSQL moliyaviy tahlilda keng foydalanib kelinmoqda.

128

<https://www.unite.ai/ru/ai-tools-data-analysts/>,
ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

<https://research.com/software/best-accounting-software>

O‘zbekistonda biznes muhitini yaxshilash uchun keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, moliyaviy texnologiyalarni kompaniyalarga olib kirish bo‘yicha ham salmoqli ishlar bajarilmoqda. Shuningdek, mahalliy biznes subyektlari tomonidan hozirgi kunda keng qo‘llaniladigan biznesni avtomatlashtirish yoki raqamlashtirish texnologiyalari quyida keltirib o‘tilgan (3.6-rasm).




3.6-rasm. Milliy kompaniyalarda keng qo‘llaniladigan texnologiyalar¹²⁹

Yuqoridagi 3.6-rasm ma’lumotlarida mahalliy amaliyotda keng foydalaniladigan texnologiyalar keltirib o‘tilgan. Shu texnologiyalar hozirgi kunda aksiyadorlik jamiyatlari va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy-moliyaviy faoliyatida keng qo‘llanilib, yuqori samara berib kelmoqda.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, hozirgi davrda moliyaviy texnologiyalarning aksiyadorlik jamiyatlarida faoliyati qadrini yuqori baholay olishimiz mumkin.

¹²⁹ <https://billz.io/blog/avtomatizatsiya-biznesa-v-uzbekistane-obzor>, <https://1solution.uz/events/articles/avtomatizatsiya-bukhgalterskogo-uchyeta-v-uzbekistane/> ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.




3.7-rasm. Moliyaviy menejmentni samarali tashkil qilishda zamonaviy moliyaviy texnologiyalarning qo‘llash yo‘nalishlari¹³⁰

Moliyaviy jarayonlarni avtomatlashtirish – FinTech yechimlaridan foydalanish to‘lovlarni qayta ishlash, xarajatlar va daromadlarni hisobga olish, aylanma mablag‘larni boshqarish kabi keng ko‘lamli moliyaviy operatsiyalarni avtomatlashtirish imkonini beradi. Bu jarayonlarni soddalashtirishga va xatolik xavfini kamaytirishga yordam beradi. Shuningdek, robotik jarayonlarni avtomatlashtirish: moliyaviy boshqaruvda robotlashtirilgan jarayonlarni avtomatlashtirishdan (RPA) foydalanish buxgalteriya hisobi va ma’lumotlarni tahlil qilish kabi muntazam faoliyatni avtomatlashtirish orqali samaradorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. Kiberxavfsizlikning ortishi kompaniyaning moliyaviy manfaatlarini kiber tahdidlardan himoya qilishga yordam beradi moliyaviy menejment sohasidagi kompaniyalar uchun bu sohada samaradorlikni oshirish, shaffoflik va innovatsion rivojlanishni ta’minlaydi.

O‘zbekistonda moliyaviy menejmentni tashkil etishda moliyaviy texnologiyalarni (FinTech) keng jalb etish muhim istiqbolga ega va mamlakat uchun qator muhim afzalliklarni keltirib chiqarishi mumkin: 1. Moliyaviy inklyuzivlikni rag‘batlantirish: FinTechni moliyaviy boshqaruvga jalb qilish aholining kengroq qismi, jumladan, kichik va o‘rta korxonalar (KO‘B) uchun moliyaviy inklyuzivlikni oshirishi mumkin, bu bilan iqtisodiy o‘rishni rag‘batlantirish va moliyaviy inklyuziya darajasini oshirish mumkin. 2. Moliyaviy

¹³⁰ Muallif ishlanmasi.

jarayonlarning shaffofligi va samaradorligini oshirish: FinTech yechimlaridan foydalanish moliyaviy operatsiyalarning shaffofligini oshirishga yordam beradi.



3.8-rasm. Milliy aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy texnologiyalarni joriy etishdagi muammolar¹³¹

Yuqoridagi muammolarni aniqlash va tushunish moliyaviy texnologiyalar (FinTech) va moliyaviy menejment o'rtasidagi murakkab munosabatlar haqida keng qamrovli tushunchalarni ishlab chiqish uchun juda muhimdir. Xulosa qilib aytganda, kompaniyalarda moliyaviy menejmentni tashkil etishda moliyaviy texnologiyalarni keng jalb qilish istiqbollari bo'yicha tadqiqotlar FinTechni o'z moliyaviy operatsiyalariga integratsiya qilishning murakkabliklarini yo'lga qo'yishga intilayotgan korxonalar uchun qimmatli tushunchalar berish uchun shu muammolarni hal qilishi kerak.

“O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va iqtisodiyotni rivojlantirishda moliyaviy menejmentning o‘rni va ahamiyati juda muhim. Moliyaviy boshqaruv tizimi korporativ tuzilmalarning moliyaviy faoliyatini rivojlantirish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, moliyaviy risklarni boshqarish va investitsiyalarni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega”¹³². Diversifikatsiyada moliyaviy menejmentning roli ham juda muhim.

Usullar korporativ tuzilmalarning moliyaviy faoliyatini yanada rivojlantirishga yordam beradi.

¹³¹ Muallif ishlanmasi.

¹³² https://www.imv.uz/media/document_files/uzbekistan-report-development-strategy-2022-2026-final-noember-2022-pdf.pdf

Moliyaviy menejmentning rivojlanishi va o'ziga xosligi uchun muhim bo'lgan bilimlarni rivojlantirish ham muhimdir. O'zbekistonda moliyani boshqarishning nazariy va iqtisodiy asoslarini o'rganish, moliyani boshqarish mexanizmini takomillashtirish va xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasidan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu bilimlar moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish va moliyaviy islohotlarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Investitsiyalar barqarorligini ta'minlash va ulardan samarali foydalanishda moliyaviy menejmentning o'ziga xos ahamiyati bor. Joriy boshqaruv mexanizmlari va moliyaviy boshqaruvning samarali usullarini qabul qilish, ijodiy fikrlash va texnik yutuqlarni qo'llash, boshqaruv samaradorligini oshirish O'zbekiston iqtisodiyotining o'sishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'zbekistonda iqtisodiyotni rivojlantirishda moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish, zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish, innovatsion g'oyalar va texnologik ishlanmalardan foydalanish muhim vazifalardandir.

Kompaniyalar ichida moliyaviy menejmentni tashkil etishda moliyaviy texnologiyalarni (FinTech) keng jalb qilish istiqbollari faoliyat samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. FinTech moliyaviy ma'lumotlarga real vaqt rejimida ma'lumot berish orqali ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishni osonlashtiradi. Bu menejmentga moliyaviy strategiyalarni tashkilot maqsadlari bilan uyg'unlashtirib, ongli va o'z vaqtida qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

FinTech yechimlarining keng joriy etilishi moliyaviy xizmatlar va boshqaruv vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu inklyuzivlik moliyaviy menejment faqat ayrimlar bilan chegaralanib qolmasdan, balki turli tashkiliy darajalarda mavjud bo'lishini ta'minlaydi va hamkorlik va shaffoflikni ta'minlaydi.

FinTechni moliyaviy menejmentga tatbiq etish potensial xarajatlarni tejash imkoniyatlarini taqdim etadi. Ma'lumotlarni kiritish va solishtirish kabi muntazam vazifalarni avtomatlashtirish keng qo'l mehnatiga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi, bu esa iqtisodiy samaradorlikka olib keladi. FinTech yechimlari o'zgaruvchan

bozor sharoitlari va tartibga soluvchi muhitlarga moslashishni namoyish etadi. Mazkur texnologiyalardan foydalanadigan kompaniyalar noaniqliklarni yengish va moliyaviy strategiyalarini rivojlanayotgan muammolarni hal qilish uchun moslashtirish uchun yaxshiroq joylashadilar.

Kompaniyalar barcha darajadagi xodimlar FinTech vositalaridan foydalanishni yaxshi bilishlarini ta'minlash uchun keng qamrovli o'quv dasturlariga sarmoya kiritishlari kerak. Bu texnologiyalardan olinadigan foydani maksimal darajada oshiradi va uzluksiz ta'lim madaniyatini rivojlantiradi. FinTech yechimlarining mavjud moliyaviy tizimlar bilan uzluksiz integratsiyalashuvi juda muhimdir. Kompaniyalar muvofiqlikni diqqat bilan baholashlari va moliyaviy operatsiyalarda uzilishlarga yo'l qo'ymaslik uchun silliq integratsiya jarayoniga harakat qilishlari kerak. FinTech asosan raqamli platformalarga tayanganligi sababli, kiberxavfsizlik bo'yicha mustahkam choralar ko'rish zarur. Kompaniyalar maxfiy moliyaviy ma'lumotlarni himoya qilish, shifrlash protokollarini joriy etish va xavfsizlik infratuzilmasini muntazam yangilab turish uchun kiberxavfsizlikni birinchi o'ringa qo'yishi kerak. Texnologiyaning dinamik tabiatini hisobga olgan holda, kompaniyalar FinTech sohasidagi so'nggi ishlanmalardan xabardor bo'lishlari kerak.

Kompaniyalar maxsus tajribadan foydalanish uchun FinTech provayderlari bilan strategik hamkorlikni o'rganishlari mumkin. Hamkorlik muayyan tashkilot ehtiyojlariga mos keladigan, sinergik munosabatlarni rivojlantiruvchi moslashtirilgan yechimlarga olib kelishi mumkin.

FinTech-ning moliyaviy boshqaruvga ta'sirini muntazam ravishda monitoring qilish va baholash juda muhimdir. Kompaniyalar asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini (KPI) yaratishi va shu texnologiyalarning samaradorligini baholash va kerakli tuzatishlarni kiritish uchun davriy baholashlarni o'tkazishi kerak. Xulosa qilib aytganda, FinTechning moliyaviy menejmentga keng integratsiyalashuvi kompaniyalar uchun istiqbolli istiqbollarga ega.

3.3. O‘zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy menejmentida korporativ boshqaruv tizimini samarali tashkil etish yo‘nalishlari

Bizga ma’lum bo‘ldiki, aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy menejmentida zamonaviy moliyaviy texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlari shaklidagi biznes faoliyatning yana bir o‘ziga xos jihati, albatta, bu korporativ boshqaruv tizimi hisoblanadi.

Iqtisodchilar ta’kidlaganidek, “Korporativ boshqaruv bu – biznesning tashkiliy - huquqiy rasmiylashtirilishini, tashkiliy strukturalarning optimallashtirishini boshqarish, qabul qilingan maqsadlarga muvofiq kompaniyada ichki va tashqi firma munosabatlarini tashkil qilishdir. Korporativ boshqaruvni uning xususiyatlari boshqaruv obyekti sifatida korporatsiyaning o‘ziga xosliklari bilan izohlanadigan alohida bir turga ajratib, aksiyadorlar manfaatlarining ustuvorligi shu bilan birga ularning korporatsiyaning rivojlantirish va boshqarishdagi roliga asoslangan, aksiyadorlarning o‘zaro aloqa qilishini ko‘zda tutadigan (korporativ kommunikatsiyalar) mulkchilik huquqining amalga oshirilishini hisobga oladigan, butun korporatsiyaning rivojlantirish strategiyasiga asoslangan va nihoyat, korporativ madaniyatni vujudga keltiradigan boshqaruv sifatida tavsiflash mumkin”¹³³. Fikrimizcha, aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ boshqaruvi barcha yo‘nalishlarni qamrab oladi.

Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ boshqaruv tizimi haqida iqtisodchilardan R.Karlibayeva bayon etishicha, “Zamonaviy sharoitda milliy aksiyadorlik jamiyatlarida shakllangan korporativ boshqaruv respublikamizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlarning turli bosqichlarida rivojlanib bormoqda. Lekin shu rivojlanish, jahon amaliyotida korporativ boshqaruvning evolyutsion taraqqiyoti bilan qiyoslaganda, qisqa davrda sifat jihatdan takomillashib borganligini kuzatish mumkin”¹³⁴. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, aksiyadorlik jamiyatini tashkil etishdan maqsad ham mulkni birgalikda boshqarishdir.

¹³³ Umarxodjaeva M.G., Ismailov A.R. Korporativ boshqaruv-2 //O‘quv qo‘llanma.-TDIU. – 2019. – T. 218.

¹³⁴ Karlibayeva R. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish //Архив научных исследований. – 2020. – T. 35.

“Davlatning korporativ boshqaruvdagi ishtiroki strategik ahamiyatga ega iqtisodiyot soha va tarmoqlarida samarali davlat nazorati o‘rnatish orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim tarmoqlarning rivojlantirish imkonini beradi. Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish orqali davlat aholi turmush farovonligini oshirishga intiladi. Keltirilayotgan bu jihatlarga erishish uchun esa mamlakatda yirik aksiyadorlik jamiyatlari faoliyat yuritishi muhim hisoblanadi. Chunki yirik aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati aholi bandligi va daromadliligi ta’minlanishida, davlat byudjeti daromadlarining asosiy qismi shakllanishida, keskin xalqaro raqobat sharoitida mamlakat eksport salohiyatini oshirishda va hokazolarda hal qiluvchi ahamiyatga ega”¹³⁵. Bu omillarni hisobga olgan holda, O‘zbekiston aksiyadorlik sub’yektlarining moliyaviy boshqaruvi uchun korporativ boshqaruv tizimini samarali yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga ega.

Korporativ boshqaruv (CG) juda katta iqtisodiy ahamiyatga ega va biznes va iqtisodiyotning ko'plab jabhalariga ta'sir qiladi. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning asosiy iqtisodiy jihatlari quyidagilardan iborat:

Birinchisi, katta investitsiyalarni jalb qilish qobiliyati. Moliyaviy tavakkalchiliklarni yaxshiroq boshqarish, ochiqlik va samarali korporativ boshqaruv aksiyadorlik korxonalarining investorlar uchun jozibadorligini oshiradi va investitsiyalarni rag‘batlantiradi.

Ikkinchisi, kapital tannarxining pasayishi: oqilona boshqaruvga ega bo'lgan korxonalar kapitalni yanada samarali ishlatishga qodir, bu esa xarajatlarni kamaytiradi va investitsiya daromadlarining oshishiga olib keladi.

Uchinchisi, samaradorlikni oshirish imkoniyatlari. Aksiyadorlik jamiyatlarida yaxshi tashkil etilgan korporativ boshqaruv samaradorlikni barcha yo‘nalishda oshirishi mumkin.

Moliyaviy barqarorlikni kuchaytirish: yaxshi boshqariladigan aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy inqirozlarni yaxshiroq yengib, o‘zlarining pul oqimlarini

¹³⁵ Эльмирзаев С., Маматов Б. (2020). Корпоративное управление в акционерных обществах с участием государства. Экономика И Образование, 1(1), 81–85.

muvozanatlashtira oladi, bu esa butun iqtisodiyotning barqarorligiga hissa qo'shadi.

Raqobatbardoshlikni oshirish: CG kompaniyalarga o'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashish, innovatsiyalar kiritish va raqobatdosh ustunlikka erishishga yordam beradi.

Faoliyatga iste'dodlarni jalb qila olish shu bilan birga saqlab qolish: yaxshi korporativ boshqaruv kompaniyani professionallar uchun yanada jozibador qilishi, shuningdek, xodimlarning motivatsiyasi va sodiqligini oshirishi mumkin.

